



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxtatga olingan.

2024-yil.  
2-son.

#### Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'lqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulkumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Qayum BAYMIROV  
Adiba DAVLATOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinnbosari)

#### Bosh muharrir

Lutfullo JURAYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Emma TOROSYAN

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalar bosilishi mumkin. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqllovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2024.25.02. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6.0. "Arial" garniturasi. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma — Adadi 2420 nusxa. Bahosi keshilgan narnda.

1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

## Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

## L ANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### MUNDARIJA

##### Dolzarb mavzu

Baxtiyor Mengliyev.	Muvaffaqiyatning yetti bosqichi .....	3
Kommuna Umurzakova.	O'zbekiston ijtimoiy tarmoqlarida yoshlar nutqi .....	7

##### Dars muqaddas

Aziza Saydullayeva.	Mumtoz so'z badiiyati .....	8
Jamilakhon Khujaeva.	The role of artificial intelligence in language teaching methods: new horizons of education ... 11	

##### Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Yusup Kushakov.	Til muhitini yaratish – chet til o'qitishning zamonaviy usulni .....	12
-----------------	--	----

##### Metodik tavsija

Charos Hamdamova.	Xitoy tilida o'qish va yozish ko'nikmasini rivojlantirish usullari .....	14
Feruza Tashpulatova.	Tinglab tushunish ko'nikmasini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida shakllantirishning ahamiyati .....	15
Konisbay Yusupov.	Technologies for teaching karakalpak literature .....	16
Nazokat Jiyanova.	Grafik organayzerlarning dars samaradorligini oshirishdagisi amaliy ahamiyati .....	18
Shahodat Ziyayeva.	Fransuz tili fonetikasini o'rgatish va talaffuz mahoratini takomillashtirish .....	21
Vasila Mamadayupova.	Til o'rganish jarayonida psixologik moyillik .....	23
Zulfiya Sidknazarova.	Ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy usullari .....	24

##### Tilshunoslik

Akramjon Qo'ldashev.	Termin va ikkilamchi nominatsiya hosila til birliklarining leksikalizatsiyasi .....	25
Madina Tukhtakhujaeva.	Why do we say things differently and what role does it play in communicative language teaching? .....	27
Gulnaz Turgunbaeva.	Semantic peculiarities of tourism terms in the english and russian languages .....	29
Sevara Ibragimova.	Xorijiy tilni o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanan .....	30
Shahoza Qo'ldasheva.	Nominatsiya jarayonining ayrim muammoli holatlari haqida mulohazalar .....	32

##### Tarjimashunoslik

Saida Sultanova.	Badiiy tarjimaga o'rgatishning metodologik masalalari .....	33
------------------	---	----

##### Tahlil

Fazilat Inogamova.	Lug'at maqolasi frazeologik birlik semantikasi va pragmatikasini tushuntirish uslubi sifatida .....	35
Nargiza Xayrullayeva.	Ispan tilining hozirgi dunyoda tutgan o'rnii va ahamiyati .....	37
Shohista Mansurova.	Nolisoniy oly o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishning interfaol metodlari .....	38
Valijon Qodirov.	Metodikamiz ilmini yangilagan darslik .....	39

##### Tadqiqot

Laylo Raupova.	Simvol va metafora hodisalarining lingvistik tadqiqi .....	41
Mahbuba Rasulova.	Navigating the language of law: tips for teaching legal english to esl students .....	43

##### Kichik tadqiqot

Hurshid Sarimsokov.	Temuriylar davriga oid manbalarda jismoniy tarbiya va sportga oid terminlarning aks etishi ....	45
Dildora Ibragimova.	Payg'ambarlar qissalarini – tarixiy nasr namunasi sifatida .....	46
Zilola Mirqodirova.	Ways of teaching english effectively .....	47

## "USTOZ – 2021" TANLOVIDA G'OLIB BO'LGAN O'QITUVCHILAR TURKIYAGA JO'NAB KETISHDI

Ayni damda "Ustoz – 2021" tanlovi g'oliblari Turkiyaning Istanbul shahrida tashkil etilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etishmoqda.



Ma'lumki, 2021-yilda o'tkazilgan mazkur tanlovda jami 29 850 nafar pedagog qatnashgan bo'lib, ulardan 40 nafari finalga yetib kelishgan edi.

Tanlov so'ngida ulardan 8 nafari quyidagi nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikni qo'liga kiritgan:

"Tashabbuskor ustoz" – Zakir Rozimov;

"Ta'lif sohasida ko'rsatgan xizmatlari uchun" — Rayxan Tulyakova;

"Umid timsoli" – Mehriniso Norova;

"Boshlang'ich ta'lif fidokor ustoz" — Dildoraxon Umurzakova;

"Matonatlil ustoz" – Nilufar Olimova;

"Fidoyi ustoz" – Ulug'bek Mamajonov;

"Mehridaryo ustoz" – Hilola Norova;

"Plyus 1" – Iqboljon Kamolov.

## KOREYS TILI OLIMPIADASI BO'LIB O'TDI

Bugun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Koreya Ta'lif markazi bilan hamkorlikda ilk bora Koreys tili olimpiadasi bo'lib o'tdi.

Unda butun Respublikamizdan kelgan o'quvchilar o'z bilimlarini sinab ko'rishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra:

Robiya Oybekova, Andijon viloyati, Shahrihon tumanidagi 1-umumta'lif maktabi o'quvchisi - 1-o'rin;

Ahmadullo Subhanov, Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 42-umumta'lif maktabi o'quvchisi - 2-o'rin;

Kim Artur, Toshkent shahar Mirobod tumanidagi MATES nodavlat ta'lif muassasasi o'quvchisi - 3-o'rinni egalladi.

Shuningdek, Muhammad No'monxo'jayev, Namangan shahridagi 34-umumta'lif maktabi o'quvchisi 4-o'rin; Diana Razmatova, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 35-umumta'lif maktab o'quvchisi 5-o'rin; Iroda Rahimova, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 190-umumta'lif maktab o'quvchisi 6-o'rin; Lazokatxon Inagamova, Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 145-umumta'lif maktabi o'quvchisi 7-o'rin; Kim Kristina, Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 54-umumta'lif maktabi o'quvchisi 8-o'rin; Ramzbek Boymurodov, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 167-umumta'lif maktab o'quvchisi 9-o'rin; Ruxshonaxon Marufova, Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi o'quvchisi 10-o'rinni qo'liga kiritishdi.

Olimpiada g'oliblari quyidagicha bir martalik pul mu-kofotlari bilan taqdirlandi:

1-o'rin: 6 000 000 so'm;

2-o'rin: 4 500 000 so'm;

3-o'rin: 3 500 000 so'm;

4-10-o'rnlarni egallagan ishtirokchilarga esa 1 000 000 so'm.

Shuningdek, 1-5-o'rin sohiblari Koreyaga ta'lif sayohatiga yuborilishi rejalashtirilmoqda.

Bunda barcha mukofot va ta'lif sayohati xarajatlari Koreya ta'lif markazi tomonidan qoplanadi.





Baxtiyor MENGLIYEV,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

## MUVAFFAQIYATNING YETTI BOSQICHI

(yoki "Lison ut-tayr"ni yangicha idrok etish tajribasidan)

Mumtoz adabiyot – beba ho boyligimiz. Undan foydanish esa alohida muammo. O'quvchilarimizning qanchasi va ular nechog'liq bu adabiyotdan to'laqonli bahramand bo'layotir? Bugun innovatsion zamonda bu masalani kun tartibiga qo'yish lozim. O'tmish osori atiqalariga hurmat va undan foydalanish boshqa-boshqa masala. Albatta, o'tmishdan faxrlanish kelajakka ishonch bilan qarashda muhim. Yosh avlodni o'tmishga muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi jamiyatimizda u yoki bu darajada uddalanmoqda. Ammo o'tmish merosdan foydalanish masalasida faxrlanadigan jihatlarimiz kam. Xususan, bu mumtoz adabiyotga munosabatda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiyotda shakl, mazmun va vazifa uchligi mavjud. Bu go'zallik, hikmat va ezgulik sifatida ham tavsiflanadi. Ana shu uch jihat muvofigligi adabiyotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'quvchining uni qabul qilishi ham ushbu uch jihatni ma'qullashi bilan kechadi. O'quvchi nega zamonaviy adabiyotni yaxshi qabul qiladi-yu, mumtoz adabiyot masalasida bunday fikri ayta olmaymiz? Talabalar orasida o'tkazgan so'rovlarimizda ularning aksariyati Navoiyni tushunmasligini aytishadi. Hatto filologarning rostgo'yлари ham: "Men Navoiyni o'qimagan filologman", deganlarini eshitganman. Bu o'quvchi/kitobxonning fojiasimi? Men unday o'ylamayman. Hozirgi zamon o'quvchisining Navoiyni anglamasligi tabiiy hol. Axir bizni 500 yil ajratib turibdi. Yana yuqoridagi uchlikka qaytamiz. Navoiy tilini tushunish uchun yo yuksak darajadagi mutaxassis bo'lish kerak, yo u davrda yashash kerak. Mutaxassis bo'lib ham Navoiy asarlaring zamonaviy nashrlarida ming-ming xatolarga yo'l qo'yayotganimizning sababi ham mana shunda. Mutaxassis o'laroq Navoiy tilini tushunmas ekanmiz, bugungi o'quvchini tushunishga majbur qilishimiz – be-ma'nilik. Navoiydan ezgulik sabog'ini olish uchun undagi hikmatni anglash kerak. Hikmatni anglash uchun esa uning tili (shakli)dan zavq ola bilish kerak. To'g'ri, Navoiy dostonlarining nasriy bayonlari, g'azallarining sharhlari berilmoqda. Lekin bunda mazkur uchlikning muhim tarkibiy qismi – shakl yo'q. Shaklsiz esa estetik zavq bo'lmaydi. Estetik zavqsiz adabiyot – shunchaki bayon bo'lib qoladi. Nasriy bayon va sharhlardan faqat mazmunni anglash mumkin xolos. U endi biz sevishimiz kerak bo'lgan mumtoz adabiyot emas.

Navoiy she'riyatini (umuman, mumtoz adabiyotni ma'lum davrgacha) hozirgi tilimizga yuqoridagi uchlikni saqlagan holda moslashtirmas ekanmiz, o'quvchi uni tushuna olishidan umid qilib bo'lmaydi. O'zbek tilini o'zga tilli guruhlarda o'qitadigan bir hamkasbimiz "darslikda Navoiydan g'azallar berilgan, hech ham tushuntira olmayapmiz, mana shu moslashtirilgan matningizdan foydalanay", deb oldilar va juda yaxshi natija bergenligini ta'kidladilar.

Jahon adabiyotshunosligida o'tmish adabiyoti davrga moslashtirish yo'li bilan targ'ib etiladi. Birgina Shekspir ijodini bunga misol sifatida aytish mumkin. O'zbek adabiyotshunosligida ham mumtoz adabiyotga bunday yondashishga katta ijtimoiy ehtiyoj mavjud. Adabiy moslashtirish nazariyasi va amaliyoti adabiyotshunoslikning amaliy yo'nalishi sifatida shakllanishi va mumtoz asarlarning moslashtirilgan zamonaviy matnlarini tayyorlash mumtoz adabiyotdan ommaviy bahramand bo'lishni ta'minlaydi. Men mumtoz adabiyotning eng go'zal moslashtirilgan matni sifatida ustozimiz professor Boqijon To'xliyev va do'stimiz professor Fazliddin Ravshanovning "Qutadg'u bilig" bo'yicha yaratgan moslashtirilgan matnlarini alohida ta'kidlayman va har doim undan ilhom olganman.

Pareto (80/20) qonuni metodologiyasi asosida yondashiladigan bo'lsa, "Lison ut-tayr" dostoni "20%" o'la-roq Alisher Navoiy ijodiy konsepsiyasining "80%"ni ifodalaydi. Shuning uchun ham namuna sifatida Alisher Navoiyning nisbatan kam o'qiladigan, lekin uning idealini o'zida aks ettiradigan darajalanishda birinchi o'rinni egalelaydigan, har bir davrda muhim metodologik qimmatga ega bo'lgan shoh asari – "Lison ut-tayr" masnaviysining moslashtirilgan matnini tayyorladik.

Bu doston nafaqat ma'naviy-ruhiy komil inson, balki jismoniy, aqliy, ijtimoiy, kasbiy va shu kabi masalalarda ham o'z oldiga ezgu maqsadlarni qo'ygan har bir kishi uchun unga erishish yo'lida muhim qo'llanma, dastur, umuman olganda, shaxsiy takomillashuv konsepsiysi vazifasini bajaradi. Hazrat talqinidagi "yor", "ma'shuq", "Haq" obrazlari shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadni ifodalaydi. Dostondagi yetti vodiylari ham u bilan bog'liq. Masalan: 1) **talab** shaxsning biror maqsadni istash holati; 2) **ishq** esa qo'yilgan maqsadga muhabbat; 3) **ma'rifat** intilinayotgan maqsad haqida to'laqonli bilimni aks ettiradi; 4) **istig'no** (ehtiyojsizlik) "ko'zda tutilgan maqsaddan boshqa narsaga chalg'imaslik" mazmunini beradi; 5) **tavhid** (birlik) shaxsning o'zida maqsadni, maqsadida esa o'zini ko'rishini nazarda tutadi; 6) **hayrat** erishilgan maqsadga singib ketish, maqsaddan tashqarida o'zini yo'q deb bilish.

Mutafakkir bu maqsadga erishishning keyingisi oldingisini albatta taqozo etadigan yettita bosqichi (vodiysi)ni ajratadi. Oldingi bosqich tanlov (seleksiya) bosqichidir. Bosqichlardan yuqorilagan sayin tanlov shartlari murakkablashib, qiyinlashib boradi. Qo'yilgan talablarga javob bergen ming kishidan bir nafarigina keyingi bosqichga ko'tarilishi mumkin. Asarning ijtimoiy qimmatini mana shunday tushunish lozim.

Quyida hozirgi o'zbek adabiy tiliga moslashtirilgan matndan ayrim parchalarni hukmingizga havola etamiz.

**1. Talab vodiysi**

Qachon talab vodisiga yetgaysan,  
Har oningda yuz ming alam yutgaysan.  
Har dam senga yuz malollik yuzlanar,  
Har nafas ming turfa hollik yuzlanar.  
Istak ranji ko'ngullaring zor etar,  
Topolmaslik ruhlaringni xor etar.  
Jonlaringni kuydiradi mahrumlik,  
Va visolning zamoni ham mavhumlik.  
Mashaqqatlar vujudingni yaralar,  
Bedavo dard jism-u jonning poralar.  
Izlaganing magar noyob dur ekan,  
Topmaysan to dunyo g'amming bor ekan.  
Kechmoq lozim mol-mulk yoki har nedan,  
Aytmoq kerak "Alloh ulug'" fanodan.  
Ishtiyoqdan o'zga ne bor, tashlagin,  
O'zni maqsad manziliga boshlagin.  
Qolmasa gar dunyoning hirs-havasi,  
Bo'lgay hosil bir sifatning mevasi.  
Ganjidan bo'lgay obod ruhi vayroning,  
Zoti nuri yorug' aylab jahoning.  
U yorug'lik shavq o'tin tez aylagay,  
Talab otin qadamin tez aylagay.  
Bir talabing yuz talabga aylangay,  
Huzuringda tog' dalaga aylangay.  
Rohati jon bo'lgay talab rohati,  
Unut bo'lgay azoblarning shiddati.  
Muhabbatga ko'ngling sezsa gar xoslik,  
Oson bo'lgay sening uchun g'avvoslik.  
Nasib etsa quyoshdan bir shu'lari gar,  
Qaro shoming saharlarga ular.  
Oldingga gar quturgan fil kelsa ham,  
Pashsha kabi ko'rinar fil bo'lsa ham.  
Gar yo'lingni to'ssa yuz sher yo yo'lbars,  
Bo'lar cho'loq chumolidek ular, bas.  
U g'aznadan nasib etsa biror ganj,  
Aj dahodan ham yetmagay zarra ranj.  
Kufr bilan iymondan gar kechilgay,  
Shundayin bir noyob eshik ochilgay.  
Hech narsa yo'q na kufrdan, na dindan,  
Kirgan chog'ing qutulgaysan baridan.  
Yo'lovchiga maslak emas kufr, din,  
Ular to'siq, qaytaruvchi safardin.

**2. Ishq vodiysi**

Bosib o'tsang gar talablar vodiyn,  
Ko'rajaksan Ishq degan bir vodiyn.  
Ishq demakdir so'nmaydigan mash'ala,  
Mash'al emas, ko'ngildagi u shu'la.  
Ishq aro har kim munosib o'Imagay,  
O'tga loyiq samandar qush bo'Imagay.  
Ishq aro pok qalandarlik kerakdir,  
Shu'la ichra samandarlik kerakdir.  
Kuymoq aylab ishin oshiq devona,  
Shu'la ichra bamisol parvona.  
Donolik hech ra'nolarning ishimas,  
Parvonalik kapalakning haddimas.  
Jilva aylar kapalaklar gul uza,  
Bolalarga husni zebin ko'rguza.  
Devonaning ishin lekin qilolmas,

O'zin o'tga parvonadek urolmas.  
Kapalakda bo'lsa hamki rang-u xol,  
Parvonadek bo'la olmas so'z-u hol.  
Barcha qushning oti bulbul bo'Imagay,  
To azaldan ishq aro kul bo'Imagay.  
Kuymaganlar ishqda ishqboz emasdир,  
Oshiq emas, kimki jonso'z emasdир.  
Shodmon aylar ishq ahlini o'tanmoq,  
Iloji yo'q bu amalni o'rganmoq.  
Ishq ahlining qalbidagi u olov,  
Ajdar og'zi uzra chiqqan ol yalov.  
Ajdar ko'ngli oh chekishga yot emas,  
Otashgohda yongan ishq siz o't emas.  
Olamlarni yoqar ishqning yolgini,  
Misli ko'kdan tushgan havo chaqini.  
Ishq o'tiga asil oshiq yonadi,  
Chaqmoqlardan go'yo xashak yonadi.  
Oshiq ko'ngli otashzada emasdир,  
Dema, ko'ngli otashkada emasdир.  
Otashkada ichra tushsa gar kishi,  
O'tanmoqdan iboratdir har ishi.  
Oshiqlikdan kimga yetsa magar o't,  
Ajablanma, o'tga tushgan bo'lar o't.  
Ishqi o'ttab kim har taraf aylanar,  
O't aylangan, albat, o'tda o'tanar.  
Sargardonlik ishqda, dema, o'yindir,  
Jism ichra tushgan misli quyundir.  
Oshiqlikda lozim erur o'tanmoq,  
Kuymoqlikdan boshqa sira chora yo'q.  
Ishq ko'kidan qayon tushsa bir chaqin,  
Jonni aylar olovga g'arq u yolqin.  
Ishq olovi xonumonni kuydirar,  
Na xonumon, bor jahonni kuydirar.  
Jon bermoqni oshiqqa ish anglagil,  
Ishq yo'lida oddiy yumush anglagil.

**3. Ma'rifat vodiysi**

Ma'rifatning vodiyini so'ngra bil,  
Bepoyon dasht ekanligin anglagil.  
Bu vodiyiga magar kimdir kirgaydir,  
Unda cheksiz ixtilofni ko'rgaydir.  
Vodiydirki, yuz tuman ming unda yo'l,  
Yo'llar o'zga, bu yo'l emas o'zga yo'l.  
Butun-bo'lak, ham ziddiyat bundadir,  
Tanazzul va taraqqiyot bundadir.  
Son-sanoqsiz yo'ichi ketar beqaror,  
Har biri bir yo'lni aylab ixtiyor.  
O'z yo'lidan iftixor-la borgaydir,  
O'zga yo'lni o'z yo'liga burgaydir.  
Biri uni ma'qul ko'rmay, u buni,  
Biri buni ma'qul ko'rmay, bu uni.  
Pashsha unda yo'l bosadi va fil ham,  
Pashsha unda qanot qoqar, Jibril ham.  
Muso unda yo'lovchidir, Fir'avn ham,  
Birdek emas, hatto emas yaqin ham.  
Mahdi<sup>1</sup>, Dajjal<sup>2</sup> ketar, birga mazhabi,  
Teng emas lek Iso bilan markab<sup>3</sup>и.

<sup>1</sup> O'n ikki imomning oxirgisi<sup>2</sup> Afsonaviy vahshiy maxluq<sup>3</sup> Ulov

Muhammad-u Abu Jahl<sup>4</sup> ketadi,  
 Bu nurga g'arq, u zulmatda yotadi.  
 Yo'l bosadi ham yaxshi-yu ham yomon,  
 Unda mo'min yo'ichi, kofir ham hamon.  
 Otashparast Loti sari yukinib,  
 Ka'ba ahli Allohiga sig'inib.  
 Kufr ahli Lotni "ogoh" degaylar,  
 Islom ahli lek "illalloh" degaylar.  
 Bu ishlarda bor muqarrar ixtilof,  
 Chunki asli yo'llarga yor ixtilof.  
 Bu xususda Rasululloh demishlar:  
 "Ulus safar aylasa Haq tomon gar.  
 Yo'llar sonin magar bilmoq istaysan,  
 Xalq nafasin unga qiyos etgaysan.  
 Yo'llar bari toza emas hamda sof,  
 Chunki bunda muqarrardir ixtilof.  
 Bu yo'llarda gadoning ham, shohning ham,  
 O'z yo'li bor – quyoshning ham, mohnning ham.  
 Ixtiloflar nafsga xos bir sifat,  
 Lozim bunda ham sifatu kamolot.  
 Yo'ichilarda sodir bo'ldi tafovut,  
 Kimga mehrob, kimga otash, kimga but.  
 O'z bilimi har kim uchun zo'r sifat,  
 Ko'p tafovut paydo qildi ma'rifikat.  
 Har kim istar bir narsada kamol gar,  
 Vodiy uzra izlab uni aylanar.  
 Yo'llar magar ketgan edi har yona,  
 Maqsadlari edi lekin yagona.  
 Yo'llar egri yoki to'g'ri bo'lsa ham,  
 Yoki yaqin yoki uzoq o'lsa ham.  
 Birov ketgan, birov yitgan yo'l aro,  
 Birovlar oyora o'ng, so'l aro.  
 Qolmadi bu yo'lni bosib o'tmagan,  
 Bo'ljadi o'z maqsadiga yetmagan.  
 Ma'rifikatning kuni ko'kda balqigach,  
 Har kishi o'z maqsadiga qalqigach.  
 O'z yo'lidan natijalar kutadi,  
 Naqdi uchun taqvo-toat etadi.  
 Chunki tangri yo'lariga nur sochgay,  
 Kamolotga har kim uchun yo'l ochgay.  
 Topdi har kim, istab chekkan bo'lsa ranj,  
 Yo'l yakuni uzra tilab neki ganj.  
 Yo'llar aro son-sanoqsiz ixtilof,  
 Ko'pi nosof edi, lekin ozi sof.  
 Sofi erur Rasululloh mansubi,  
 Shariatga yo'boshchi Haq noibi.

#### 4. Istig'no<sup>5</sup> vodiyi

Undan so'ngra kelgan vodiy Istig'no,  
 Unda tengdir hamma – a'lo ham adno<sup>6</sup>.  
 Bunda bo'lib istig'noning shiddati,  
 Ulus aro solib g'avg'o haybati.  
 Unda yog'ib istig'noning yog'ini,  
 Bosib suvi olamning har yog'ini.  
 Yetti dengiz go'yo tomchi shodasi,  
 Yetti osmon go'yo ko'knor donasi.  
 Yetti do'zax unda uchqun kabidir,

Sakkiz jannat misli shudring kabidir.  
 Chumolining ozuqasi sher bo'lgay,  
 Pashsha unda fil ovlashga teng kelgay.  
 Yetti iqlim ichra shohi qahramon,  
 Gado unda bir yonda va u bir yon.  
 Yuz ming askar yonida saf tortgaydir,  
 Zarbof to'nni hech kim pisand etmaydir.  
 Bunda ko'kni yutmoq bo'lgan ajdarlar,  
 Bibi Maryam iplariga tengdirlar.  
 Ming maloyik bunda topmay e'tirof,  
 Faqat Odam tojga bo'ldi musharraf.  
 Yuz ming jism yot bo'lganda ruhidan,  
 Xaloskorlik yetdi uning Nuhidan.  
 Sonsiz pashsha talaganda Namrud<sup>7</sup>ni,  
 Xalil gulzor etganida u o'tni.  
 Yuz ming bola behudaga o'lishi,  
 Kalimulloh yurtga podsho bo'lishi.  
 Bog'lab zunnor yuz ming nafar ahli din,  
 Iso sabab olako'zan topib jon.  
 Zolim podsho yuz minglab qon to'kkani,  
 Muhammadning arsh uzra sayr etgani.  
 Hammasi teng – bu yerda yo'q va bor ham,  
 Ahli din-u va yo ahli kuffor ham.  
 Ming yil Zahhok<sup>8</sup> ulusidan to'kdi qon,  
 Yoki Masih o'lganlarga berdi jon.  
 Buxtunnasr<sup>9</sup> zulm-u qasos qilsa-da,  
 No'shiravon odil podshoh bo'lsa-da.  
 Barchasining bunda hukmin bitta bil,  
 Kel, istig'no vodiysini kuzatgil.  
 Agar yuz ming quyosh g'oyib bo'lsa ham,  
 Deysan, charxdan bitta zarra bo'ldi kam.  
 Singib ketsa mingta dengiz yerga gar,  
 Yo'qoldi de arzimagan qatralar.  
 Kuyib ketsa yuz ming tuman hur-pari,  
 Kuydi deb bil sen pashshaning bir pari.  
 Yel sovursa magar to'qqiz falakni,  
 De uchirdi shamol oddiy xashakni.  
 Ko'hi Qofdek yuz tog'ning yo'q bo'lmog'i,  
 Dona qumming go'yo nobud o'lmog'i.  
 Jannatdag'i sidra, to'bi yo'qolgay,  
 Bitta yaproq yo'qligiga teng bo'lgay.  
 Unda teng bil gumrohlar-u ham ogoh,  
 Mayxona-yu hamda bizning baytulloh.  
 Butxona-yu Ka'ba bunda teng erur,  
 Vayrona-yu obod unda teng erur.  
 Bunda teng ming yoshli fil va bolasi,  
 Butun borliq va ko'knorning donasi.  
 Kufr va din miqdori teng bo'lgaydir,  
 Bunda mo'min ishi oson bo'lmaydir.

#### 5. Tavhid<sup>10</sup> vodiyi

Undan so'ngra Tavhid kelar, anglagil,  
 Tavhid desam, yakkalikni sen bilgil.  
 Bu vodiyda sayring yakun qilgaysan,  
 Yuz tuman ming qushni bir deb bilgaysan.

<sup>4</sup> Qadimda o'tgan zolim podshohlardan, naql qilinishicha, pashshalar talab o'ldirgan

<sup>5</sup> Eron afsonalariga ko'ra yelkasidan ilon o'sib chiqqan zolim podshoh.

<sup>6</sup> Quddusni vayron qilgan mustabid shoh.

<sup>7</sup> Yagonalik, birlik

<sup>4</sup> Muhammad (SAV)ga qarshi kurashgan, jaholat va nondonlik timsoli

<sup>5</sup> Ehtiyojsizlik

<sup>6</sup> Oddiy inson

Bunda barin chin maqsadi yolg'izlik,  
 Barchasining kuy, navosi kimsizlik.  
 Gar yo'lchilar shu holatga yetgaylar,  
 Birlikda yo'q bo'lmoq maqsad etgaylor.  
 Bir karra bir natijasi bir bo'lar,  
 Uni fahm qilmoqqa ne aql bor?  
 Bu qiyin ish sen-la bo'lsa yuzma-yuz,  
 "Bir"dan boshqa demoqlikka hech yo'q so'z.  
 Bir bo'l, bir ko'r, bir degin, bir tilagin,  
 Mayl qilma, bilmoq ikki neligin.  
 Ikkilik bu birni ikki demoqlik,  
 Bir demoqdan o'zni chetga olmoqlik.

### 6. Hayrat

Tavhidni sen bosib o'tsang, u zamon,  
 Hayrat sari yetgaydursan begumon.  
 Bunda hali yetmay boshlar uzra tig',  
 Boshlanadi yuz ming oh-u ham darig'.  
 Hayrat aylar tillarni gung va lol ham,  
 Aql ketib, hushni aylar poymol ham.  
 Kecha-kunduz uzra boqsa har necha,  
 Anglab bo'imas bu kunduzmi yo kecha.  
 Yo'jni bilmas, borini ham anglamas,  
 Qachon bo'lgay – tonglami yo tonglamas.  
 Har narsaga qaraganda ko'z hayron,  
 Hayronlikdan bo'lar sarson, sargardon.  
 Vodiy uzra qadam qo'ysa har kishi,  
 Hayronlikdan o'zga bo'imas hech ishi.  
 Tavhidda u har neni kasb aylagan,  
 Yolg'izlik va ajralishda ne qilgan.  
 Har ne bo'igan, har ne qilgan – yo'q etgay,  
 Hatto o'zin borligini unutgay.  
 So'rasalar: "Bormisan yo yo'qmisan?"  
 Yoinki sen birmisan yo ikkisan?  
 Bera olmas hech qaysiga u javob,  
 Bor-yo'qlikdan qila olmas u xitob.  
 O'rtada, yo bir taraf, yo tashqari,  
 Chekkadami, yo keyin yo ilgari.  
 Hech qaysiga o'zin bilmas hech yaqin,  
 Hayrat bilan chetda bo'lar barchadin.  
 Unga ne xos – foniylikmi, boqiylik,  
 Mast ekanmi va yo ishi soqiylik.  
 Bilmaydi u mayjudmi yo nomalum,  
 Yo yo'qdir u va yo bilmas u malum.  
 Har yon boqsa, hayratlari ortgaydir,  
 O'zni g'ayrat dengizida topgaydur.  
 Dermish: "Oshiq ekanimdan hayronman,  
 Lek bilmayman – kimga oshiq ekanman".  
 Har zarraga boqar zarrot orqali,  
 Tavsifi yo'q uning isbot orqali.  
 Bu maqomda yuz ming holat yuzlanar,  
 Biri bitmay boz ming holat yuzlanar.

### 7. Fano vodiysi

Bundan o'tsang yana bitta vodiy bor,  
 Bu vodiyning otin Faqru Fano der.  
 Vodiyingdir sifatlari xomushlik,  
 Va, shuningdek, gunglik, karlik, behushlik.  
 Bu dengizni to'fon, girdob qoplagan,  
 Yuz tuman ming olam unda g'arq bo'igan.

Kuchli bo'ron aylaganda unda avj,  
 Ayon qilar yuz tuman ming naqsh mavj.  
 Topgaydir bu naqshlar har dam fano,  
 Paydo bo'lgay ming naqshlar ham yana.  
 Yaxshi boqsang, mavjda vujud bo'Imagay,  
 Bir dengiz bor, o'zga mavjud bo'Imagay.  
 Haq vujudin cheksiz dengiz desalar,  
 Mavjlar esa u yaratgan narsalar.  
 Ma'no ahli aylaydigan e'tibor,  
 O'n sakkiz ming olam ichra neki bor.  
 Ular shakl jihatidan mavjuddir,  
 Shakl bilan ko'ringuvchi vujuddir.  
 Zamin uzra yuzlab shakl, tovlanish,  
 Har shaklda ming shaklga aylanish.  
 Faraz qilgin, dengizlar va ma'danlar,  
 Dala-dasht-u cho'l-u sahro, gulshanlar.  
 Yuz tuman ming lola va gul – bari pok,  
 Qilgay to'rg'ay, bulbullarni u halok.  
 Turli iqlim, mamlakatlar va bog'lar,  
 Daryo, buloq, jig'alar-u va tog'lar.  
 Olov, havo, yana ajib ko'p narsa,  
 Bizlar ko'rib bilmaydigan nimarsa.  
 Atrofida yana to'qqiz falak bor,  
 Sayyoralar hamda qancha malak bor.  
 Maloyikni sanab bo'imas, yo'q soni,  
 Balki miqdor ichra yo'qdir poyoni.  
 Unda bo'lsa ojiz, zaif bir axtar<sup>11</sup>,  
 Yer jismi ham bo'la olmas u qadar.  
 Olti tomon, yetti osmon, to'rt unsur,  
 Koinotga ular nodir asosdir.  
 Barchasidan sharaflisi insondir,  
 Kamoliga aqlilar ham hayrondir.  
 Uni avom deya gumon qilsang ham,  
 Yo zodagon, aslzoda bilsang ham.  
 Desang sulton – iqtidorning sohibi,  
 Hoqon desang – ixtiyorning sohibi.  
 Faylasuf-u, hakim yoki dinshunos,  
 Uyushmagan qavmdir yo fanshunos.  
 Yo valiydir bo'lib xalqning vakili,  
 Faraz ayla va yo nabi, rasuli.  
 Barchasini Haq dengizin mavji bil,  
 Vujudini shu mavj yanglig' anglagil.  
 Va hammasi vaqtincha naqsh etilgan,  
 Bari foni va baqosiz bitilgan.  
 Bo'lib dengiz chayqalishin mahsuli,  
 Naqsh bo'lib, go'yo dengiz hosili.  
 Bu mavjlardan qolmagaydir bir asar,  
 Magar dengiz chayqalishdan tinsa gar.  
 Fikr qilgin, ilk nuqtadan to abad,  
 Nimaniki o'ylagaysan deb mavjud.  
 Qodir, g'affor, jabbor Hakam barhaqdir,  
 Barcha foni, faqat Tangri mutlaqdir.  
 Faqat unga mavjud bo'lmox xos erur,  
 Faqat unga baqo rasmi mos erur.  
 Haqdan o'zga, deylik, bo'lsa biror zot  
 Uchun nasib etgan bo'lsa obhayot,  
 Baribir u foni erur, gar baqo,  
 Istar bo'lsang, qilgin o'zni sen fano.

<sup>11</sup> Yulduz

Kommuna UMURZAKOVA,  
Qo'qon davlat universiteti  
Jahon tillari kafedrasи o'qituvchisi

## O'ZBEKISTON IJTIMOIY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQI

Bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirishning asosiy usuli bu – nutq. Buning uchun bolaning bilim olishga bo'lgan intilishini, shuningdek, ongli ravishda bunga nisbatan harakatlarini qo'llab-quvvatlash va ona tilida gaplashish istagini rag'batlantirish zarur. Bunday sharoitda o'spirinlarning nutq madaniyatini umumta'lim mакtabida va undan keyingi ta'lilda shakllantirish vazifasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbek madaniyatida oila bolaning shaxs bo'lib voyaga yetishishida muhim rol o'ynaydi. Oilaviy an'analar va urf-odatlar kelajak avlodning Vatanga muhabbat, o'z madaniyati va millatiga hurmat kabi fazillatlarini belgilab beradi. Bugungi axborotlashtirish va globalashuv davrida ota-onalar va keksa avlod vakillari oldida yoshlarning ona tili – o'zbek tiliga bo'lgan munosabatini o'zgartirish vazifasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Badiiy adabiyotni o'qishga bo'lgan muhabbatni oshirish, ba'zi tarixiy so'z va iboralarning ma'nosini tushuntirib berish, mamlakat, shahar, mahalla tarixini o'rgatib borish ham zarur. Til me'yordi filologlar tomonidan ixtiro qilinmagan, ular butun xalq adabiy tili rivojlanishining ma'lum bir bosqichini aks ettiradi. Til me'yordi farmon bilan kiritilishi yoki bekor qilinishi, ma'muriy usul bilan isloh qilinishi mumkin emas. Talaffuz normalari va so'zlarning ishlatalish qoidalariga beparvolik, jargon va vulgarizmlardan foydalanish, asossiz chet el so'zlarini ishlatalish nutqni ifloslantiradi, adabiy tilni yo'q qilib, oxir-oqibat, tilshunoslar aytganidek, millat tanazzuliga olib keladi.

Mamlakatimizda nutq madaniyatining pasayish muammolari, jargon va xalq tilining tarqalish tendensiysi dolzarb bo'lib, nutq madaniyati ijtimoiy ahamiyatga egaligi bois bunga alohida e'tibor berilmoqda. Kommunikativ nutq madaniyatini shakllantirish muammosi turli yosh guruhlarida turlicha ifodalananadi va, asosan, o'spirin mакtab o'quvchilariga taalluqlidir. Binobarin, barcha ta'lim muassasalari va ularda ishlayotgan o'qituvchilarning muhim vazifasi adabiy tilga asoslangan og'zaki muloqot madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish uchun qulay sharoit yaratishdir.

Bugun o'zbek tilini takomillashtirish bo'yicha ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoxda. Shunga qaramasdan, asosiy muammolardan biri nutqimizda chet el so'zlaridan tobora ko'p foydalanish bo'lib qolmoqda. Jargon so'zlar madaniy nutqni siqib chiqarib, ommaviy madaniyat tufayli butun xalq tilida o'z asarini qoldirmoqda. Ma'lum bir yoshdan boshlab ko'pchilik "ko'cha" tilidan faol foydalanadi, ammo vaqt o'tishi bilan ular adabiy tildan tez-tez foydalanishni boshlaydilar. Yoshlar jargon so'z bilan "o'ynash", hayotga alohida munosabatda bo'lish, to'g'ri, barqaror, zerikarli, odatliy narsalarni rad etishga asoslangan. Afsuski, ko'p holatlarda keksa avlod vakillari ham jargonga qaramlikni saqlab qolmoqda.

Nutqning zamonaviy shakli yoshlarning nutq madaniyati darajasiga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Biroq so'nggi yillarda yoshlarning nutqi va umumiylar madaniyati sezilarli darajada o'zgardi, axloqiy me'yorlar e'tiborsiz qoldirila boshlandi, bu esa jamiyatning tanazulga uchrashiga olib kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, yoshlar orasida ona tilini bilish darajasi, adabiyotga qiziqish pasaymoqda. Zamonaviy yoshlar va katta avlodning aksariyat qismi kitob o'qishni Internetning ijtimoiy tarmoqlarida "onlayn" bilan almashtirib, kitob mutolaasiga juda oz vaqt ajratishmoqda.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantirish demakdir (A.A.Leontev). Ilmiy tadqiqotlar va yo'naliishlar tahvilini maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarda boshlangan. Maktabgacha ta'lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o'qitish zarurligi masalasini ko'tarib chiqdi. U tomonidan o'tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958–1960-yillar) natijasida maktabgacha yoshdagagi o'zbek bolalariga ruscha og'zaki nutqni o'rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'z shaklida umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi.

Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsnинг va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va h.k.lar)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liq. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rın tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishi yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni taqozo etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoxda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o'zining doimiy ko'rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi insonlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday muloqot esa real voqeqlikdan ayri holda kechadi va inson o'zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. Bu esa insoniy tuyg'ularning yo'qolib borishiga zamin yaratadi. Yaqin o'tmishimizda insonlar o'rtasida "uyga keling" deb taklif qilingan bo'lsa, endilikda "telegram kanalim"ga tashrif buyuring,

"Facebookdagi sahifam"ga kiring degan takliflardan ajablanmay qo'yidik. Shu nuqtayi nazardan qaragan-da, shiddatli global o'zgarishlar davrida yoshlar ong-u shuurini Internet tizimining ijtimoiy tarmogi'i orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va is-honchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb et-moqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilar, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lамини yanada kengaytirishni talab qiladi.

Ma'lumki, dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarni turli mafkuraviy xurujlar dan himoya qilish, yoshlarni hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo'rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondag'i ziddiyat va qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o'zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g'animplarning g'ara-zli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mam-

lakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobji natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviyat va ma'rifat ishi – vatanparvarlik ishi, vijdon ishi" ekanligi to'g'risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur.

Umuman, bugungi kunda Internet tizimining ijtimoiy tarmoqlari salbiy ta'sirining oldini olish uchun yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, iqtidorli va iste'dodli bolalarning o'z ijodlarini erkin namoyon etish va axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus Internet dasturlarini ko'proq tuzib, yoshlarga mo'ljallangan turli mavzular bo'yicha maqsadli loyiha va sohaviy tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab borish maqsadga muvofiqdir. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ko'zlar qalbning ko'zgusi, nutq esa shaxsning ko'zgusi. Biz zamonaviy jamiyat, yoshlarni vatanparvarlik va millatimizga muhabbat ruhi-da tarbiyalashga befarq bo'lmasisligimiz kerak. Ona tiliga muhabbatni kuchaytirish esa komil shaxsni tarbiyalashning yana bir muhim bosqichidir.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018. – 11-bet.
- Nutq madaniyati (o'quv-metodik qo'llanma). – Toshkent, 2007. – 46–47-betlar.
- Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: Movaraunnahr, 2016. – 5-bet.
- Таранов П. Энциклопедия высокого ума. – Москва, 1999. – C.16.
- Rajabov H.I. "Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolini" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 206–207-betlar.
- Tashmetov T.X. Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullari // Academic Research in Educational Sciences, 2020, 1(3), 326–331.

Dars – muqaddas



Aziza SAYDULLAYEVA,

Toshkent shahar Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## MUMTOZ SO'Z BADIYATI (8-sinf, III chorak)

**Darsning mavzusi:** G'azal tahliliga mustaqil ko'nikma hosil qilish (Alisher Navoiyning "Qilg'il" g'azali tahlili asosida).

**Darsning maqsadi:**

a) ta'limiylar maqsad: o'quvchilarning mumtoz adabiyot janrlari yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash; Alisher Navoiyning "Qilg'il" radifli g'azali tahlili ustida ishslash;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilar qalbida mehr-mu-

habbat, shafqat, vafo, sadoqat kabi ezgu tuyg'ularni shakllantirish, ular qalbiga olivjanoblik, xushmuomalalik, rostgo'ylik, halollik kabi insoniy fazilatlarni singdirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning tasavvur ongi, falsafiy, tasavvufiy qarashlarini kengaytirish, fikrlash, mushohada etish qobiliyatini rivojlantirish.

**Darsning jihozi:** slayd, tarqatmalar, darslik, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" devoni.

**Darsning shiori:** Aql ila olam yuzini obod qil, Xulq ila olam elini shod qil. (Alisher Navoiy)

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi va mustahka-mlovchi.

**Darsda foydalaniladigan usullar:** “Savol sizdan, javob bizdan” yoki “Marraga bir qadam”, “Hikmatlar – yaxshilikka yetaklar”.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** kompyuter, videoiprojektor, ekran, ovozkuchaytirgich, mavzuga oid videolavhalar, tarqatma va audiomateriallar, slaydlar.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi: “**Barkamol avlod**”, “**Ma'rifat**”, “**Baytul inju**”. Mashg'ulot davomida o'quvchilarning ishtiroti “**Ofarin**”, “**Barakalla**” hamda “**Intiling**” kartochkalari bilan baholab borilishi aytildi.

#### II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Dars “Hikmatlar – yaxshilikka yetaklar” usuli yordamida boshlanadi. Bunda har bir guruh Alisher Navoiy hikmatlaridan namuna keltirib (yoki o'qituvchi tomonidan berilgan hikmatni) izohlab berishi kerak bo'ladi.

“**Barkamol avlod**” guruhi: Agar so'z go'zallik ziynati bilan bezalmagan bo'lsa, unga chinlik bezagi yetarlidir.

“**Ma'rifat**” guruhi: Ozgina yolg'on ham ulug' gunohdir; ozgina zahar ham halok qiluvchidir.

“**Baytul inju**” guruhi: Chaqimchilik hatto chin gap bo'lsa ham ko'ngilsizdir, yolg'on bo'lsa, yanada nafratlidir. So'z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi – do'zax o'tining tutantirig'i bil.

Guruhlarning javoblari tinglanadi. O'qituvchi tomonidan qo'shimcha sharhlar beriladi. Har bir guruh o'z javobiga mos rag'bat kartochkasini qo'liga kiritadi.

#### III. Yangi mavzu bayoni.

“**Savol sizdan, javob bizdan**” yoki “**Marraga bir qadam**” usulidan foydalanib o'quvchilarning bilimlari sinaladi. Bunda A3 hajmli oq qog'ozga ulkan tog' (cho'qqi) rasmi chiziladi va u “**Muvaffaqiyat cho'qqisi**” deb nomlanadi. Berilgan savollar va topshiriqlarga tog'ri javob bergen guruh magnit toshchasini bir qadam oldinga surib boradi. Muvaffaqiyat cho'qqisini egallagan – marraga birinchi yetib kelgan guruh g'olib sanaladi.

#### “**Barkamol avlod**” guruhi savollar:

1. G'azal nima?
2. G'azalning 1- va so'nggi baytlari qanday nomlanadi?
3. G'azalning qanday turlarini bilasiz?
4. Alisher Navoiyning “Qilg'il” radifli g'azalini ifodali o'qib bering (Alisher Navoiyning “Qilg'il” radifli g'azali slayd orqali ekranda ko'rsatiladi).

Qaro ko'zum, kelu mardumlug' emdi fan qilg'il,  
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,  
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la,  
Ittingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey charx,  
Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,  
Sochingni boshdin ayog' chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohiga, ey bog'bon, emas mone'  
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub o'lsam, ey rafiq, meni  
Gulob ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il.

“**Ma'rifat**” guruhi savollar:

1. G'azal necha baytdan tashkil topadi?
2. “Raviv” so'zining ma'nosi nima, unga ta'rif bering.
3. Qofiya nima? Uning qanday turlari bor?
4. “Qilg'il” radifli g'azalning dastlabki 4 bayti nasriy bayonini yozib, izohlab bering (*Guruhdan har bir o'quvchi bir baytdan izohlaydi*).

Darsni kuzatuvchi hakamlar uchun g'azal baytlarining tahlili slayd orqali keltiriladi.

1-bayt. Qaro ko'zli go'zalim (yoki ey aziz do'stim), muruvvat va vafo yo'lini, odamiylik rasmini tutsangchi. Ko'zimning qorachig'ini gavhar kabi vatan tutsangchi, toki men ko'zim yorishib, olam go'zalliklaridan bahr-amand bo'lsam. Men sening diydoringga shu qadar mushtoqmanki, kelginda, ko'zim qorachig'ida odam kabi qaror topgil, toki judolik, mehrsizlik jafosini men boshqa tortmay.

2-bayt. Sening alpdek qomating niholi mening jon-u dilim bog'ida yashasin va yuzing guli bu bog'ni gulshanga aylantirsin.

3-bayt. Otingning tuyog'iga bag'rim qonidan hino bog'lagin, toki u qoshimdan shitob bilan o'tib ketmasin, men sening vaslingdan bahramand bo'lay. Ey yor, ha-jring g'amida argonday ingichka tortgan jonimni itingga bog'la. Men loaqal itingga baxshida bo'lay, loaqal iting orqali vaslingga tuyassar et.

4-bayt. Agar ayriqliq bilan jangda yengilsam, jism-u jonim barbod bo'lsa, firoq tog'ida tufroqqa aylangan tanimdan qaytadan Ko'kan yaratgin, toki men yor visoliga intilishda davom etay”, deya charxga, ya'ni osmonga murojaat etadi

“**Baytul inju**” guruhi savollar:

1. “Bayt” so'ziga ta'rif bering.
2. Radif nima?
3. Alisher Navoiyning qanday devonlarini bilasiz?
4. Ga'azalning keyingi 4 baytini nasriy bayon qiling.

5-bayt. Agar oshiqlaringga rahming kelsa, sen soch-ningi boshdan oyoq qarmoq, ilgak, o'ramlar kabi jingalak qil, toki oshiqlaring shu “chin-u shikanlar” vositasida oyog'ingdan boshinggacha ko'tarilsinlar – “yuzung visoliga yetsunlar”.

6-baytda shoir bog'bon va bog' so'zlarini ramziy – Yaratuvchi va borliq ma'nosida qo'llaydi. Mehrsiz ma'shuqa jamoliga yetishish orzusida umri xazonga sovurilishiga ishora qiladi. Bog'bon o'z bog'ini har qanday xavf-xatardan himoya qilishi mumkin, ammo yovga

**Dars – muqaddas**

*qarshi bog' torniga igna qadab chiqsa, hamtabiat qon-uni bo'l mish xazon lashkari, ya'ni fano fano vaqt va qayin-lashgach, tashrif buyuruvchi o'limdan olmasligini ta'kidlaydi. Bu lirik chekinish orqali shoir hayotning o'tkinchi ekanligini ta'kidlaydi.*

7-bayt. *Gulob – ma'shuqa yuzidagi ter timsoli bo'lsa, gul bargi – yuzning ramzi. Oshiq ma'shuqa teridan tayyorlangan gulobda cho'miltirilishi va uning gul yuziga burkanishi uchun o'limdan keyingi visolni orzu qiladi. (Agar mahbub yuzida terni ko'rib o'lib ketsam, ey do'st, meni gul suvi bilan yuvda, gul bargidan kafan qilib dafn et).*

8-bayt. *Ey oshiq, to shavqqa to'lmayin, jon-u jahonni shavq o'tida o'tamay turib yor diydoriga tuyassar bo'lish mumkin emas. Bordi-yu, yorituvchi, nurafshon etuvchi, anjumanning shavqiga shavq bag'ishlovchi sham'i shabiston bo'lsin. Agar Alloh vaslidan (Uni anglash) zavq olmoqchi bo'lsang, jon (inson va koinot ruhi) markazi va manbasi bo'lgan Allohni qalbing markaziga qo'yigin... Jonning boshog'li o'qini markazga qo'yib, uni sham' sifatida ishlat. Demak, jonning o'qi shamdek yonib, atrofni yoritish xususiyatiga ega.*

Guruhlarning javoblari tinglanadi. O'qituvchi tomonidan qo'shimcha sharhlar beriladi. Har bir guruhi o'z javobiga mos rag'bat kartochkasini qo'lga kiritadi.

Shundan keyin lug'at va izohlar bilan ishlanadi. Buning uchun g'azal matnidagi notanish so'zlar guruhlarga beriladi. Javoblar tinglangach, slayd namoyish etiladi, o'qituvchi tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.

Mardum – odamlar, ko'z qorachig'i  
Mardumliq – odamiylik, odamgarchilik, saxiylik, himmatilik; ko'zda o'rashish, ko'z oldida turish  
Fan – odat  
Ko'ngil ravzasi – ko'ngil bog'i  
Takovar – tezyurar yo'rg'a ot  
G'amzada – muttasil ozor chekkan  
Ko'hkan – tog' qazuvchi (Farhodning laqabi)  
Chin ila shikan – o'ram-o'ram  
Rafiq – do'st

**IV. Mazuni mustahkamlash.**

Darsning ushbu bosqichida g'azal mavzusi va mazmunini aniqlash topshirig'i uchala guruhga ham umumiyl tarzda beriladi. Buning uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

**Guruhlarning javobi:** Ushbu g'azal **sevgi-muhabbat** mavzusida yozilgan. Shoir g'azalda yorga, osmonga, do'stga va g'azal so'ngida oshiqqa, ya'ni o'ziga murojaat qiladi. "G'azal" so'zining ma'nosi bu – ayollariga xushomad. Ushbu g'azal ham ayollarga xushomad qilishning yaqqol namunasi, desak, mubolag'a bo'lmay-

di. Alisher Navoiyning ko'plab g'azallarida yorga bo'lgan muhabbat bilan birga Alloha bo'lgan muhabbat ham targ'ib etiladi.

Shundan so'ng guruhlarga g'azal badiiyatini aniqlash topshirig'i beriladi. Ajratilgan vaqt oralig'ida "**Barkamol avlod**" guruhi – 1-, 2-baytlarni, "**Ma' rifat**" guruhi – 4-, 5-baytlarni, "**Baytul inju**" guruhi – 6-, 7-baytlarni izohlaydi.

1-bayt. *Ushbu baytda "mardum" va "mardumliq" so'zlarini orasidagi shakl va ma'no munosabatlari asosida so'z o'yini – tajnis yaratilgan. Misralarning "qaro ko'zum" va "ko'zum qarosida" birikmalari bilan boshlanishida tardi aks (ters takror) san'atini ko'rishimiz mumkin.*

2-bayt. *Shoir "yuzung guli", "qading niholi" birikmalarida tashbeh san'atidan foydalangan. Ikkinchisida misrada esa harfiy san'at, tashbehi izmor, ya'ni yashirin tashbeh san'ati qo'llangan. Misradagi "jon" so'zining arab yozuvidagi ko'rinishini oladigan bo'l-sak, ushbu so'zda "alif" harfi so'z o'rtasida (bag'rida) joylashgan bo'lib, u niholga monand. Baytda ma'shuqa qomati ana shu "jon" so'zidagi "alif"ga qiyoslangan. Demak, shoir aytmoqchiki, "alif" "jon" gulshani bag'rida joylashgani singari, sening ham "alif" va nihol yanglig' qomating hamisha mening jonimda, bag'rimda bo'lsin.*

4-baytda esa talmeh san'ati (*Ko'hkan – Farhodning laqabi*) qo'llangan.

5-baytda tazod san'atidan foydalananilgan, ya'ni bosh va oyoq so'zlarini qarama-qarshisi so'zlar.

6-baytda shoir bog'bon va bog' so'zlarini ramziy – yaratuvchi va borliq ma'nosida qo'llaydi va istiora san'atidan foydalananadi. Ko'plab g'azallarning maqta'sida shoir o'z ismi yoki taxallusini keltiradi. Bu nido san'ati deb ataladi.

7-baytda Navoiy o'ziga murojaat etib, nido san'atidan foydalangan. G'azalda fan, vatan, chaman, rasan, ko'hkan, shikan, tikan, kafan, anjuman so'zlarini qofiya bo'lib kelgan. G'azal muqayyad qofiya tarzida qofiyalangan. G'azalda raviy "n" harfi. "Qilg'il" so'zi g'azalda radif sifatida ishlatilgan.

O'quvchilarning g'azal badiiyati bo'yicha tahlili slaydda berilgan tahlillar bilan solishtirilib, javoblarga mos rag'bat kartochkasi beriladi.

**V. Baholash va rag'batlantirish.**

Guruhlarni to'plagan "**Ofarin**", "**Barakalla**", "**Intiling**" kartochkalari hisoblanib, g'olib guruhg'a "**Eng zukko guruh**" nominatsiyasi topshiriladi. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar ham alohida rag'batlantiriladi. O'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.**

Alisher Navoiy g'azallaridan birini yod olish va tahlilini o'rganish.

**Foydalananilgan adabiyotlar**

1. Nurmuhhammadov I., Qambarova S., Olimjonov O., Yuldasheva M., Imomjonova S. 8-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent, 2022.

2. Ibrohim Haqqul. "Qaro ko'zum kelu..." Bir bayt tahlili.

3. <https://hozir.org/qaro-ko'zum-g'azali>

## THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE TEACHING METHODS: NEW HORIZONS OF EDUCATION

In modern education, technology and artificial intelligence (AI) are becoming an integral part of the educational process. With the development of technology and introduction of artificial intelligence into various spheres of life, education does not remain on the sidelines. One of the key areas where AI is showing its importance is in language teaching. In particular, in language teaching, AI is bringing significant innovations and improvements, helping students learn foreign languages more effectively. This article explores how artificial intelligence is transforming language teaching in educational settings, bringing innovation and improvement.

So, as mentioned earlier in the scientific book by E.Yu.Churzina, interest in the use of artificial intelligence is actively manifested in the context of organizing courses in the study of foreign languages. The main idea of teaching languages using artificial intelligence is to create opportunities for independent, interactive and systematically controlled work of students with educational material. The use of technological innovation is considered a key point for organizing effective independent learning, which, in turn, will lead to improved learning outcomes and unlocking the creative potential of students [1].

Let's look at the key aspects of the role of artificial intelligence in this context.

1. *Individualized training*. In his article, Kovalchuk notes that artificial intelligence makes it possible to create unique educational trajectories for each student, taking into account the level of knowledge, interests and pace of assimilation of information of each student. Machine learning algorithms analyze data from the learning process, identify the student's weaknesses and provide individualized tasks for his development. This approach contributes to more efficient and rapid assimilation of the material [2].

2. *Speech recognition technologies*. Speech recognition and synthesis technologies built into AI allow students to improve their pronunciation and listening skills. Interactive AI-powered apps and tutorials provide opportunities to practise language skills in a variety of scenarios, enhancing communication skills by simulating real-life communication situations.

3. *Adaptive learning platforms*. Adaptive learning platforms powered by AI respond to student needs by adjusting the difficulty level of assignments and the pace of learning. Adaptive learning platforms using AI

can change content, task difficulty, and pace of learning to suit each student's progress. This approach allows each student to develop at their own pace, ensuring maximum understanding and mastery of language skills.

4. *Machine translation and language learning*. AI-based machine translation systems help students speak and understand language at a higher level. The integration of AI technologies into educational materials provides access to automatic translation, simplifying the learning process and immersion in the language environment. Such tools become an integral part of the educational process removing language barriers.

5. *Feedback and rating*. Machine learning algorithms can provide instant feedback on grammar, vocabulary and pronunciation. Students can immediately correct their mistakes, which contributes to a deeper understanding of the material. AI also helps educators effectively evaluate progress and tailor learning programs.

6. *Stimulating motivation*. Using gamification and visualization elements in AI learning applications can boost student motivation. They receive rewards, track their progress, and learn with passion, which leads to more successful language learning.

Along with the positive aspects, the introduction of AI in education is associated with a number of problems and challenges. Some of them include:

- uneven access to high-tech solutions across educational institutions and regions can create a digital divide and increase inequalities in education;

- transparency in AI decision-making and ethical issues related to data collection and processing are concerns. There are risks of impartiality and unfairness of algorithms, as well as privacy issues;

- AI implementation requires staff training so that they can effectively use new technologies. Lack of trained personnel may slow down the implementation process;

- integrating new technologies may be technically challenging and require significant investment in infrastructure and training [3].

Solving these problems requires the joint efforts of educational institutions, technology developers, teachers and society at large.

In his study, Yu.N.Kolobanova emphasizes that in the modern educational process, a significant amount

of time is devoted to students' independent work to master educational material. In this regard, teachers are given the important task of demonstrating a carefully thought-out and competent approach to organizing educational activities. It is noted that in this context, modern digital technologies play an indispensable role aimed at increasing the efficiency and optimizing learning. It is emphasized that supporting students' independence is especially valued when they choose the level of difficulty of the material and work at an individual pace and volume. The introduction of modern digital technologies, according to the author, has a beneficial effect on the development of communicative competence in students, which is an essential condition for learning a foreign language [3].

In the world of intelligent teaching systems, there are many striking examples that demonstrate the potential and capabilities of artificial intelligence in education. As mentioned in the article by E.Yu.Churzina, one such striking example is Duolingo. Duolingo uses AI to create personalized language learning lessons. The system adapts to the student's level of knowledge,

provides individualized tasks and uses gamification to stimulate motivation [1].

Another example is Coursera, which uses machine-learning technologies to recommend courses and materials based on student preferences and previous experience. The system also provides automated tools for assignment, assessment and feedback.

In conclusion, I would like to note that the role of AI in the methods of teaching languages in educational institutions is significant and multifaceted. AI is reformatting language teaching methods, making learning more flexible, effective and tailored to the individual needs of students. The introduction of these technologies creates prospects for better learning and promotes the development of intercultural understanding.

This shift to technology-enriched education not only improves language proficiency, but also develops critical thinking and adaptation skills in a multilingual world. The role of AI in education is not only a revolution in teaching methods, but also holds promise for creating better and more accessible education for all.

#### References

1. Чурзина Е.Ю. Практическое применение интеллектуальных обучающих систем на уроках иностранного языка // Шаг в будущее: искусственный интеллект и цифровая экономика [Текст]: материалы 1-й Международной научно-практической конференции. Вып. 4 / Государственный университет управления. – Москва: Издательский дом ГУУ, 2017. – С. 276–281.
2. Ковальчук С.В., Тараненко И.А., Устинова М.Б. Применение искусственного интеллекта для обучения иностранному языку в ВУЗЕ // Современные проблемы науки и образования, 2023, №6.
3. Колобанова Ю.Н. Использование современных цифровых технологий в процессе обучения иностранному языку // Актуальные проблемы совершенствования высшего образования: тезисы докладов конференции. – Ярославль: Филигрань, 2020. – С. 148–150.



## TIL MUHITINI YARATISH – CHET TIL O'QITISHNING ZAMONAVIY USULI

Chet til o'qitish metodikasi tilni o'rganish usullari, texnologiyalari va vositalari yig'indisi bo'lib, tilni noldan yuqori darajada o'rganishga imkon beradigan aniq harakatlar algoritmidir. Bugungi kunda chet tilni o'rganishning eng samarali interfaol usullaridan biri o'quvchini til muhitiga olib kirish bo'lib, u uni chet tilda "fikrlashga" o'rgatadi. Bunda til o'rganish jarayoni butunlay chet tilda olib boriladi. Buni nafaqat ikki tilli oilada, balki oddiy

sinfda ham amalga oshirish imkonibor. Buning uchun o'qituvchi darsni faqat to'liq chet tilda olib borishi va, kerak bo'lganda, ko'rgazmali qurollardan foydalaniishi lozim. U darsni shunday tuzishi kerakki, chet tilda so'zlashidan qat'i nazar o'quvchilar uni tushunsin. O'qituvchining yuqori darajadagi tayyorgarligi hatto eng kichik sinflar uchun ham bunday darsni o'tkazish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdag'i va boshlang'ich

sinf o'quvchilarining ota-onalari avvaliga bu usulni unchalik xush ko'rishmasa-da, keyinchalik bolalarining shijoati va erishgan yutuqlarini ko'rib, ushbu usulning qanchalik samarador ekanligini e'tirof etishadi. Zero, o'rganishga qiziqishni uyg'otish chet tilni o'rganishning eng yaxshi usulidir.

Ko'pgina o'qituvchilar turli usullarni birlashtirib, til muhitiga olib kirishda klassik darsdan foydalanadilar. Chet til o'qitish metodikasi, psixologiya va pedagogika fanlarini bilish ularga idrok va tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, zarur ish uslubi va shakllarini tanlash imkonini beradi. Darhaqiqat, chet til mashg'ulotlarida darslarni tashkil etishning boshqa shakllari – davra suhbat, konsert, til klub, konferensiya, olimpiada va h.k.lar ko'p sonli talabalarni til muhitiga olib kirishga yordam beradi [1: 89].

Motivatsiya kuchaygani sari ko'nikmalar ham yaxshilanadi. Agar ilgari og'zaki chet tilni qanday o'rgatish masalasi dolzarb bo'lgan bo'lsa, endilikda har qanday yoshdag'i odamni chet tilda gapishtiga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, inson yoshi kattalashgan sari uning ishi ham shunchalik ko'paya boradi, ammo bu yerda ko'p narsa talabaning yoshiga emas, balki bilimining boshlang'ich darajasi, uning motivatsiyasi va mehnatsevarligiga bog'liq. Til muhitiga olib kirish nafaqat tilni o'rganish, balki bo'sh vaqtini foydali tashkil qilish imkonini ham beradi [2: 125]. Uning o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchi nafaqat dars o'tadi, balki o'rganilgan mavzuning mustahkamlanishini ham nazorat qiladi. An'anaviy uy vazifasi tavsiyalar bilan almashtiriladi: chet tilda film tomosha qilish, ona tilida so'zlashuvchi bilan gaplashish, qo'shiq tinglash va topshirqlarni bajarish. Chet tilda filmlarni tomosha qilish nafaqat xorijiy nutqni tushunishga o'rgatadi, balki til o'rganishni qiziqarli jarayonga aylantirishi ham mumkin. Bu talaffuzni yaxshilash qatorida fikrni chet tilda yaxshiroq ifodalashga, ona tilida so'zlashuvchi bilan muloqot esa og'zaki nutqni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [4: 29]. Chet tildagi kompyuter o'yinlari ham katta-kichikni til muhitiga olib kirishda muhim o'rnatadi.

Albatta, ba'zi talabalar ko'proq an'anaviy til o'rganishga moyil bo'ladi. Uning assosini leksik va grammatic materialni o'rganish, so'ngra topshirqlarni bajarish kabilalar tashkil etadi. Psixologiyani bilish o'qituvchiga

har qanday usul yordamida har qanday talabaning chet til bilish darajasini oshirishga yordam beradi.

Ba'zan til muhitiga olib kirish va an'anaviy usullardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini tanlash qiyin kechadi. Tilni turli yo'llar bilan o'rganishga harakat qilgan ma'qilroq, ammo har doim ham turli kurslarga qatnashish va ular ichidan eng yaxshisini tanlash uchun vaqt bo'lmaydi. Bunday paytlarda chet tilni o'rganish maqsadiga tayanim lozim, masalan, chet tilda gapishtiga o'rganmoqchi bo'lganlar uchun kommunikativ usul ko'proq mos keldi. Bu nutqni, fikrlashni va ijodkorlikni yaxshilashi bois undan darsni tashkil etishning turli shakllarida foydalanish mumkin [5]. Bu usul guruhning o'zaro ta'siri prinsipi ga asoslanadi. Ishning asosiy shakllari: biznes o'yinlari, loyiha faoliyati, guruh ishi, konferensiyalar. Tilni bilish darajasi turlicha bo'lgan talabalar bilan muloqot qilish tufayli nutq yaxshilanadi va "til to'sig'i" yo'qoladi.

Ba'zilar o'qituvchi yordamida til o'rganishni xohlamay, mustaqil ta'lif usulini tanlashadi. Bu usul uzoq vaqt oldin paydo bo'lgan bo'lib, odamlarning o'zlarini o'rganishga harakat qila boshlaganlar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mustaqil ta'lif faqat darslik o'qish yoki disk tinglashdan iborat emas. Mustaqil ta'lif oluvchi kompyuter dasturi yordamida xatolarni to'g'rilashi, ko'nikmalarni rivojlantirishi, yo'l-yo'riq olishi, o'tilganlar ni mustahkamlash uchun vazifalarni tanlashi mumkin ekan, demak, bu uning baribir o'qituvchi yordamiga muhtoj ekanligidan darak beradi. Shuning uchun mustaqil ravishda til o'rganishga harakat qilganlar ko'pincha muvaffaqiyat qozona olmaydi. Ushbu usul faqat dastlabki bosqichda bazaviy bilim olish yoki o'qituvchi o'tgan darslarni to'ldirish uchun eng yaxshi vositadir.

Ba'zan o'qituvchilar o'rtasida o'qitish usullari borasida kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, kimdir avval harflar va tovushlar bilan tanishtirib, keyin o'qishni o'rgatishni eng to'g'ri yo'l deb hisoblasa, kimdir so'zlarni yaxlit o'rgatish usulini afzal deb biladi. Bizningcha, ikkinchisi til muhitini yaratish uchun juda mos keladi. Bu so'z va jumlalarni yaxshiroq eslab qolishga yordam berib, nutqni ravonlashtiradi. O'qitish metodikasi nafaqat an'anaviy, balki darslik, ish kitobi, CD, DVD, o'quv dasturlaridan iborat zamonaviy o'quv-metodik majmualarni tanlashga ham bog'liq. Zero, to'g'ri tanlangan o'qitish vositasi nafaqat talabaga til o'rganish, balki o'qituvchiga ham til o'rgatishda katta yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lingvistik ensiklopedik lug'at / V.N.Yartseva muharrirligi ostida. To'ldirilgan 2-nashri. – Moskva: Katta rus ensiklopediyasi, 2002.
2. Mokrushina N.Y. Fransuz tilidagi anglikizmlar globalashuv jarayoni natijasi sifatida // Filologiya fanlari. Nazariya va amaliyotga oid savollar. № 6. 1-qism. – Tambov: Sertifikat, 2014.
3. Bogaards P. On ne parle pas français: la langue française face à l'anglais. – Bruxelle: De Boeck Duculot, 2008.
4. Hachette-Oxford français-anglais, anglais-français, troisième édition. – Paris-Oxford: Hachette; Oxford University Press, 2001.
5. <http://www.culture.fr/franceterme> (2024. 01.15).



**Charos HAMDAMOVA,**  
*Samarqand davlat chet tillar instituti Yaqin sharq tillari  
 kafedrasasi o'qituvchisi*

## XITOY TILIDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

(HSK 5 misolida)

Xitoy tili darajasini bilish imtihoni – HSKning 5-darajasi o'qish qismida aslida talabgorning jamiyat, haziq-mutoyiba, ilm-fan, ta'lif, psixika singari hayotning turli sohalariga oid bo'lgan 200 belgidan iborat matnni o'qib tushunishi, unda berilgan sodda gaplar, murakkab sodda gaplar, qo'shma gaplar, murakkab so'z birkimlari, chalg'ituvchi so'zlar, bir-birini talab etuvchi so'zlar, ishoralar, barqaror birkimlarni tushuna olishi, qo'llay olishi, bajarayotgan vazifasi haqida chuqur bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Xitoy tilida grammatik, semantik, hissiy rang-baranglik singari omillar ta'siri ostida matn tarkibida qaysidir ikki so'z o'rtasida barqaroq bog'langan aloqa yuzaga kelib, ushbu ikki so'z matnda ko'pincha birlgilikda namoyon bo'ladi. HSK 5 imtihonining o'qish qismida esa, asosan, shu turdag'i birlgilikda namoyon bo'luvchi ikki so'zlar turkumiga ot va fe'l, sifat va ot, sifat va fe'l, hisob so'z va ot singari bir-birini talab etuvchi qurilmalar 搭配形式 kiradi. Masalan:

在沙滩的排球上，半躺在沙滩椅中，头顶着蓝天，脚下踩着软软的细沙，吹着海风，享受那份惬意。阳光下，球场两边各有两名\_\_\_\_\_着太阳眼镜，晒得一身古铜色\_\_\_\_\_运动员在往前争守。满身子沙子，还有满身的汗水，在蓝天白云的衬托下，阳光的照射下，动感而\_\_\_\_\_活力。 – Plajdagi o'yin maydonida yarim tanamni qum bilan ko'mib, boshimni ko'kka tikib, oyog'imni mayda-mayda yumshoq qumlarga ko'mgandim. Dengiz shamoli uvillar, go'yoki men undan rohatlanardim. Quyosh nuri ostida, o'yin maydonining ikki tomonida ko'zoynak \_\_\_\_\_, quyoshdan misrang bilan kuygan teri bilan \_\_\_\_\_ sportchilar bellashishardi. Tanam qum bilan, va yana ter bilan qoplangan, moviy osmon oq bulut yog'dusida, quyosh nuri ostida ta'sirli va ajoyib \_\_\_\_\_.

1. A. 穿 B. 带 C. 挂 D. 戴
2. A. 皮肤 B. 身体 C. 头发 D. 胳膊
3. A. 形成 B. 包括 C. 充满 D. 实现

1-savoldagi \_\_\_\_\_着太阳眼镜quyosh ko'zoynagini taqib turibdi so'z birkimasida 眼镜 ko'zoynak bilan yonma-yon qo'llanila oladigan yagona fe'l bu戴 taqmoq (D javob);

2-savoldagi variantlar ichida晒得一身古铜色 (quyoshdan misrang bilan kuygan) \_\_\_\_\_ bilan birlgilikda qo'llaniladigan yagona ot esa B javobdag'i 身体 tana;

3-savoldagi \_\_\_\_\_活力 kuch, quvvat esa o'zidan oldin faqat充满 to'lgan fe'lini oladi.

Bundan ko'rinish turibdiki, HSK 5 darajasidagi o'qish

qismining matnlarini o'qib tahlil uchun eski tipik o'qitish tizimidagi bittalab so'z yodlash, uni tarjima qilib, so'ng ushbu so'z ishtirokida gap tuzib o'rganish shart emas. Xitoy tilining o'ziga xos yana bir jihat shundaki, ko'p hollarda ma'lum bir ot bilan qo'llanilgan fe'l boshqa hollarda o'sha otdan boshqa so'zlarni olmaydi.

Odatda, HSK 5 ning o'qish imtihoniga tayyorlanishda talabgordan fe'l va ot, sifat va ot, otga oid hisob so'zlarning birga qo'llanilishi, ishlatalish o'rnii to'g'risida bilimga ega bo'lish talab etiladi. Oldin matnni sinchiklab o'qib, keyin uni tahlil qilish, matnning asl mohiyatini tushunib olish, undan keyingina matndagi bo'sh joylar o'rniga so'z qo'yish o'rniga gapda bo'sh joydan oldin va keyin kelgan so'zga e'tibor berib, to'rtta variant ichidan unga mosini qidirish har doim ham oson bo'lgan. Agar talabgor o'shanday yonma-yon keluvchi so'zlar haqida chuqur bilim va ko'nikmaga ega bo'lsa, tezlik bilan to'g'ri javobni topa oladi.

Quyidagi bir-birini talab etuvchi hisob so'zlar va ular bilan bevosita bog'lanadigan so'zlarning qisqacha ro'yxatini keltiramiz:

一份保险/试圈	一场辩论/战争	一册书/教材
Bitta sug'urta / savollar kitobi	Bitta muhokama / urush	1-qism kitob / materiallar
一对翅膀	一笔贷款/资金	一条短信/规则/纪录
Bir juft qanot	Bitta kredit mablag'	Bir xabar / qoida / yozuv
一块肥皂/石头/橡皮	一根黄瓜/绳子	一把剪刀/扇子/散
Bir bo'lak sovun / tosh / o'chirgich	Bitta bodring arqon	Bitta qaychi / veer / soyabon

O'qish qismidagi matnlarni o'qib to'g'ri javobni belgilash jarayonida bo'sh joydan oldin va keyin qo'yilgan so'zlarga qarab shuni anglash mumkinki, bu kabi so'z tanlash mashqlarida so'zlarni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Ma'nodosh, bir-biriga itoat etadigan so'zlar.
2. Zid va teskari ma'noli so'zlar.

Ma'nodosh, bir-biriga itoat etadigan so'zlarga to'xtalidigan bo'lsak, ular, odatda, ma'no jihatdan bir-birini to'ldirib turishlari seziladi. Biroq xitoy tilida haddan tashqari ma'nodosh so'zlarning ko'pligi bois talabgorni ba'zan chalg'itib qo'yadi. Masalan:

某少年认为自己最大的缺点是胆小，所以他去看心理医生。医生听了他介绍的情况后，说：“这怎么叫缺点呢，分明是优点嘛。你只不过是\_\_\_\_罢了，而

这样的人总是最可靠，很少出乱子”。— Bir yosh yigit qo'rqlikni o'zining eng katta kamchiligi deb hisoblab, psixolog ko'rigiga bordi. Psixolog uning gaplarini eshitib, "Bu kamchilikmi, axir bu bir o'ziga xoslik-ku, sen bor-yo'gi \_\_\_\_\_ xolos, buning ustiga bunday odamlar ishonarli va ularda kamdan kam muammo paydo bo'ladi", deb javob berdi.

A. 周到 (o'ychan) B. 谨慎 (ehtiyotkor) C. 沉默 (sokin) D. 专心 (diqqatli)

Matnning boshida 胆小, ya'ni "qo'rkoq" degan so'zni uchratdik, ikkinchi gapda esa 最可靠, 很少出乱子, ya'ni "ishonarli" va "ularda kamdan kam muammo paydo bo'ladi" birikmalari qo'llanilganini inobatga olsak, B javobdag'i 谨慎, ya'ni "ehtiyotkor" javobini tanlashimiz maqsadga muvofiq. Aksincha, zid va teskari ma'noli so'zlar, o'z ma'nosidan anglashilganidek, matnda teskari va zid ma'noli hodisalarini yasashga xizmat qiladi:

有的人很\_\_\_\_\_，一上车就有座。有的人很倒霉，即使全车的人都坐下了，他还站着。— Ayrimlar juda \_\_\_\_\_, transportga chiqishlari bilanoq, bo'sh joy topiladi. Aksincha, ayrimlar juda omadsiz, bo'sh joy bo'lisa-da, o'zlar tik turishadi.

A. 疲劳 (charchagan) B. 兴奋 (hayajonli) C. 热情 (mehribon) D. 幸运(omadli)

Ushbu matnning ikkinchi qismida 倒霉 – "omadsiz" so'zi uchradi, uning teskari ma'nodoshi esa 幸运, ya'ni "omadli", "peshonasi yarqiragan" so'zi ekanligini inobatga olsak, D javobini tanlashimiz maqsadga muvofiq.

HSK 5 imtihonining o'qish qismida yuqoridagi singari matnlari va savollar ko'p uchrashini inobatga olgan holda quyida qisqacha ma'nodosh, bir-biriga itoat etadigan so'zlar hamda zid va teskari ma'noli so'zlarning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Ma'nodosh, bir-biriga itoat etadigan so'zlar

安慰 (tinchlantirmoq)	别伤心 / 难过了 (x a f a b o ' l m a ) , 没关系 (hechqisi yo'q) , 不要紧 (muhimmas)
灰心 (tushkunlikka tushgan)	失望 (umidini yo'qotgan)
有把握 (o'ziga ishongan)	肯定 (albatta)
专心 (e'tiborli)	注意力集中 (diqqatini jamlagan)

Zid va teskari ma'noli so'zlar

正 (to'g'ri)	反 (teskari)
紧 (tashvishlangan)	松 (sokin)
违反 (buzilgan)	遵守 (itoat etgan)

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, HSK 5 imtihonining o'qish qismi 1-tur matnlarini tez va unumli ishlash uchun yuqorida keltirilgan shu kabi sanoqli so'zlar turkumini o'rganish kifoya. Ushbu so'zlar yordamida javobni topish har tomonlama matnni o'qib tahlil qilish, unda kerakli bo'lgan kalit so'zni topish, to'rtta variantni tahlil qilibgina javobni belgilash ham vaqt reglamentiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

- 刘超英等编著, 新HSK5级速成强化教程 - 北京语言大学出版社, 2013.5.
- 刘云, 新汉语水平考试阅读(五级) 攻略 - 北京大学出版社, 2011.11.

Feruza TASHPULATOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti  
Ispan tili nazariy fanlar kafedrasи katta o'qituvchisi

## TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Hozirda tinglab tushunishni rivojlantirish chet tilni o'rganishda eng ko'p qo'llaniladigan usuldir. Hisob-kitoblarga ko'ra, kattalar muloqot vaqtining deyarli yarmini tinglash bilan o'tkazadilar, o'quvchilar esa maktabda ma'lumotlarning 90 foizini o'qituvchilar va bir-birini tinglash orqali olishlari mumkin.

Bizning miyamiz, odatda, tinglangan axborotlarning qaysi biri ma'noli yoki ma'nosizligini ixtiyoriy ravishda hal qiladi. Biz buni to'liq nazorat qila olmaymiz, shunday ekan, xorijiy tilni o'rganish jarayonida bu jihat inobatga olinishi muhim. Chet tilda tinglash va so'zlash avtomatik tarzda sodir bo'lishi uchun bizning miyamiz ma'lumotni ma'noli yoki ma'nosiz deb filtrlab o'tirmasdan tinglash-

da davom etishi va diqqat-e'tibor chet tilga qaratilishi lozim.

Tinglovchilar eshitilgan ma'lumotlarni passiv qabul qildilar, eshitganlarini yozib olishdan ko'ra og'zaki sharhlashda ko'proq faol ishtirot etadilar. Barcha tinglash jarayonlari bir xil emas, masalan, tasodifiy salomlashish akademik ma'ruzalarga qaraganda alohida tinglash qobiliyatini talab qiladi. Tilni o'rganish tovushlarni aniqlash va ulardan ma'no yaratish strategiyalari qo'llanadigan qasddan tinglashni talab qiladi.

Tinglash jarayoni xabar jo'natuvchi (inson, radio, televizor), xabar va xabar qabul qiluvchi (tinglovchi)ni o'z ichiga oladi. Tinglovchilar, ko'pincha, xabar kelishi

bilan uni ortga qaytmasdan yoki oldinga qaramasdan qayta ishlashlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari, tingulovchilar xabar jo'natuvchining so'z boyligi, gap qurilishi va xabar yetkazish tezligiga moslashishi ham kerak bo'ladi. Tinglash jarayonining murakkabligi, ayniqsa, ikkinchi til kontekstida kuchayib, unda xabar qabul qiluvchi har doim ham tilni to'liq nazorat qila olmaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, xorijiy tillarni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'rganish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu tavsiyalarغا amal qilinsa, xorijiy tilni o'rganishda muammolarga duch kelishdan saqlanish, uni o'rganish jarayoni esa samarali bo'lishi mumkin.

Zamonaviy multimedia ilovalari talabalarga til taqdimoti tezligini biroz nazorat qilish imkonini beradi, ya'ni foydalanuvchilar audiomatnni yaxshiroq tushunish va eslab qolish uchun ma'lumot qismlarini tinglashi, zarurat tug'ilsha, to'xtatishi va qayta ko'rib chiqishi mumkin. Videoning qo'shilishi voqealarning aniqligi, mantiqiyligini ta'minlaydi, shunda yangi ma'lumotni eskisi bilan bog'lash (eslab qolish) osonlashadi.

Urg'u, ritm va intonatsiya maqsad, ma'no-mazmuni anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitish tili sintaktik birliklarga bo'linganda urg'u, ritm va intonatsiya avtomatik ravishda ajratib ko'rsatiladi. Gapirilganda, nutqdagi mantiqiy tanaffuslar (biroz to'xtalingan joylar) sintaktik jihatdan bashorat qilinadigan nuqtalarda sodir bo'ladi. Videotaqdimda muayyan so'zlarga urg'u berilib, intonatsiya birliklaridan foydalanganda, suhbатdoshlarning vizual va og'zaki reaksiyalarini diqqat bilan o'rganish mumkin.

Multimedia, ayniqsa, o'quvchilarga o'rganilayotgan til nutqining qisqartirilgan shakllarini tushunishda yordam berishi mumkin. Kompyuter ekranida tabiiy sur'atda yozilgan ovozli ma'lumotning matni ko'rsatilganda, o'quvchi bir vaqtning o'zida yozma va og'zaki shakllardan foydalanish imkoniga ega bo'lib, o'rganilayotgan tilning ikki xil – og'zaki va yozma shaklini tushunishlari, shuningdek, qisqartirilgan shakllarni dekodlashni

o'rganishlari mumkin.

Kompyuter ekranidagi muvofiqlashtirilgan audio, vizual va matnli ma'lumotlar bir vaqtning o'zida talabalgara alohida so'z va jumla tuzilmalari darajasida muammolarni hal qilish uchun ideal laboratoriya tashkil qiladi. O'quvchi ixtiyorida yozma va audiomatn kodini tushunishga yordam beradigan boy vizual va kontekstli maslahatlar mavjud bo'lib, ular ko'plab modal so'zlar, jumlalar, asosiy lug'at va grammatik qoidalarni kengroq tushunish imkonini beradi.

Videomateriallар tilni qayta ishslash uchun boy kontekst manbayi bo'lishi mumkin. Multimedia formatida videotaqdimot tezligi va tartibi ustidan nazorat ta'milanishi, muloqotni o'rganish orqali o'quvchilar iboralar o'tasidagi bog'liqlikni va ularning vizual kontekstda qanday ishlashini his qilishlari va tushunishlari mumkin.

Video til o'rganuvchilar uchun yaxshi jihozlangan vosita bo'la oladi. Talabalar, ko'pincha, ekranda ko'rgan va eshitgan narsalaridan ma'no chiqarish va bashorat qilishga odatlangan bo'lishadi. Multimedia formatida ko'rish/tushunish strategiyalaridan foydalanish, masalan, kadr ustiga oldindan savollar qo'yish bilan video-material ko'rsatilishi va boshqarilishi mumkin. Xulosa chiqarish, bashorat qilish, mavjud bilim va tajribani shu tarzda faollashtirish mumkin.

Hech shubha yo'qki, texnologiya o'qituvchi va o'quvchilarga tilni o'rgatish va o'rganishni yaxshilash uchun katta hajmdagi materiallar va muloqot imkoniyatlarini taqdim etadi. Til kurslarida multimedia texnologiyasi ni muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham yangi usullarni o'zlashtirish va mavjud texnologiyalardan tegishlichcha foydalanishga tayyor bo'lishlari kerak. O'qituvchilar pedagogik, texnik, kasbiy mahoratga ega bo'lishlari lozim, chunki til o'qituvchilari qanchalik ishtiyoqli va bilimdon bo'lsa, Internetni lingofon sinfiga shunchalik muvaffaqiyatli qo'llashlari mumkin. Talabalar texnologiyaga asoslangan faoliyat dan ushbu faoliyat ularning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelsagina foyda olishlari mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

- Volchkova V.I. Use of modern information technologies in teaching foreign languages // Наука и спорт: современные тенденции, 2018, №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-modern-information-technologies-in-teaching-foreign-languages>
- Portillo J., Bernal B.A. Video and audio platforms for improving listening skills in Spanish students of EFL: A preliminary and descriptive study // ELT Forum: Journal of English Language Teaching, 73–87.
- <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/the-benefits-new-technology-language-learning>
- <https://lingopie.com/blog/how-to-improve-your-spanish-listening-practice-9>

Konisbay YUSUPOV,  
Karakalpak State University, Doctor of Pedagogical  
Sciences, Professor

## TECHNOLOGIES FOR TEACHING KARAKALPAK LITERATURE

The article is devoted to one of today's actual problems – ways of increasing student's interest in reading literary books by famous Karakalpak writers on the

basis of the literary-artistic analysis. Studies on the use of innovative technologies in teaching literature were carried out by such scientists as J.G. Yuldashev,

G.D. Baubekova, N. Shamshieva, U.K. Tolipov, M. Usmonboeva, A. Pakhratdinov, K. Yusupov and others, as the introduction of such innovations in the educational process is necessary and important. The deepening of theoretical thoughts on Karakalpak literature, the exact practical significance of these thoughts, the guidance of pedagogical principles in educating the younger generation are the reasons for the demand for modern teaching methods. The use of interactive technologies in teaching Karakalpak literature has peculiar features [1]. Teaching folk epics in Grades 9-10 is a complex pedagogical process. From one side this complexity is characterized by the wide epic scale of teaching them, an unusual way of performing of jiraus (jiraw), the way of our ancestor's living and the characteristic nature of epics [2]. It is important for teachers to completely understand the teaching methods of the lesson, why it is included in the lesson, what kind of spiritual values are intended to be reflected in the lesson, and to choose right methods of teaching the lesson.

Depending on students' age, their level and the inner conditions of the classroom, different and appropriate teaching methods are used. A method that works well for one class may not work as well for another class. For this reason, if the teacher uses interactive methods like thinking from different angles, choosing the right practical tasks, working with small tables, using a comparative analysis of characters of the epic, presentations of visual materials, multimedia materials, of course, s/he will be able to involve students in activities.

Epics, which are considered as wonderful examples of the creativity of the people, have been performed by both jiraus and bakhshis for centuries. The voice of jiraus performing folk epic in a unique way and a beautiful sound of kobyz enter the heart, and such an aesthetic effect remains in their memory for a lifetime. So, in the literature lessons, the audio version of the epics done by jiraus and bakhshis, a video film with a picture taken during the epic, the plot of the epic and the images from the photo albums are used to improve the effectiveness of the lesson. If the lesson is focused on the materials, students will have a complete understanding of the appearance of the characters in the epic, the clothes and the epic place shown in the epic. In Karakalpak literature lessons, the brainstorming method can be used more in teaching epic works and stories [3]. This method has both verbal and non-verbal types, and many of the teachers express their opinions in response to the questions given orally. When it comes to its written form, the given questions are written in a clear and understandable form, not only on notebooks, but also on special paper cards [4].

When the brainstorming method is used in the lesson, students are divided into two groups and given out paper cards. The brainstorming method is based on the goal set by the teacher: it is applied in the introduction part of the lesson when the goal is to clarify students' basic knowledge. If you want to review a topic or link it to another topic, you can do it with a new topic section. If the purpose is to strengthen the knowledge of the

theme, it can be done during the revision part of the lesson after the topic. In addition to this, it is possible to show the advantages of this method in the course of the lesson. In this method, the valuable results of the training lead to the development of students' various thoughts and ideas [5].

The methods of artistic depiction in the prose are descriptions or information, dialogues and monologues, depictions of nature and natural phenomena (landscape), portraiture of the characters, movements, letters written by the characters of the work, diaries and dreams, or mental hallucinations that are skilfully used by classical writers in their work. Famous Karakalpak writers T. Kaipbergenov, Sh. Seitov, K. Mambetov, K. Kamalov, K. Karimov and others have successfully used similar techniques in their prose works.

In the plot of S. Ismailov's novel "Galaxy of the Heart", the heroic deeds of Karakalpak children Bahadyr and Tamara, who made discoveries in world cosmonautics, the memories and visions of several characters, stories, legends, dreams and letters were the basis for the plot and composition. The qualities are clearly reflected in the writer's work with high imagination and through every possible poetic mastery. The novel has two main plot orientations: 1) objective plot: Bahadyr, Tamara, Sabyr's experiences; 2) subjective plot: a convincing way for readers. S. Ismailov's novel "Galaxy of the Heart" has a number of artistic methods, which differ from the artistic power and aesthetic qualities of the plot and compositional development. The descriptions or information, dialogues and monologues, landscape and scenery descriptions, portrait of heroes, movements, letters written by the characters, diary entries and dreams, or mental hallucinatory processes are realistically illustrated.

It is also interesting and scientifically, theoretically and practically significant that these methods of artistic expression were modified by the writer and synthesized together where necessary. In particular, short and extended forms of dialogues and internal monologues of heroes, author's narrative data, landscape fusion, movements and synthesis of portraits are well used.

In our opinion, it is better to dwell on the author's information and narratives in the novel. While cold and ineffective external narratives of psychology and thought are allowed, under various environments, especially in space and other planetary conditions, sometimes with sharp philosophical, social and ethical ideas and current problems, the author's story has achieved great success in depicting the inner psychological thoughts of a person.

A methodological study was conducted on the organization and content of extracurricular activities in Karakalpak literature. The need for studying some literary materials in extracurricular activities was due to the fact that studying the material in the program is not enough. Conducting extracurricular classes in literature makes it possible to consolidate the knowledge gained, to further develop students' worldview. From this point of view, it will be correct to conduct extracurricular activities in accordance with the program, not limited to

regular classes in literature. In terms of purpose and content, extracurricular work on Karakalpak literature is divided into several varieties.

Increasing the level of knowledge requires the appropriate organization of not only classroom, but also extracurricular activities. To this end, we first determined the purpose and objectives of the lesson, the content of the material, and made an analysis of the specialized literature, which allowed us to single out the complex of extracurricular activities as a discussion. Literary travel, country study club, independent work, etc., as well as a set of modern interactive methods, such as brainstorming, cluster, insert, three-story interviews, round table discussions, zigzag, business games, disputes and discussions can be applied during extracurricular activities. The use of new pedagogical technologies in teaching helps create favorable conditions for interlocutors and facilitates the assimilation of

extracurricular material. In this connection, the purpose and objectives of the lesson, the content of the material were studied.

The basis for the formation of educational tasks is the question of the aesthetic and spiritual education of students on the basis of a reassessment of the values, traditions of the people, their culture and spiritual wealth, which require a systematic approach to highlight the ways and techniques of intellectual work. Such stage-by-stage forms of work improve students' skills and abilities, solving problematic questions in literature, and analysing specific situations. As the study showed, positive results in the implementation of the tasks were achieved by highlighting the communicative skills and abilities, and therefore, special attention was paid to ways of improving the culture of oral and written speech, the types of essays and assessment criteria.

#### References

1. Yuldashev K., Madaev O., Abdurazzokov A. Methods of teaching literature. – Tashkent, 1994.
2. Tuxliev B. Methods of teaching literature. – Tashkent, 2010.
3. Yusupov K.A. Methods of teaching Karakalpak literature. – Tashkent: Sano-standart, 2018.
4. Yusupov K.A. Methods of teaching Karakalpak literature at academic lyceums. – Nukus: Karakalpakstan, 2019.
5. Yusupov K.A. Kórkem shíǵarmalardıń mazmuniń úyreniw metodikasi. Oqıw qollanba. – Tashkent: Yosh avlod matbaa, 2021.

**Nazokat JIYANOVA,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

## GRAFIK ORGANAYZERLARNING DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AMALIY AHAMIYATI

Ta'lím-tarbiyaning bosh mezoni o'quvchi yoki talaba-ga mukammal va puxta bilim berishdan iborat. Bugungi kunda rivojlanish jarayonida o'qitishning shakl va usul-lari takomillashib, jahon ta'lím standartlariga tenglashib borishi zamon talabiga aylanmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda ta'lím tizimini isloh qilish, raqamli ta'límni rivo-jlantirish bo'yicha ham keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. O'qitish tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi bunday talabni yanada kuchaytirish shartligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ta'limming barcha turlarida o'qitishni zamonaviy pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir ta'lím beruvchi o'z salohiyati, pedagogik tajrib-asidan kelib chiqqan holda ta'lím texnologiyalaridan foydalanib dars o'tishga odatlanib, ko'nikib bormoqda. Chunki bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv jarayonining barcha turlarini talabga mos holda faollashtirish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari sifatida grafik organayzerlardan ham barcha fanlar bo'yicha mavzu tahlilida foydalanish mumkin. Grafik organayzerlar o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga to'liq

erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafikli tuzilmalar yig'indisidan iborat.

O'qituvchi darsida grafik organayzerlarni tayyor, ya'ni tahlil etilayotgan mavzusiga mos (to'ldirilgan) holda qo'llasa, vosita vazifasini bajaradi. Talabalarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash, aqliy tafakkurini oshirish va fikrlash qobiliyatini rivo-jlantirish, tahlil etilgan mavzuni tez va oson tushunib olishlariga ko'maklashish maqsadida ishlatisa, metod vazifasini bajaradi. Biroq ta'lím beruvchi bu ikki usuldan ham unumli foydalanishi zarur. Shundagina dars samaradorligi oshadi, ta'lím oluvchining darsga bo'lgan ijobiy munosabati shakllanib boradi.

Ilmiy adabiyotlarda grafik organayzerlarning Klaster, B-B-B chizmasi, T-chizma, Venn diagrammasi, Konseptual jadval, Insert jadvali, "Nima uchun?" chizmasi, "Qanday?" diagrammasi, Baliq skeleti, Toifalash jadvali, Nilufar guli kabi ko'rinishlari mavjud ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu grafik organayzerlardan "O'zbek tili", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tilining amaliy uslubiyati" fanlari bo'yicha o'tiladigan mavzular-da qanday foydalanish mumkin?

Manbalarda keltirilishicha, "Klaster" grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya hisoblanadi. Dars jarayonida klasterlardan o'qituvchi o'quvchi (tinglovchi va talaba)lar bilan yakka tartibda ham, guruh asosida ham foydalanishi mumkin. Mashg'ulotlarda mavzuga mos holda tinglovchilar savyasi, darajasi (talaba yoki o'quvchi)ga ko'ra qo'llanadi. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarga yechim topish, berilgan nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish, tahlil qilish, o'z ustida ishslash, erkin fikr aytish imkonini beradi. Klaster talaba (o'quvchi)ning bilimlari faollashishini tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq ifodalashiga yordam beradi. Klasterning turlari ko'p va ma'lum turlar asosida tahlil etiladi.

**Klassik klaster.** O'qituvchi mashg'ulotning boshida doskaga mavzuga doir tayanch so'z va tushunchalarni yozadi va talabalardan daftariga mazkur tushunchani yozib, unga doir miyasiga kelgan fikrlarni tarmoqlash (chizma asosida fikr ketma-ketligini shakllantirish)ni vazifa qilib beradi. Bir necha daqiqadan so'ng o'z fikrlarni juftliklarda va so'ngra butun guruh bilan birgalikda muhokama qilishni so'raydi. Masalan, so'zning semantik tarkibini tahlil etish bo'yicha to'rt-beshta so'zni berishi mumkin: so'z, tushuncha, leksema, semema, sema. Talabalar bu so'zlarning asl ma'nosi va vazifasini bilib

olishlari uchun nazariy ma'lumotlarni o'rganishadi va o'z fikrlarini berishadi (talabalar tomonidan berilgan nazariy fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar, qabul qilinadi). Talabalar tomonidan berilgan fikrlarga misollar keltirish va izohlash talab etiladi. Shunda har bir talaba o'z fikrini misollar asosida dalillashga harakat qildi. O'qituvchi barcha javoblarni tinglagan holda to'g'ri fikrlar va to'g'ri misollarni izohlab beradi. Noto'g'ri aytilgan fikrlar ham tahlil etilishi zarur. Chunki talaba qayerda xatolikka yo'l qo'yanligini bilishi kerak. Shunda talabalar tomonidan tahlillarga bo'lgan noroziliklar kelib chiqmaydi.

Klassik klaster usulidan kompyuterdan foydalangan holda ham vazifa sifatida berish va talabalaridan jadvalni to'ldirishni talab etish mumkin. Bunday ishslash usuli o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. Talabalar so'zning semantik tarkibini to'g'ri tushunib olishsa, leksik birliklarning uslubiy vazifalarini ham to'g'ri tahlil qilish imkoniga ega bo'lishadi. Chunki leksik birliklarning semantik tarkibini tahlil qilish uchun talabalar so'zlarning ma'nosini to'g'ri tahlil eta olishlari kerak. Chunki leksik birliklar badiiy matn tarkibida turlicha uslubiy vazifaga ham xoslanib keladi. Klassik klaster usulidan fanning barcha mavzularida foydalansa ham bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi mavzularga mos holda ishlab chiqishi va foydalanishi mumkin.




So'zning semantik tarkibi mavzusi bo'yicha talabalar (o'quvchilar) Klassik klaster yordamida nazariy ma'lumotlarni o'rganishganlardan keyin "**Mavzuga oid art-klaster (rasmlı klaster)**"dan foydalanish mumkin. Mazkur klasterni tuzish uchun biror-bir mavzuga doir rasmlar qog'ozga joylashtiriladi yoki tayyor rasmlardan foydalilanadi. So'ng talabalar (o'quvchilar) uni tashkil etuvchi komponentlarni chizishlari yoki tayyor rasmlardan foydalanishlari kerak bo'ladi. Tayyor rasmlar mazmuni faqat bir predmet (narsa-buyum, jonli mavjudot va h.k.) yoki yaxlit sujet (tabiat hodisasi, kishilarning turli xil

mashg'uloti)dan iborat bo'lishi mumkin. Tayyor rasmlardan oldin so'z-leksema-semema-semalarini topishlari va gap tuzgan holda matnga aylantirish bo'yicha ham qo'shimcha vazifalar berish mumkin. Demak, talaba rasmga qarab so'zni semantik tarkibi bo'yicha shakllantiradi, bir ma'noli, ko'p ma'noli hodisasini ham tahlil etishlari mumkin. Shunda har bir leksemaning semalariga misollar keltiriladi va ma'no farqlari izohlanadi. Masalan, ko'z – leksema (semema), uning semalari:

- 1) tirik mavjudotning tirik a'zosi;
- 2) nazar; nigoh; qarash;

- 3) ko'rish qobiliyati;  
 4) ba'zi narsalarning biror belgi bilan ajralib, ko'zga o'xshab ketadigan qismi  
 (daraxtning ko'zi, uzukning ko'zi kabi).  
 Demak, o'qituvchi tomonidan berilgan barcha so'zlar

shu tarzda tahlil etilishi kerak. Talabalar (o'quvchilar) ning bu mavzu bo'yicha faolligini oshirishda o'qituvchi savollar tizimini ham shakllantirib olishi zarur. Talaba yoki o'quvchining dars jarayonidagi faolligi o'qituvching mahorati bilan o'lchanadi.



Demak, o'qituvchi tomonidan leksik birliklar, masalan, ko'z, quloq, daraxt, stul, qush kabi so'zlarning rasmlari chizilgan plakat doskaga ilinadi. Talabalar shu so'zlarning semantik tarkibini tahlil qilishadi. So'zning semantik tarkibini to'g'ri tahlil etishlari o'quvchilarni so'z tahliliga o'rgatadi, so'z boyligini oshiradi, fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Endi o'qituvchi mavzuni mustahkamlash uchun qo'shimcha topshiriq ham berishi mumkin. Masalan,

*daraxt, yuz, qanot, etak, ko'p, tirnoq, tutmoq, tunamoq, tinmoq, yurak, pishmoq, qoqmoq, o'ynamoq* kabi so'zlarni keltiriladi va quyidagi topshiriq beriladi:

1. Berilgan so'zlarning semantik tarkibini shakllantiring.
2. So'zlarning uslubiy ma'nolariga badiiy asarlar va she'riyatdan misollar keltiring.
3. Berilgan so'zlar qaysi uslubga xosligini aniqlang.
4. Berilgan topshiriqni BBB jadvali asosida shakllantiring.


Leksema	Semema	Semalar
Yer	+	1) quyoshdan keyingi uchinchi planeta; 2) shu planetaning quruqlik qismi; 3) planetamiz qobig'ining sirtqi qismi; 4) narsalar turgan, tirik organizmlar hayot kechiradigan yuza, sath; 5) yer sathining muayyan bir qismi; joy

Talabalar berilgan barcha so'zlarni BBB jadvali asosida izohlashadi. Bunda so'zlarning semalarini qanday izohlashlari va badiiy matnlardan olgan misollarining to'g'ri yoki noto'g'riligini o'qituvchi talabalar guruhi bilan birgalikda tahlil etib berishi zarur. Shunda har bir talabanining so'zga bergen izohi va olgan misollari mosligi aniqlanadi. Bu usul esa to'g'ri tahlil etolmagan talabaga ham yordam beradi. So'zning semantik tarkibini bilib olishlariga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, mavzu bo'yicha mustahkamlovchi topshiriq sifatida "Nima uchun?" grafik organayzerdan ham foydalanish mumkin. Masalan, o'tilgan mavzu-

ning nazariy qismini mustahkamlash uchun topshiriq sifatida beriladi. Bunda ham tayanch so'zlar keltiriladi va ularning nazariy izohini berishlari talab etiladi. Har bir tayanch so'zni keltirgan holda "Nima uchun?" savoli beriladi. Talaba har bir berilgan savolga og'zaki yoki yozma javob berishi zarur. O'quvchilarning berilgan topshiriqlarga yozma javob berishlari ularning yozma savodxonligini oshiradi, og'zaki javob berishlar esa og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Og'zaki erkin fikr ifodalashga yordam beradi. Bunda so'zning semantik tarkibi bo'yicha "Nima uchun?" grafik organayzerini o'z fikrlari bilan to'ldirish topshirig'i beriladi:

## NIMA UCHUN?



Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, grafik organayzerlar o'quvchiga chizmalar, jadval, grafikli tuzilmalar yordamida mavzuni to'liq tushunib olishlariiga yordam beradi. Mavzu bo'yicha o'rgangan nazariy bilimlarini to'g'ri qo'llashga o'rgatadi. Shuning uchun dars jarayonida grafik organayzerlardan o'rinali va unumli foyda-

lanishga o'rganmog'imiz, harakat qilmog'imiz lozim. Bu esa kelajagimiz bo'lgan yoshlarning o'z ona tilini, uning uslubiy xususiyatlarni bilishlari va nutq jarayonida qo'llay olish imkoniyatini kengaytiradi. Shundagina zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalari to'laligicha tatbiq etilgan bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh., Yusupov T. Sememalarning semalar sostavi va semantik bog'lanishi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1974.
2. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
3. Hojiyev A. Semasiologiya // O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 1981.
4. Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent, 2008.
5. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2013.
6. Jivanova N. O'zbek tilining amaliy uslubiyati. – Toshkent, 2018.
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

**Shahodat ZIYAYEVA,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasи katta o'qituvchisi*

## FRANSUZ TILI FONETIKASINI O'RGATISH VA TALAFFUZ MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Fransuzcha talaffuzni yaxshilash uchun fransuz tili fonetikasi, jumladan, fransuz tilidagi tovushlarni qanday talaffuz qilish lozimligi haqida tushunchaga ega bo'lish kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada fransuz tilining fonetik alifbosini bilan qisqacha tanishtirish qatorida, fransuz tilini o'rganuvchilar uchun muammlo tug'diradigan tovushlar ko'rib chiqiladi, qanday qilib talaffuzni yaxshilash bo'yicha ba'zi maslahatlar berib o'tiladi.

Noto'g'ri talaffuz jarayonida fikrni tushunishda qiyinchilik paydo bo'lishi mumkin. Aniq va to'g'ri talaffuz esa tushunishni yaxshilaydi va muloqotni kuchaytiradi. Shuning uchun to'g'ri talaffuz qilish nafaqat o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, balki boshqalar bilan ularning tilida suhabatlashganda o'zni erkin his qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talaffuz ustida ko'p mehnat qilinsa, tinglash qobiliyati ham sezilarli daraja-da yaxshilanadi.

Fransuz fonetik alifbosida 35 ta tovush, jumladan, 15 ta unli tovush mavjud. Fonetikani o'rgatish va fransuz tilida talaffuz ko'nikmalarini takomillashtirish tilning fonetik qoidalarni tushunish, turli mashqlar orqali talaffuzni mashq qilish va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga qaratilgan resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi, jumladan:

– *unli tovushlar*: o'zbek tilidan farq qiladigan fransuz tili unli tovushlarini taqqoslab, burun unlilari, ochiq va yopiq unlilar orasidagi farqqa e'tibor berish;

– *intonatsiya va ritm*: fransuz tilida intonatsiya va ritmnинг ahamiyatini muhokama qilish; talabalarni fransuz nutqidagi ko'tariluvchi va pasayuvchi ohanglarni farqlay olish va takrorlashga o'rgatish;

– *fonetik mashqlar*: muayyan tovushlarni talaffuz qilish uchun fonetik mashqlardan foydalanish, masalan, o'quvchilardan to'g'ri talaffuzga e'tibor qaratib, o'xshash tovushli so'zlarni takrorlashlarini so'rash;

– *tinglab tushunish*: talabalarga haqiqiy fransuzcha talaffuzni yetkazish uchun audio yoki videolarni tinglash kabi faoliyat turlarini taklif etish va talaffuzga taqlid qilishga undash;

– *onlayn vositalar*: Forvo kabi onlayn manbalar yoki ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan talaffuz qilinadigan so'zlarning audionamunalarni taqdim etuvchi veb-saytlardan foydalanish;

– *til ilovalari*: talaffuz xususiyatlari ega Duolingo, Babbel yoki FluentU kabi ko'pincha talaffuz mashqlarini o'z ichiga oladigan til o'rganish ilovalarini tavsiya etish;

– *muntazam mashq*: talaffuz amaliyotini sinfning muntazam qismiga aylantirib, uzoq davom etadigan mashg'ulotlarga qaraganda samaraliroq bo'lgan qisqa va aniq maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni vaqt-vaqt bilan o'tkazish;

– *shaxsiy e'tibor*: muayyan tovushlarni talaffuz qilishda qiyinchilik sezuvchi talabalarga individual e'tibor berish, shuningdek, maxsus talaffuz muammolariga yo'naltirilgan mashqlarni moslashtirish kabi tavsiyalar, shubhasiz, talabalarga fonetikani o'rgatish va fransuz tilida talaffuz ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi, talaffuzni mashq qilish va taqqoslash imkonini beradi.

Fransuz tilidagi burun unlilari yana bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ingliz tilida burun tovushlari bo'lsa-da, fransuzcha burun tovushlari ko'proq bo'rtitilgan. Shunday qilib, burun tovushiga erishish uchun ovozning burundan ham, og'izdan ham chiqishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Fransuz tilida to'rtta: - /õ/, /ä/, /ɛ/ va /œ/ burun tovushi mavjud bo'lib, ularning har birini mashq qilish mumkin. Fransuzlar, ayniqsa,

so'zlarning oxirida tovushsiz harflarni yaxshi ko'radilar.

Fransuz tilida so'z urg'usi va intonatsiyasi ingliz tildan farq qiladi. Ingliz tilidan farqli o'laroq, ba'zi bo'g'indarga ko'proq urg'u beriladi. Fransuzcha so'zning har bir bo'g'ini bir xil yoki oxirgi bo'g'inda juda oz urg'u bilan ta'kidlanadi. Xuddi shunday, ingliz tilida so'zlashuvchi butun jumlalar bilan bir qatorda jumlaning turli qismaliga, xususan, fe'l va otlarga urg'u berishga moyil bo'lsa, fransuz intonatsiyasi ancha tekisroq. Albatta, fransuz tilida so'zlashuvchilar qo'shimcha ta'kidlash uchun ma'lum so'zlarga urg'u beradilar va, ingliz tilida bo'lgani kabi, savol so'raganda intonatsiya jumla oxirida ko'tariladi. Umuman olganda, fransuz intonatsiyasi tekisroq, ovozning ko'tarilishi va tushishi kamroq bo'lib, ingliz tiliga qaraganda ko'proq oqimli ovoz beradi.

Ingliz tilidan farqli o'laroq, fransuz tilida so'zlashuvchilar og'iz atrofidagi mushaklarni faol jalb qilishi shadi. Agar fransuzcha to'g'ri talaffuz qilinsa, yuz mushaklari ham mashq qilinadi. Aslida, agar fransuz tilida gapirishga odatlanmasdan bu tilda yarim soatlik suhbat qilinsa, og'iz va jag' ishlatilmaydigan mushaklarni ishlatishdan odatda biroz charchaydi.

Talaffuzni yaxshilashning eng samarali usullaridan biri bu – ona tilida so'zlashuvchilarga taqlid qilish. Ba'zi odamlar boshqalarga aniq taqlid qila olish qobiliyatiga egadirlar. Ammo har bir kishi, hatto taqlid qilishda unchalik yaxshi bo'lmaganlar ham, biroz harakat qilib o'z talaffuzini yaxshilashi mumkin. Podkastlar, YouTube videolari, teleko'rsatuvlar, filmlar, ilovalar, darsliklarda dialoglarning audioyozuvlari kabi manbalar ona tilida so'zlashuvchilarga taqlid qilish orqali talaffuzni yaxshilashga yordam beradi.

Biroq, talaffuzda darhol chucher ketmaslik maqsadga muvofiq. Bu qulay tezlikda aytilan materialni tinglash va unga taqlid qilishdan boshlash kerakligini anglatadi. Hatto fransuz tilida yuqori darajaga erishilganda ham, asl parijliklarning chaqmoqdek chaqqon nutqiga taqlid qilishdan ko'ra, aniq va barqaror sur'atda gapirish tavsiya etiladi. Shuni doim yoddha tutish lozimki, ozgina bo'lsa ham aksent bilan juda tez gapirish o'zgalar uchun tushunish jarayonini qiyinlashtiradi.

Yana bir muhim maslahat – talaffuz haqida fikr-muhohaza olish. Podkast va videolardagi jumlalarni shunchaki takrorlash "ajoyib ish qilyapsiz" degan noto'g'ri taassurot qoldirishi mumkin. Biroq, har kim har doim ham o'z ovozi haqida eng yaxshi hakam bo'la olmaydi. Shuning uchun talaffuzni yaxshilash uchun ona tilida so'zlashuvchilar, hamkor yoki o'qituvchilardan fikr-muhohaza va yordam olish eng to'g'ri yo'ldir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Weinberg A., Knoerr H. Learning French pronunciation: Audiocassettes or multimedia? // Calico Journal, 2003, 20(2), pp. 315–336.
3. Miller J.S. Teaching pronunciation with phonetics in a beginner French course: Impact of sound perception // Proceedings of the 3rd Pronunciation in Second Language Learning and Teaching Conference, Sept. 2011, pp. 109–123. – Ames, IA: Iowa State University, 2012.
3. Canaj A. Effective practices in improving the French pronunciation – the prosodic elements // ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 2015, Vol.4, No.3, pp. 11–15.
4. Nadjiba A. Multimodalité numérique pour le développement de la compétence phonétique // Revue Ichkalat, 2022, Vol.11, No.3, pp. 584–597. E ISSN: 2600-6634 ISSN:2335-1586.
5. Romero González K.B. Le rapprochement à la Langue française à travers la connaissance de ses Sons Phonétiques. – Colombia: Universidad Pedagógica Nacional, 2021.
6. <https://journals.openedition.org/corela/9987>

Vasila MAMADAYUPOVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti Xorijiy tillar  
kafedrasи katta o'qituvchisi

## TIL O'RGANISH JARAYONIDA PSIXOLOGIK MOYILLIK

Til o'rganish samaradorligi bilan bog'liq psixologik xususiyatlardan biri motivatsiya bo'lib, bu jarayon til o'rganishdagi ilk qadam hisoblanadi. Motivatsiya tushunchasi biror ish-harakatning sodir bo'lismiga sababchi motivlar, dalillar, isbotlar, bahonalar, vajlar yoki sabablar majmuyi ma'nosida talqin etiladi. Bu tushuncha bevosita inson omili bilan chambarchas bog'liqidir. Shu nuqtayi nazardan, **motivlashtirish** ruhiy omil bo'lib, shaxs faolligining manbayi, sababi, dalili va turli ehtimollar hisoblanadi. U insonlarni biror faoliyat turiga rag'batlantiruvchi kuchli vositadir. Boshqacha qilib aytganda, motivatsiya jarayoni – kishilar faoliyatini ruhan maqsadga muvofiq yo'naltirish. U muayyan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq. Ehtiyoj esa sabablarda namoyon bo'ladi. U odamlarni harakatga undovchi, qo'zg'atuvchi motivdir.

Insонning moddiy ehtiyojlari bilan birga ijtimoiy ehtiyojlari ham borki, ularga, madaniy saviyani oshirish, malaka, mahoratga ega bo'lish va sog'lom hayot kechirib uzoq umr ko'rish, bilim olish, xususan, til o'rganish ham kiradi. Motivatsiya orqali o'quvchida til o'rganishga bo'lgan qiziqish, xohish-istak uyg'otiladi.

Til mahorati bo'yicha muhim natija beradigan bir necha xususiyatlar mavjud bo'lib, bunda hissiyorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Agar o'rinnilik intellektual xususiyat bo'lsa, unda munosabat hissiyotdir. Til o'rganuvchilarning xorij madaniyati va xalqi haqida o'ylashi tabiiy. Ular xorijiy tillarda ajoyib notiq bo'lish bilan birga xorij madaniyatini yoqtirishlari va u haqida ko'proq bilishni istashlari yohud chet tilda so'zlovchilarni yaxshi ko'rishlari va ularga maqbul bo'lishni xohlashlari mumkin.

Ba'zi kishilar xorijiy davlat vakillari va ular yashaydigan mamlakatning qandayligini his qilmay turib ham til o'rganishda muvaffaqiyatga erishmoqda. Ularga til akademik (ta'limi) va karyera (kasbiy) maqsadlarida kerak. Shunday ekan, ularning munosabati to'liq amaliy. Bu ikki munosabat o'zaro mutanosib emas. Agar biror kishi Ispaniyada o'qish yoki ishlashni va ispaniyaliklarni yaxshiroq tushunishni xohlasa, albatta, u ispan tilini mukammal o'rganishi aniq. Buning o'ziga xosligi shundaki, til o'rganuvchining real tajribasi xorijiy tilda muloqot qilishni talab qiladi.

Xorijiy tilni o'rganishning inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qilishi hech kimni hayratlantirmasligi lozim. Hozirgi kunda namunaviy til o'rganish qator xususiyatlarni o'z ichiga olib, ular orasida ekstraversiya ijobiy xususiyat tarzida ta'kidlanadi. Har qanday imkoniyatdan foydalaniib xorijliklar bilan gaplashadigan kirishimli kishi (ek-stravert) ko'proq muvaffaqiyatga erishadi, chunki tushunishga tashabbuskor bo'lganda va uni qo'llab-quvvatlaganda ularda yangi til materialini qo'llash hamda eshitish imkoniyatini paydo bo'ladi.

Xorijiy tilni o'rganish bu umumiy o'rganishning bir shakli bo'lib, bunda har bir shaxs til situatsiyalarini qo'llashga harakat qiladi. Bir toifa o'rganuvchilar chet tilni ko'proq qoidalar asosida o'rganish, mashqlar bajarish, til qoidalarini e'tiborli qo'llash bilan bog'liq bo'lgan yondashuvlarni afzal ko'radi. Bu turdag'i o'rganuvchi analitik, o'ychan va xorijiy tilda grammatik to'g'ri bo'laman biror gapni aytishni xohlama yordi. Bu qoida o'rganuvchi hisoblanadi. Ikkinci toifa o'rganuvchi intuitsiya, misollar to'plash va imitatasiyaga ishonadi. U hatto qo'pol xato qilishgacha boradi. Bu yerda ikki toifadagi o'rganuvchidan qay biri muvaffaqiyatli til o'rganadi, degan savol tug'ilishi mumkin. Bu borada til o'rganuvching uslubi alohida topshiriqqa mos bo'lishida muhimroq bo'ladi. Agar topshiriq real hayotiy vaziyatda og'zaki muloqot qilish bo'lsa, ularning urinishi mos keladi. Agar topshiriq biror narsani to'g'ri aytish yoki yozish bo'lsa, qoidalar ish beradi.

Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida ba'zi til o'rganuvchilar ko'proq o'z ko'zlariga, ba'zilari esa quloglari ga tobe bo'lib qoladilar. Birinchi toifa o'rganuvchilar til o'rganish jarayonida ko'proq yozilgan materialni ko'rish orqali o'rgansa, boshqalari magnit tasmaga yozilgan materiallarni afzal ko'radi. Xorijiy til mahorati "ko'rib fikrlash obrazi" yoki "eshitib fikrlash obrazi"ga bog'liqligini aytish oson emas. Bunga javob topish uchun tajriba o'tkazishimiz yoki ikkisidan qay biri bizga mos kelishini bilishimiz lozim.

Chet tilni o'rganishdagi avvalgi tajriba kelajakda boshqa xorijiy tilni o'rganishga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Masalaning o'ziga xos tomoni shundaki, agar til o'rganuvchining avvalgi xorijiy tilni o'rgangandagi tajribasi qoniqarsiz va samarasiz bo'lgan bo'lsa, albatta, bu o'rganilajak boshqa xorijiy tilni o'zlashtirishning ilk bosqichlarida to'sqinlik qiladi. Bunda o'rganuvchi dastlabki tilni egallashdagi kamchiliklarning sabablarini tahlil qilishi lozim. Balki bu til o'rganuvchi yoqtirmaydigan foydasiz darslik yoki o'quvchilarning til o'rganishida noto'g'ri tanlangan metod bo'lgan bo'lishi ham mumkin. O'quvchining tajribasi-zligi, motivatsiyaning yo'qligi yoki tanlangan xorijiy tilni o'rganishga yetarlicha sabab bo'imasligi ham bunga asos bo'lishi mumkin. Bu vaziyatlarning qaytarilmasligi yoki ikkinchi marta ularni chetlab o'tish katta imkoniyat. Eng yaxshi strategiya galadagi tilni o'rganishda yangi sarmalai tajribani qo'llashdir.

Bizning maqsadimiz qanday bo'lishidan qat'i nazar til o'rganish uzoq davom etuvchi jarayon hisoblanadi. Til tovushlar, so'zlar, grammatika va ma'no ifodalash yo'llarining kompleks tizimidir. Har bir tizim turli bo'lib, o'rganuvchidan chuqur fikrlash va katta hajmdagi amaliyotni talab qiladi. O'quvchi aniq bog'lanish-

lar yaratish va ulardan foydalanish uchun o'ylashga ma'lum vaqt sarflaydi, shuning uchun u zarur vaziyatlarda ulardan tezda qayta foydalana oladi.

Yangi tilni o'rganganimizda biz miyamizda yangi tizimni yaratamiz va muloqot, xulq uchun yangi qoidalar o'rnatishni qabul qilamiz. Bu o'rinda biz jarayon tushunchasiga ega bo'lishimiz va u kishiga qanday ta'sir qilishini bilishimiz lozim. Har doim yangi til ustida ishlaganimizda tushunish tizimini takrorlashimiz, yangi ma'lumotlarni olish va kuzatishlarni hisobga olishimiz talab qilinadi.

Ba'zi bolalarning birinchi tilni o'rganish jarayonini kuzatib, yana bir misol keltirishimiz mumkin. Masalan, bola birinchi marotaba ingliz tilini o'rganayotgan bo'lsa, unda fe'Ining hozirgi va o'tgan zamon shakllari: *yayov yurmoq – yayov yurdi, yordam bermoq – yordam berdi, so'ramoq – so'radi* kabilarni o'rganish natijasida o'zi gipotezaga erishishi mumkin. Bu modellarga asosan, yosh bola "goed"ni hosil qilib xatoga yo'l qo'yadi. Xatolarni tuzatgandan so'ng til o'rganuvchilar "go"ning o'tgan zamon shakli "went" ekanligini bilib oladi. Fe'l

tizimlarini qurish jarayonida til o'rganuvchilarning gipoteza yaratishlari, ularni tahlil qilishlari va, keyinchalik, bu gipotezalarni o'zgartirishni (tuzatishni) eslatib o'tish lozim. Bu jarayon til o'rganishda muvaffaqiyatga erishish deb ataladi.

Ba'zi odamlar uchun yangi tilni o'rganish qiyin bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'ssatadiki, ba'zi kishilar til o'rganish amaliyotida ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladi. Buning asosiy sababi ularning ona tilidagi til malakalari mukammal emasligida, chunki ona tilidagi qiyinchiliklar o'z vaqtida bartaraf qilinmagan. Shuning uchun bu toifa kishilar yuqori darajada tashkil qilingan darslarda ishtirok etishlari lozim. Bu darslarning maqsadi xorijiy til qurilishini o'rganish orqali to'g'ridan to'g'ri sinxron o'qish, yozish va gapirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'rganilgan yangi materialni takrorlash bilan birgalikda olib boriladi.

Eng asosiysi, kishi ruhan til o'rganishga bo'lgan kuchli xohish, ehtiyoj sezib, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, iroda, qat'iyat va mehr bilan harakat qilsa, albatta maqsadga erishadi.

**Zulfiya SIDIKNAZAROVA,**

*Toshkent davlat transport universiteti Chet tillar kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi*

## INGLIZ TILINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Hozirgi vaqtida davlat ta'lif standartlarida o'quvchilarga yuqori talablar qo'yilmogdaki, ular umumiyl o'rta ta'lif jarayonida mavzular va katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa muddatlarda o'zlashtirish uchun zamonaviy shart sifatida belgilanmoqda. Bunday talablarni amalga oshirish, o'z navbatida, yangi o'qitish usullarini kashf etishni taqozo etmoqda. Shu tufayli ingliz tilini o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv turlaridan biri – interfaol yondashuvga katta e'tibor qaratilmoqda. Til o'rganish usullari va texnologiyalari yig'indisi bo'lmish o'qitish metodikasi ingliz tilini noldan yuqori darajada o'rganishga imkon beradigan aniq harakatlar algoritmidir.

Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullari xorijiy tillarni o'rganishning an'anaviy usullari asosida qurilgan. 20 yillard oldin qo'llanilgan ingliz tilini o'qitish usullari ancha reproduktiv xususiyatga ega bo'lgan. O'qituvchi bergen vazifalar "so'zlarni o'rganing", "matnni o'qing", "audio yozuvni tinglang", "xat yozing" kabi ko'rinishda bo'lib, ehtimol, shu sababli ham ko'p yillar davomida tilni o'rgangan kattalarning aksariyati ingliz tilida o'qish va yozishni bilishsa-da, lekin gapirishda qynaladilar.

Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodikasida reproduktiv usullar o'rnnini interfaol usullar egalladi. Bunda bilim o'quvchi va o'qituvchining o'zaro faoliyati natijasida olinadi. O'quv rejasи, birinchi navbatda, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

o'yin, sayohat, video, musobaqa va boshqa turdag'i dars ko'proq mos keladi. Voyaga yetgan talaba an'anaviy darsni afzal ko'radi. Bu yosh uchun an'anaviy vazifalar ham mos keladi: hikoya yozish, mashq bajarish, matnni o'qish, tinglash va hokazo. Hikoya yozish aktiv va passiv lug'atdan qanday foydalanishni o'rganish, so'z boyligini kengaytirish va og'zaki nutqni yaxshilash imkonini beradi. Mashqlarni bajarish grammatik materialni o'zlashtirishga yordam beradi. Matnni o'qish nafaqat o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki o'rganilayotgan til madaniyati va an'analari bilan tanishtiradi. Tinglash og'zaki tilni tushunishni yaxshilaydi.

Interfaol ta'lifdan maqsad – darsning barcha ishtirokchilarini o'zaro faoliyatga kirishтирish [1: 105]. Ularning barchasi o'quv jarayonida faol ishtirok etadilar. O'qituvchi yordamchi sifatida ishlaydi.

Muloqot jarayonida talabalar fikrlash, muammolar ni hal qilish, qaror qabul qilish va muhokamalarda qatnashishni o'rganadilar [2: 82]. Zamonaviy pedagogika da quyidagidek ko'plab interfaol usullar mavjud:

- ijodiy vazifalar;
- o'quv o'yinlari (rolli o'yinlar va boshq.);
- kichik guruhlarda, juftlikda, uchliklarda ishslash ("2, 4, birlgilikda" usuli);
- karusel usuli;
- akvarium;
- aqliy hujum;
- ochiq arra;

- Braun harakati;
- mental xaritani tuzish;
- holatni tanlash;
- munozaralar;
- dizayn metodologiyasidan foydalanish.

Har bir o'qituvchi o'z texnika va usullarini amalga os-hirishi mumkinligi bois bu ro'yxatni yanada kengaytirish imkonи bor.

Bitta maqolaning ko'lami til o'qitishning barcha interfaol usullarini tavsiflashga qodir emas, shuning uchun faqat amalda qo'llaniladigan ayrim usullarnigina ko'rib chiqish mumkin, misol uchun:

- *mental xaritani tuzish*: birinchi marta bu atama ingliz psixologи, yodlash usuli muallifi Toni Buzan tomonidan taklif qilingan. Xarita bu – bir-biri bilan bog'liq bo'lган va qandaydir umumiyy muammo bilan birlashtirilgan turli g'oyalar, vazifalar, tezislarni vizual tarzda namoyish etuvchi diagramma. Xarita butun vaziyatni bir butun sifatida qamrab olish, shuningdek, bir vaqtning o'zida katta hajmdagi ma'lumotlarni ongda saqlash imkonini beradi. Grafik jihatdan bu xaritani quyosh shaklida chizish mumkin (uning markazida asosiy tushuncha

ko'rsatiladi), undan assotsiatsiya nurlari tarqaladi. Masalan, frazemalarning "aqliy xaritasi". Markazda fe'l (qarash – qaramoq) yoziladi, undan u qo'llaniladigan old qo'shimchalar nurlanadi (izlash – qidirmoq; qaramoq – g'amxo'rlik qilmoq; qaramoq – sanamoq va h.k.);

- *holatni tanlash*: talabalarga muammoli vazifa beriladi (masalan, "Internet" muammosini muhokama qilish), ular 3 guruha bo'linishi kerak. Birinchi guruha "ma'quil", ikkinchisida "qarshi" va uchinchisida "bil-mayman, qaror qilganim yo'q" javob variantlari bo'ladi. Talabalar guruhlarga bo'lingach, o'z pozitsiyalarining to'g'riligini muhokama qiladilar. Har bir guruhnинг bir yoki bir nechta a'zosi o'z pozitsiyasi to'g'risida bahslashadi, shundan so'ng muammoni jamoaviy muhokama qilish va to'g'ri qaror qabul qilish amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, interfaol o'qitish usuli ingliz tilini o'rganishda motivatsiyani oshiradi, o'quv jarayoni yanada qiziqarli va hayajonli bo'ladi, talabalar esa o'zlarini erkin his qiladilar. Bundan tashqari, barcha usullar muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi, jamoada ishslash va bir-birini tinglashga o'rgatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bannov A.M. Birgalikda fikrlashni o'rganish // Budkov A.S.: O'qituvchilar malakasini oshirish uchun materiallar. – Moskva: INTUIT.RU, 2007.
2. Gladilina I.P. Ingliz tili darslarida ishslashning ba'zi usullari // Maktabda chet tillari, 2003, 3-son.
3. Nejivleva I.A. Chet tillarni interfaol o'qitish kognitiv faoliyotni oshirish usuli sifatida // Shaxs, oila va jamiyat: pedagogika va psixologiya masalalari: to'plam. XXXIII xalqaro ilmiy-amaliy konf. № 10(34). – Novosibirsk: SibAK, 2013.

Tilshunoslik



Akramjon QO'LDASHEV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

## TERMIN VA IKKILAMCHI NOMINATSIYA HOSILA TIL BIRLIKALARINING LEKSIKALIZATSIYASI

Tilshunoslikda "so'zlarning leksikalizatsiyasi" degan tushuncha bor. Bunda, odatda, terminlar va grammatic funksiyani bajaruvchi til elementlari – yordamchi yoki bog'lovchi fe'llarning mustaqil ma'noga ega bo'lishi tus-huniladi. So'zlarning o'zi leksik birlik bo'lsa, qanaqasiga u leksikalizatsiya jarayonini boshidan kechirishi mumkin, axir u so'z yaratilayotgan paytda bu jarayon sodir bo'lган va bu so'z leksik birlikka tegishli barcha sifat va xususiyatlarni o'ziga qabul qilgan, shu bilan til lug'at tarkibini boyitishiga hissa qo'shgan-ku, degan savol tug'ilishi mumkin. Ammo so'zning birlamchi ma'no bilan til lug'at tarkibiga kirib kelishi bu birlamchi nominatsiyaning natijasidir [1]. Agar so'z o'z ma'nosidan tashqari yangi ma'no kasb etsa, yoki u uslubiy jihatdan bo'yoqlansa, yoki u terminga aylansa, bu ikkinchi nominatsiyani boshidan kechirgan bo'ladi-ku?

Mazkur maqolada ikkilamchi nominatsiya natijasida uslubiy jihatdan bo'yoqlangan so'z yoki biror terminning yana yangi ma'no kasb etishi, ya'ni uchlasmchi nominatsiya natijasida uslubiy vosita, ya'ni metafora va terminning o'z terminlik xususiyatini yo'qotib, oddiy tub so'zga aylanishida sodir bo'ladigan jarayonlar haqida so'z yuritamiz. Masalan, yaqin o'tmishda o'zbek xalq tilida "shapka" so'zi mavjud bo'lib, uning birlamchi tub ma'nosi: "erkaklar bosh kiyimi" bo'lган. Keyinroq, tang-qislik davrida bu so'zda ko'chma ma'no paydo bo'ldi. Aniqrog'i, biror narsa sotib olmoqchi bo'lган shaxs yoki biror amalga o'tirmoqni istagan kishi buning uchun ma'lum bir summa to'lov to'lashi kerak bo'lardi. Mana shu to'lov "shapka" deyilar edi. Masalan, yaxshi ko'ylak 20 so'm tursa, uning "shapkasi" 5 yoki 10 so'm bo'lar edi.

"Shapka" so'zining bu ko'chma ma'nosi endi ikkilamchi emas, balki uchlasmchi nomlashning natijasi edi. Tilshunoslari bu masalaga e'tibor qaratganda, odatda, "birlamchi nominatsiya" yoki "ikkilamchi nominatsiya"ga aloqador qonuniyatlariga murojaat qilar va yangi ma'no-ga "ikkilamchi ma'no" sifatida qarashar edi. Chunki bunday xulosa chiqarishdan maqsad shuki, so'zda ikkilamchi nomlash sodir bo'lsa, bu so'z endi avvalgi so'z emas, balki yangi so'z sifatida lug'at tarkibiga kiradi. Yangi so'z bo'lgani uchun uning yangi ma'no qabul qilishi yana bir ikkilamchi nominatsiya bo'ladi. Bu yerda shuni ham e'tiborga olish kerakki, so'zlarda semantik jihatdan o'zgarish sodir bo'lganligi tayin va bu yerda har ikki so'z o'tasida hech qanday semantik yaqinlik yo'q, ular orasida faqat etimologik yaqinlik bor xolos. Konseptual semantika nuqtayi nazardan tahlil qilsak, o'sha qo'shimcha qiymat va bosh kiyimi o'tasidagi yaqinlik narsaning dunyoda joylashuvidan o'xshashlik asosida paydo bo'lgan [3]. Masalan, shapka odamning gavdasi tugagan, vertikal holatda eng yuqorida joylashgan boshga qo'ndiriladi. Agar bosh bo'limasa, shapka kiyilmash, kiyishga ehtiyoj umuman bo'limasdi.

Endi, qo'shimcha to'lovga kelsak, u ham albatta bazaviy to'lov summasi ustiga qo'shimcha miqdor sifatida beriladi. Agar odam bazaviy summani to'lamaganda, "shapka"sin ham to'lamagan bo'lardi. Bu yerda "shapka" so'zi metafora vazifasini bajarmoqda. Ma'nodagi ko'chish bu – "obyektning yuqori nuqtasini nima bilandir qoplash, yopish" bo'lib, u har ikkisi uchun bir xil axborotni beradi. Ya'ni, to'langan summaning me'yorda belgilangan yuqori nuqtasini yana biror summa bilan yopmoq, istalgan, xohlangan chegarani qo'shimcha miqdor bilan berkitish nazarda tutiladi.

Agar chegarada turgan chegarachilarining miqdori chegara buzuvchilardan ko'ra kamroq bo'lsa, chegarani to'sib bo'lmaydi, chunki kam miqdordagi chegara qo'shinlari o'z vazifasini bajara olmaslik xavfi tug'iladi. Boshqacha qilib aytganda, puling oz bo'lsa, "shapka"sin to'lay olmaysan va narsani sotib ola olmaysan. Bu yerda "shapka" chegara hududi, chegarachilar esa "shapka"ning hududga kirishiga qarshi, bosqinchilar esa "shapka" yordamida mo'ljallagan qulay joylaridan chegarani buzib o'tishni xohlaydi. Chegarachilarga "shapka" kerak emas. Buzg'unchilar undan foydalanmoqchi. Buzg'unchilar chegarani oldi-sotdi obyektiga aylantirmoqchi, vatanni "sotish"ga chaqirmaoqda. Chegarachilar esa bu kabi holatlarga qarshi turishga o'rgatilgan. Yana bir yechim shunda-ki, agar terroristlar soni chegara zastavasi shaxsiy tarkibidan ko'proq bo'lsa, va yaxshi qurollangan bo'lsa, chegara zastavisi ni qiyinchiliksz qo'iga kiritgan bo'lardi.

Mana oddiy bir so'zdagi metaforik ko'chimni kognitiv semantika tushunchalari yordamida tahlil qilish yordamida biz qanchalik bu masalada chuqurlashib ketdik.

So'zlarning umumiy ma'nosi va ularning ikkilamchi metaforizatsiyasi hamda leksikalizatsiyasi negizida hozirgi paytlarda ko'plab yangi terminlar paydo bo'lmoida va bu holat dunyodagi jonli tillarning ko'pchiligidagi lug'at tarkibi va semantik munosabatlarning umumiy o'zgarishida muhim rol o'ynaydi. Ayrim tilshunoslarning guvohlik berishicha, chek tilida paydo bo'lgan yangi

so'zlarning 90 foizini terminlar tashkil etadi [4: 47].

Shunday bo'lishiga qaramay, ularning asosida kuza-tiladigan ikkilamchi metaforalarning miqdorini aniqlash katta qiyinchilik tug'diradi. Bunday so'zlar ilmiy adabiyotlarda qayd etilsa-da, ularning termin sifatida paydo bo'lishiga nima sabab va asos bo'lganligi qorong'u bo'lib qolaveradi. Masalan, bir lavhada biz "... daryo kardiogramma so'qmoqlari misoli asta oqib borardi" (Darakchi, 20.01.2022) Bu gapda xuddi kardiogramma indikatori harakatining barabanga o'ralgan qog'oz rulonida qoldirgan zigzagsimon chiziqli izlari kabi daryo yo'llardagi so'qmoqqa o'xshatilmoqda. Ma'lumki, so'qmoqning yo'lak yoki yo'lidan farqi shuki, u ilang-bilang shaklda bo'ladi va, kamdan kam holatlarda, biz to'g'ri ketgan so'qmoq yo'llarini uchratamiz. Agar so'qmoq juda to'g'ri yurgan bo'lsa, so'qmoq tugagan, katta yo'l boshlangan va harakatlanishning yangi shart-sharoitlari, qonun-qidalar amalga oshiriladi. Masalan, odatda, so'qmoqda faqat piyoda, eshakda, otda va velosipedda yurish mumkin. Agar yo'l kengayib, arava yoki mototsikl ham yura boshlasa, endi obyektning nomi darhol o'zgaradi, ya'ni yo'l endi so'qmoq emas.

Elektrokardiogrammaning harakat belgilari izida ham xuddi shu narsa kuzatiladi, ya'ni harakat barabanda yoki ekranda (monitorda) to'g'ri chiziq chizilguncha davom etadi. Demak, ilang-bilang, zigzagsimon, bal-and-pastga harakat bor ekan, odam tirk bo'ladi. Bu harakatlar to'xtab, ekranda to'g'ri chiziq paydo bo'lsa, endi bemor yuragining urushi to'xtaganligi qayd etiladi. Demak, bemor o'lди. Harakat yo'q. Katta to'xtash bor. Qayta qo'zg'almaydigan holat paydo bo'lidi. Demak, tartibsiz so'qmoq bu – hayot, tekis to'g'ri chiziq esa o'lim belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Albatta, tinch oqib yotgan daryoga qarab turib, kamdan kam odamninggina xayoliga elektrokardiogramma keladi. Chunki bu yerda ko'lam turlicha. Daryoning bu dunyoda tutgan o'rni, joylashuvi kabi holatlar so'zlov-chining dunyoning lisoniy tasvirini yaratish jarayonida o'sha insonning kimligiga – chilangar-santexnik, dastgohchi, quruvchi, shifokor, haydovchi, shoир, olim yoki san'atkor ekanligiga ko'p jihatdan bog'liq. Agar bu holatni geograf ko'rsa, bu daryoning eni, uzunligi, sayoz yoki chuqurligi, undan bir sutkada oqib o'tayotgan suvning miqdori, qayerdan boshlab qayerda tugashi haqida fikrlaydi [2]. Agar bu yerda geografning o'rniда shifokor turgan bo'lsa, unda u suvning toza-iflosligi, atrof, qirg'oqlarning tozaligi, sun'iy, aholi tomonidan turli maishiy chiqitlar tashlanishi yoki tashlanmasligi, yoki bo'limasa, shu atrofda sanoat ishlab chiqarish zonalari borligi va, agar bor bo'lsa, bu daryoga sanoat chiqindilarini, iflos yoki kimyoviy suvlarni oqizish holatlari bor-yo'qligini o'yaydi. Agar ularning o'rniда shoirtabiat poetik yoki prozaik ijodga mayli bor odam turgan bo'lsa, u ko'z oldida turgan manzarani tasvirlash uchun unga, birinchi navbatda, estetik jihatdan baho berar, agar manzara yoqsa, unda she'r yoki shu kabi biror narsa yordamida uni tasvirlashga urinib ko'rgan bo'lardi.

Mana, ko'rib turganingizday, biz yuqorida bu holatlarga geograf, shifokor yoki shoирning fikrini tahlil qilib ko'rdik. Bu manzara uch odam ongida uch xil tasvirni yaratdi. Agar kuzatuvchilar sonini ko'paytirsak, manzara o'zgar-

maydi, lekin tasvirlar soni, xarakteri, ko'lami, nuqtayi nazari ko'paya boradi.

Xuddi shu o'rinda, biz ayrim tilshunoslarning (ular orasida hatto bir necha professorlar ham bor) "языковая картина мира" birikmasini noto'g'ri tushunib, "dunyoning lisoniy manzarasi" deya tarjima qilib kelayotganini qayd etib o'tishimiz kerak. Bu yerda "картина" о'zbek tilidagi "manzara" emas, balki "tasvir"ga mos keladi. Manzara bu – bor narsa, obyektiv, dunyoda mavjud bo'lgan narsa. Ya'ni, masalan, daryoning bir qismi, inson kuzata olishi mumkin bo'lgan bir joyi bu – manzara. Tasvir esa mana shu manzaraning inson anglagan, ko'rgan va o'z ongi yordamida o'z tili resurslaridan foydalangan holda qilgan interpretatsiyasi – talqinidir. Inson manzarani o'zi ko'rganday, anglaganday, tushunganday tasvirlashi mumkin. Demak, tasvir – o'zga-

ruvchan kategoriya. Manzarani yuz kishi tasvirlasa, biz yuz xil tasvirga ega bo'lamiz. Ming kishi bu manzarani tasvirlasa, biz mingta tasvirga ega bo'lamiz. Lekin, bari bir manzara o'zgarmaydi.

Manzara, bu – invariant, etalon. Tasvir esa bu – variant yoki yaratilgan nusxa. Tasvirni bo'yоq (san'at, rassomchilik) yordamida, haykal (skulptura), fotosurat (fotografiya) sifatida, lavha (jurnalistik, publisistika) shaklida, maxsus shartli belgililar (topografiya) bilan, xarita (geodeziya), she'r (poeziya), badiiy asar parchasi (proza) shaklida tasvirlash mumkin. Bu manzarani kim yaratgan, degan savolning javobi o'zi bilan, shuning uchun fan unga javob qidirib o'tirmaydi.

Bu holatlarning barchasi semiotika fanida atroficha o'rganib chiqilgan va ular bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. – Москва, 2005.
2. Болдырев Н.Н. Концептуальные структуры и языковые значения // Филология и культура. – Москва, 2001.
3. Булыгина Т.В., Шмелев А.Д. Языковая концептуализация мира. – Москва, 1997.
4. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2004.

Madina TUKHTAKHUAeva,  
Uzbekistan State World Languages University,  
a senior teacher

## WHY DO WE SAY THINGS DIFFERENTLY AND WHAT ROLE DOES IT PLAY IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING?

Sociolinguistics, a subfield of linguistics, focuses on how society influences the way people use language. It explores the relationship between language and social factors, explaining why people speak differently. Everyone uses language differently, not just in terms of different languages, but also the same language can be used differently by different communities or individuals, leading to variations. These variations are influenced by numerous social factors. As it is mentioned in the article by Ahmad Faizin, "language is a centre to social interaction in every society, regardless of location and time period. Language and social interaction have a reciprocal relationship: language shapes social interactions and social interactions shape language" [1]. So now we see that social interaction matters a lot. In this article, we will try to specify what factors can trigger the language we choose.

One of the major factors is geographical location. Different regions have different dialects due to historical, cultural and social decentralization. Over time, communities, separated by geography, develop their own unique ways of using language. These unique language variations can include differences in vocabulary, grammar and pronunciation. This is why "soda" in certain parts of the United States is "pop" in other regions, or "lorry" in British English is "truck" in American

English. We can see this sort of examples in every language. When it comes to communicative language teaching every teacher needs to take into consideration this sort of factors because when students learn words one way, then it happens they see that natives use different words they might get confused. This shows the importance of sociolinguistics in language teaching. As Ahmad Faizin says in his article, "sociolinguistics is an interesting and important area of language for teachers because it deals with how the language is used and thought of in the real world" [1]. The real-world language is the language that should be taught in every classroom.

Social class and occupation also play a significant role in language variation. The working classes and upper classes often have different ways of speaking, not just in terms of accents, but also in terms of vocabulary and even syntax. A person's occupation, educational level, and professional field can also influence their language – legal professionals, for example, use language very differently from artists or engineers. If we go back to earlier centuries, we can see that the differences were easy to notice as upper-class people used to get different sorts of education. But now it is less noticeable. According to a research given in the book "An Introduction to sociolinguistics" by Janet

Holmes, we can see that dialect is something that plays a role and most linguistic variation will be found at the lowest socio-economic level where regional differences abound [2].

Age is another important factor. Linguistic change often happens over generations, and terms or ways of speaking can fall out of favour and be replaced by new ones. This results in differences in the way older and younger people speak. Youth language, in particular, is often characterized by innovative slang and expressions, and serves as a way for young people to establish their identity. We can see the role of age even if we start analyzing the English books used to teach pupils in Uzbekistan. A good example is given in the book "Reconceptualizing language teaching: an in-service teacher education course in Uzbekistan" by David L. Chiesa, Ulugbek Azizov, et all, where they specify that books written in Uzbekistan focus their interaction both on elderly and young learners [3].

Gender and ethnicity also affect language use. Research in sociolinguistics has demonstrated that men and women can use language differently, often due to societal expectations and stereotypes. Similarly, different ethnic groups may have their own unique language features reflecting their cultural heritage and identity. In communicative language teaching, this is another very important thing to take into consideration, because we know that girls are expected to talk less in some nations and it is considered to be the right tone. But when it comes to English speaking countries, girls play a bit different role and are expected to act differently. Even if we take CEFR description on sociolinguistic appropriateness, C1 level learners are expected to show socio-cultural norms in producing texts (e.g. appropriate register, forms of politeness, status, and taboos) [4], which proves that awareness of above mentioned things play crucial role in communicative language teaching. Classroom discourse analysis is probably the most direct application of sociolinguistic insights to teachers' daily practice [5].

The role of social context or situation in language use is a pivotal subject in the field of sociolinguistics. It investigates the impact of social situations on the ways language is used by individuals and how it can cause them to change or modify their language, this is referred to as "code-switching" or "style-shifting" [2].

When people converse with each other, they not only think about what to say but also consider the appropriate way to say it relative to the particular social situation or context. Social context could be informal like a casual talk with friends or family, or formal, like an academic discussion, job interview or a professional meeting.

In an informal context, such as talking with friends or family, individuals generally use casual or colloqui-

al language characterized by the use of contractions, slang and abbreviations. They may also have a more relaxed approach to grammar and pronunciation rules. The language is generally more familiar, relaxed and people tend to speak more freely.

Contrarily, in a formal social context, such as job interviews, academic presentations, or public speaking events, individuals tend to use more formal language. They choose their words more carefully, refrain from using slang or colloquial expressions, and closely adhere to grammar and pronunciation rules. They may also use jargon or technical language that is specific to their professional field.

Moreover, people adjust their speech depending on their audience. This is called "audience design". For example, when talking to children, many adults simplify their language, speak more slowly, and use shorter sentences. This change is made to ensure the child understands them. Similarly, when talking to people from different cultural backgrounds, individuals may also adjust their language to aid comprehension.

Another part of social context is the medium of communication. The rise of digital communication has introduced new forms of language with text messages, social media posts and emails often featuring a different style of language use, as well as with abbreviations (lol, btw, omg), emojis and internet-specific slang.

The social context or situation plays a crucial role in how individuals use and modify their language. Teachers of this era should do their best to teach students so they can constantly adjust their speech to suit their audience, the formality of the situation, and the medium of communication. This flexibility in language use underscores its primary function, which is to facilitate effective communication. By understanding how social context influences language, we can navigate different social situations more skilfully and communicate more effectively.

In communicative language teaching, it is important to specify this sociolinguistic factor because students need to be aware of this sort of thing. What I want to say is that they need to know how to act in different social situations.

In conclusion, sociolinguistics emphasizes that there is no single "correct" way to speak a language. Language variation is a natural result of the complex interplay of a multitude of social factors, and these variations are systematic and patterned, not random. Understanding this can help us appreciate the rich diversity of human languages and societies. This is the reason why we need to teach our students this sort of information considering the role of sociolinguistics in communicative language teaching making our students play an active part on every lesson.

#### References

- Ahmad Faizin. Sociolinguistics in language teaching // MABASAN, 2015, 9(2), 66–77.
- Janet Holmes. An Introduction to sociolinguistics. 4th edition. – Routledge, 2013.
- David L.Ch., Azizov U., Khan S., Nazmutdinova K., Tangirova K. Reconceptualizing language teaching: an in-service teacher education course in Uzbekistan. – Tashkent: Baktria press, 2019.
- Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – European Council, 2020.
- Nancy H.H., Sandra L.M. Sociolinguistics and language education. – Bristol, Great Britain, 2010.

Gulnaz TURGUNBAEVA,  
Chirchik State Pedagogical Institute, Department of Linguistics  
and English Language Teaching Methodology,  
a 2nd year master's student

## SEMANTIC PECULIARITIES OF TOURISM TERMS IN THE ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES

Language is a crucial aspect of civilization, serving as a means of recording history and forming a specialized vocabulary that can be consciously regulated and organized. The connection between language development and cultural history becomes most evident in terminology, which encompasses specialized lexical units in various fields of knowledge [1].

This study focuses on the etymological analysis of English tourist terms and explores the semantic methods of their formation. Giving the relevance of the tourism industry and its terminological system in a globalized world, this research employs etymological analysis as the primary method. Before starting to analyse the terminology system, it is necessary to develop criteria taking as a basis the concept of S.V. Grinev [2].

Within the framework of this article, we will focus on the consideration of formal criteria, since the structural features of terms and derivational processes play an important role in understanding terms, and mutual understanding among specialists in the field tourism.

Analysing the formal side of the term, many researchers distinguish two main groups of terms that differ in composition: word terms (single-component) and phrase terms (multicomponent). In the term system being studied, they are present as single-component (41.5%), and multicomponent (58.5%) terms. More precisely, Russian term system "tourism" includes terms: single-component – 287 units (41.5%); two-component – 369 units (53.4%); three-component – 33 units (5%); four-component – 1 unit (0.1%).

Previously conducted studies of terminology [3] indicate that the number of multicomponent terms in the formed term system of a particular field of knowledge is approximately seventy percent. Thus, the data we received shows that the terminology "tourism" in the Russian language is still in the process of development. The predominance of multi-component terms also indicates the strengthening of the process of specialization of tourism terms, the formation of a hierarchical structure of the term system and the establishment of derivational connections between terms. Analysis of the morphemic structure of tourism terms allowed us to identify the following types of one-component terms:

1) simple non-derivative terms, i.e. one-word lexical units, the basis of which coincides with the root: meeting, cruise, safari, boat, jacuzzi, cabana, quota, resort, suite, hostel, junket, banquet, season, class, transfer, hub (the term system "tourism" has 109 non-derivative terms);

2) derived terms, i.e. one-word lexical units, the basis of which contains a root and affixes (81 terms).

The analysis showed that the main affix in term formation is the suffix – 65 terms. To the most productive suffixes can be attributed to: **-ние** (8% – размещение, ориентирование, фрахтование, бронирование, резервирование); **-ник** (8% – гусятник, проводник, отпускник, путешественник); **-ация** (8% – маршрутизация, регистрация, анимация, рекреация, дестинация).

It should be noted that in the Russian terminological system "tourism", the suffixes -er/-or become highly productive (12% – backpacker, animator, restaurateur, hotelier, camper, consolidator) and -ing (34% – parking, caravanning, yachting, diving, camping, catering), which indicates the invasion of English word-formation elements into the system.

Historical research reveals that some monolexemic terms in the field of tourism emerged through intralinguage borrowing. This borrowing process involves terminology, specialization, expansion, metaphorization, and metonymic transfer of meanings from commonly used words, thereby serving as a lexical-semantic method of term formation. Through diachronic analysis of tourism terminology, this study found that a special group of monosyllabic terms exists, wherein their meanings in specialized vocabulary align with their meanings in everyday language. These terms are formed by terminologicalizing the commonly used meanings of words. The evolution of these special lexemes occurred gradually as individuals gained experience and developed scientific concepts. For example, the term "cancellation" originally referred to the annulling of a legal document in 1535 [Oxford English Dictionary]. However, around 1953, this term gained an additional, narrower meaning: the act of cancelling a reserved seat, room, place, etc. [Oxford English Dictionary]. It is worth noting that this term was formed with the incorporation of Latin elements.

The word "administrator", derived from Latin, was first recorded in 1533 with the meaning of someone who manages or carries out tasks. Over time, it has come to refer to individuals who work in management and organization in various settings.

This definition is supported by the Longman Dictionary of Contemporary English. The word "itinerary" is interesting because it can be created in two different ways, depending on its intended meaning. With its roots in Latin, it initially meant "route" and later ex-

panded to include the definition of "guidebook" due to its common usage.

The term "hostel", borrowed from French, originally meant a place of temporary residence. Since 1384, it has been used to describe lodging and entertainment establishments for travellers, such as inns and hotels.

The lexeme "service" is borrowed from the French language with the meaning "the fact of serving a master" [4]. Due to the terminology of the commonly used meaning of the lexeme "service" becomes a tourist term meaning "the act or manner of serving guests, customers, etc., in shop, hotel, restaurant, etc. (The act or manner of serving guests, customers, etc. in a store, hotel, restaurant, etc.)" [5]. The date of formation of this term should be considered the end of the 16th century.

The word "pilgrim", also borrowed from French, underwent a terminological process and changed its

meaning from "one who travels from place to place" to "one who journeys to sacred places as an act of religious devotion". Similarly, the term "service", borrowed from French, initially referred to serving a master but later took on the meaning of serving guests, customers, etc. in stores, hotels, restaurants, etc.

Tourism terms, in particular, arose from semantic shifts that created a significant discrepancy between their old meanings and the new concepts they came to represent, as a result of expanding the meaning of existing words in the language. This process also involves metaphorization based on external similarities before considering functional similarities of objects. The formation of terms through narrowing and specialization of meaning indicates the emergence of specialized terminology distinct from everyday language.

### References

1. Prima V.V. Functioning of English-language tourist terminology in guidebooks for Ukraine. Notes on Romano-Germanic philology. Edition 1 (32). – Odessa, 2014. – pp. 127–132.
2. Grinev S.V. Introduction to terminology. – Moscow: Moscow Lyceum, 1993.
3. Kazachkova O.A., Kumanin V.I. Interpretation of terms in explanatory terminological dictionary "Technology of artistic processing of metals" // New metals and technologies. Mat. scientific-technical conf. – Moscow: MGAPI, 2001. – pp.63–66.
4. Oxford English Dictionary. Second Edition / J.A. Sympson and E.S.C. Weiner. – Oxford: Clarendon Press, 1989.
5. Skeat W.W. An etymological dictionary of the English language. – Oxford: Clarendon Press, 1958.

**Sevara IBRAGIMOVA,**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi*

## XORIJY TILNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarni o'rgatish va o'rganishga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham kuchliroqdir. Respublikamizda xorijy tillarni pedagogikaning ancha eskirib qolgan dasturlariga asoslanib emas, balki jahoning yetakchi davlatlari tajribalariiga tayangan holda o'qitish, ta'limgarayonida samarali usullar, yangicha dasturlar, innovatsion metodlardan foydalangan holda xorijy tilni o'qitish sifatini yaxshilash va shuning samarasini o'laroq, mamlakatimizni rivojlantirishda o'z hissasini qo'sha oladigan malakali kadrlarni, kasbinining yetuk mutaxassislarini yetishtirish ta'limgardan asosiy mazmuniga aylandi.

O'qitishning interfaol uslublari deyilganda, birinchi navbatda, talabani o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmuyi va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interfaol uslubdagi mashg'ulotda talaba berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, o'qishi, ko'rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nkmalar hosil qilishi lozim.

Tizimli ravishda nutq o'qitish to'rt blokdan iborat: tarkib, axborot, texnologiya va o'qitish vositalari bloki. Barcha bloklar bir-biriga bog'langan. Tarkib bloki talabalarning xorijy tillarni o'zlashtirish ko'nkmalarini rivojlantirishning dastlabki bosqichida shakllangan vakolatlarni o'z ichiga oladi: kommunikativ, metakognitiv va kasbiy. Ta'limumning dastlabki bosqichida talabalar uchun kommunikativ kompetensiya nima ekanligini ko'rib chiqamiz, chunki bu xorijy tilni o'rganish jihatiga aloqadordir.

Lingvistik kompetensiya (til) grammatic hodisalarni tahlil qilish va ularni so'zni loyihalash, tematik so'z birikmalariga ega bo'lish, talaffuz qoidalariga rioya qilish va nutqning ritmik-intonatsion dizayni uchun to'g'ri tanlash va ishlatalish qobiliyatidir.

Nutq kompetensiysi – dastur bo'yicha o'rganilgan mavzular doirasida nutqiy iboralardan foydalana olish, savol bera olish, qayta so'rash, muhokama masalasida o'z fikrini bildirish, qisqa muloqotda ishtirok etish (5–6 ta so'z birikmasi).

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya – o'rganilayotgan til mamlakatlarining madaniy an'analarini bilish, nutqda ijtimoiy-madaniy voqeijklardan to'g'ri foydalanish,

o'rganilayotgan til normasiga muvofiq nutq odobi qoidalarini bilish.

Strategik kompetensiya – o'rganilgan leksik birliklar va grammatik hodisalar, nutq namunalari asosida iborani soddalashtirish qobiliyati, iborani aniqlashtirish, tuzatishlar kiritish uchun so'z birikmalaridan foydalanish qobiliyati.

Diskursiv kompetensiya – o'rganilayotgan mavzular bo'yicha hisobot, xabar, loyiha matnini tayyorlash va ko'paytirish qobiliyati.

Ijtimoiy (strategik) kompetensiya kommunikativ aktning shartlari va qo'yilgan maqsadga qarab fikrning eng mos leksik va grammatik dizaynnini tanlash qobiliyatidir.

Talabalarning xorijiy tilni o'rganishdagi metakognitiv kompetensiyasi leksik va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha mashqlarni mustaqil bajarish va tekshirish, o'z nutq qobiliyatlarini aniqlash qobiliyatidan iborat. Kasbiy kompetensiya quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi: jamoada ishslash, xorijiy tilda kasbiy mavzular bo'yicha bahs va munozaralarda ishtirot etish.

Ushbu kompetensiyalar har bir tematik modul uchun mashqlar va vazifalar, matnlar, audioyozuvlardan tizimi bo'lgan axborot bloki bilan bevosita bog'liq. Hammasi bo'lib, talabalar to'qqizta tematik modulni o'rganadilar.

Ma'lumki, zamonaviy metodikada xorijiy tilni o'qitish jarayoni izchil bajariladigan mashqlarning uzluksiz zanjiri sifatida qaraladi. Mashqlar til materiali va belgilangan o'quv vazifalarini amalga oshirish o'rtaсидаги aloqa shakli sifatida ishlaydi. Mashqlar nafaqat til materialini o'zlashtirish, balki nutq faoliyatining har xil turlarini o'zlashtirish vositasi hamdir.

Mahalliy metodikada mashqlar turli yo'llar bilan ko'rib chiqiladi. Ba'zi olimlar mashqni o'quv materialini metodik tashkil etishning tarkibiy birligi deb hisoblaydilar. Boshqa metodistlar mashqni xorijiy til nutq faoliyatini o'rgatishning birligi deb biladilar.

I.L.Bim mashqni xorijiy til tizimining elementlarini o'zlashtirish uchun talabaning o'quv faoliyatini tashkil etishning minimal birligi sifatida belgilaydi. Jismoniy mashqlar (I.L.Bim bo'yicha) bu – o'qituvchi va talaba o'rtaсидаги о'quv materiallari vositachiligidagi va standartlashtirilgan tuzilishga ega bo'lgan o'zaro aloqa shakli. Mashq o'z tarkibiga quyidagi elementlarni kiritadi: a) muammoni bayon qilish; b) uni yechish yo'lini ko'rsatish; d) uni yechish; e) nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish.

S.F.Shatilov mashqda "ta'lim sharoitida maxsus tashkil etilgan alohida operatsiyani, qator operatsiyalarini, nutq yoki til xarakteridagi harakatni bir yoki bir necha marta bajarish"ni ko'radi.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida mashqlarni tasniflash turli mezonlar asosida amalga oshirildi: 1) tilni

eslab qolish, tanib olish, tushunish va takrorlash jayronlarini hisobga olish asosida (K.A.Ganshina); 2) til va nutqni farqlash asosida (I.V.Raxmanov); 3) xorijiy til nutqini o'zlashtirish jarayoni bosqichlari asosida (Ye.I.Passov).

I.V.Raxmanov mashqlarning quyidagi turlarini aniqladi: 1) til va nutq mashqlari; 2) matn bilan bog'liq va bog'liq bo'limgan mashqlar; 3) tarjima va tarjimasiz mashqlar.

B.A.Lapidus mashqlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi: 1) sof o'quv mashqlari; 2) elementar kombinatsiyalashgan mashqlar; 3) kombinatsiyalashgan mashqlar.

E.I.Passov mashqlarning o'ziga xos tasnifini ishlab chiqqan. U mashq turlarini aniqlashning asosiy mezoni – nutq malakalarini shakllantirish bosqichlarini aniqladi. Bu mezonga ko'ra, barcha mashqlar quyidagilarga bo'linadi: 1) ko'nikmalarni shakllantirish mashqlari (shartli nutq mashqlari); 2) ko'nikmalarni rivojlantirish mashqlari (nutq mashqlari). Ushbu turlar orasida mashq turlari 4 ta parametr bilan ajralib turadi: 1) nutq vazifikasi; 2) iboralarning vaziyatli korrelatsiyasi; 3) gapning mazmuni va tarkibiy tomonlari shartliligi; 4) bayon tuzishda ishlatiladigan ko'makchilarga ko'ra.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bunday usullardan foydalangan holda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Darsda interfaol usullar qo'llanganda talabalar o'qituvchi yordamida va hamkorligida mustaqil ishslash ko'nika va malakalariga ega bo'ladilar.

Talabalarga chet tilni o'qitishda multimedia, slayd shou, audio-video materiallardan foydalanish, talabalar ni kichik guruhlarga bo'lib ishslash hamda guruhlarda eshittirilgan audiomaterialni muhokama qilish ham talabalarda chet tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda ham tatbiq etiladi. Buning uchun talaba mahoratlari va ijodkor bo'lishi, mavzuning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, dars davomida barcha talabarni o'z darsiga faol ishslashiga erishmog'i kerak. Darsda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchining ko'p qirrali va rang-barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o'quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, talabalarida xorijiy tilga bo'lgan qiziqishlari ko'chatirish, xalqaro ta'lim tajribasini o'rganish va shu yo'l bilan ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Botirbekova G.A. Talabalarning og'zaki nutqini o'stirish uchun mashqlar bilan ishslash / Г.А.Ботирбекова. – Текст: непосредственный // Молодой учёный, 2019, № 47 (285).
- Jiyanova N., Mo'minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati (Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2016.
- Kadirova M.T. Kompetentlik yondashuvi nazariyasi va uning pedagogik mazmuniga doir qarashlar / М.Т.Кадырова. – Текст: непосредственный // Молодой учёный, 2020, № 43 (333).
- Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Alqarov I., Usmonov N.O'. Isyanov R.G., Yuzlikayev F. Pedagogika nazariyasi (Didaktika). – Toshkent, 2011.

Shahnoza QO'LDASHEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## NOMINATSIYA JARAYONINING AYRIM MUAMMOLI HOLATLARI

### HAQIDA MULOHAZALAR

Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi holatida "mazara" va "tasvir" kognitiv tilshunoslik bilan birga fanga kirib kelgan terminlardir. Shuning uchun ular bilan ehti-yotroq muomalada bo'lgan ma'qul.

Hozirgi paytda dunyo tillarida terminlar nafaqat keskin ortib boradi, balki ular tillar lug'at tarkibi va ma'nolar olami – semantikada tizimlilikni ko'rsatuvchi eng qulay til obyektlari bo'lib ham xizmat qiladi. Har bir termin qandaydir bir tizimning a'zosi hisoblanadi. Biror-bir tizimga mansub bo'lmagan termin, odatda, ikki statusdan biderda bo'ladi, u yoki "chet so'z", yoki "varvarizm". Chunki "chet so'zlar" va varvarizmlar dunyo tillarida asistemik birliklar sanaladi. Ular til lug'at tarkibining "tasodifiy", "daydi" unsurlaridir.

Amerika deskriptiv lingvistika maktabining asoschisi, mashhur tilshunos L.Bluemfieldning bu sohadagi fikriga e'tibor qarataylik: "... semantik o'zgarishlarni tadqiq qilish shu narsani ko'rsatadiki, so'zlarning mavhum ma'nolari, odatda, aniqroq ma'nolardan kelib chiqadi" [1: 172]. O'z fikrini L.Bluemfield quydagi misol bilan izohlashga urinadi: "I understand these things" (Men bu narsalarni tushunaman) gapining birlamchi ma'nosи "Men bu narsalar orasida turibman". Agar inson qandaydir narsalar atrofida, ostida, yonida turgan bo'lsa, tabiiyki ularning nima ekanligi haqidha hech bo'lmagan-da elementar tasavvurga ega bo'ladi".

M.M.Makovskiy, I.Trir, Y.de Friz ham ma'noning mavhumdan aniq tomon rivojlanishi haqidagi fikrga qo'shiladilar. Ammo E.Benvenist va boshqa ayrim tilshunoslар bu fikrga qo'shilmasdan, ma'no oddiyidan murakkab tomon rivojlanadi, degan fikrni ilgari suradilar. Mashhur faylasuf Leybnis esa quydagi fikrni ilgari surgan: "Tilga mansub biror-bir ma'noning kelib chiqishi haqida bosh qotirib, so'zning birlamchi ma'nosи – etimonini aniqlamoqchi bo'lsak, unda so'zning birlamchi ma'nosiga faqatgina toza hissiyot yoki toza aqliy faoliyat, toza mavhum, faqatgina shaxsning faoliyati mahsuli yoki jamoaning mahsuli sifatida emas, balki mana shu omillarni imkon darajada o'zida mushtarak qilgan hodisa sifatida qarashimiz kerak" [2: 100].

Til lug'at tarkibining shakllanishida "toza lisoniy" omillar yetakchi rol o'ynaydimi yoki "tarixiy-madaniy" omil yetakchi rol o'ynaydimi, degan dilemma antropotsentrism paradigmasi yetakchi pozitsiyani egallaganda uning asosiy yo'nalishlaridan biri – "lingvokulturologiya" fan sifatida shakllanishi natijasida yana dolzarb bo'lib qoldi. Bu narsa haqidagi bahsni boshlashdan avval shuni e'tiborga olish kerakki, tushunchalarni "aniq" va "mavhum" tushunchalarga bo'lish turli xalqlarda ko'pincha umuman tushmasligi ham bu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Tillar lug'at tarkibining shakllanishi

va rivojlanishi jarayonini til taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini va jarayonlardan ajratgan holda o'rganib bo'lmasisligi barchaga ayon. Bu borada fransuz tilshunosi Sh.Ballining quydagi fikrini eslatib o'tish kifoya: "Tillar muqarrar ravishda o'zgarib turadi, ammo shunday holatlar ham borki, tillar o'zgarmagan holda ham muloqot vositasi sifatida mavjud bo'lib turishi mumkin" [3].

O'rta asrlarda ayrim til vakillari o'z tillarini o'zgarishlardan xoli, mukammal til sifatida saqlab qolishga uriganlar. Arab tilida kuzatilgan bu hodisa tilda paydo bo'lgan innovatsiyalar Qur'on va Islom dinini buzishga xizmat qiladigan salbiy harakatlar deb baholangan va kanonlashtirilgan shakllardan tashqaridagi leksik va grammatic shakllarning uzusga kiritilishi, til normasiiga aylanishi juda katta qiyinchiliklar evaziga juda uzoq vaqt talab qilgan jarayon bo'lgan. Lekin, vaqt tarixiy kategoriya sifatida hamma narsaga o'z hukmini o'tkazadigan mohiyat bo'lganligi bois, natijada, yangi uzus va yangi til normalarining shakllanishi baribir yuz berdi va kanonlashtirilgan til va muloqot tili o'rtasidagi farqlar arab tilida yangi davr paydo bo'lganligini inkor qila olmaydigan holatga olib keldi. Bunday hollarda tilshunoslar oldida semantik-leksik tizimlar etimologiyasini yaratish, lug'at tizimini tadqiq qilishga xalq madaniy, ekstralengvistik omillarining leksik materialda aks etirilganlik darajasini o'rganib chiqish vazifasi qo'yiladi. Bunda asosiy muammolardan: til tizimida ro'y bergan innovations semantik jarayonlar, yangi ma'no, yangi so'zlarning an'anaviy etimologik yondashuvda qayd etilgan ma'nolarga munosabati, ma'no konvergensiysi va divergensiysi, an'anaviy yondashuvda talqin qilinmagan yangi semantik jarayon va shakllarning hozirgi zamон tilshunosligi tomonidan tavsiflanishi kabilarni eslatib o'tish kerak.

Leksikani diaxron o'rganganda ko'zga tashnadicidan jarayonlardan biri – xalq madaniyatlarida ro'y beradigan keskin, majburiy, rejlashtirilmagan o'zgarishlarning til lug'at tarkibidagi ahamiyati ham katta ekanligi ma'lum bo'ladi. Mazkur yo'nalish avval ma'lum bo'lmagan ko'plab holatlarga izoh berishga yordam berdi. Masalan, inglez tilidagi *dis-* prefaksi lotin tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, uning ma'nosini *apart*, *asunder*, ya'ni, muayyan bir uzoqlikda joylashgan bo'limoq ma'nosini beradi. U ot, fe'l va sifatlar yasaydi. Masalan: *disability*, (qobiliyatdan uzoq, ya'ni noqobillik, qila olmaslik); *disadvantage* (afzallikning yo'qligi, afzallikdan yiroqda); *disagree* (farqlanmoq, rozi bo'lmasislik, boshqacha qilib aytganda, kelishuvdan ancha yiroq); *disappear* (ko'zdan yo'qolmoq, yiroqlashmoq); *disapproval* (qo'llab-quvvatlamoq, rozilikdan yiroqda); *disaster* (baxtsizlik, g'am, tashvish, kulfat, omaddan yiroq).

So'zma-so'z tarjima qilinsa, aster lotin tilida "yulduz" bo'lib, u omad, baxt ramzi hisoblanadi. Masalan, baxt yulduzi, omad yulduzi, yulduzli kun, yulduzlik onlari va h.k. Ramziy ma'nosi shuki, yulduzdan yiroqlashuv baxt-omaddan yiroqlashuv hisoblanadi. Ko'rinish turibdiki, oddiy aniq ikki ma'nuning qo'shilishi natijasida bitta mavhum ma'no yaratilmoqda (*yulduzdan + uzoqlashuv → kulfat*).

Ko'plab boshqa tub yoki yasama so'zlarni shu yo'sinda tahlil qilish bizga so'zlar ma'nosidagi ko'plab nozikliklarni tushuntirib bera oladi. Masalan, o'zbeklar qassob yoki do'kondan go'sht sotib olmoqchi bo'lsa, odatda, "lahm go'sht bering, yog' va suyak qo'sh mang", deb eslatib qo'yishadi. Bu gap umuman tushunarli. Dunyoning sodda lisoniy tasviriga ko'ra, inson go'sht sotib olmoqchi, u suyak, yog', ichak-chavoq, taloq, dum yoki boshqa narsalarni oglisi yo'q. Pulni ularga sarflashni nodonlik deb biladi. Ammo ikkinchi tomondan "lahm" so'zi arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, u "umuman go'sht" degan ma'no beradi. Lahmga hayvon terisi ichidagi go'sht, suyak, ichak, qorin va h.k.larning hammasi kiradi.

O'zbeklar bu arabcha so'zni o'zlar tushunmagan holda ishlatalishiadi. Bu so'z o'zbek tiliga qabul qilinganda til lug'at tarkibini me'yorlashda stilizatsiya, guruhlash sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Unga binoan turkiy (yangi o'zbek) so'z "umuman go'sht" ma'nosini bildirsa, lahm – suyak va yog'lardan xoli toza go'shtni bildirish uchun ishlatalidi. Bu kabi farqlanish dunyoning aloqaga kirishgan har qanday ikki tiliga xos bo'lgan hodisadir. Masalan, O'rta asrlarda Norman istilosini (1055–1450) degan tarixiy hodisa sodir bo'lgan, unga ko'ra fransuz tilida so'zlashuvchi normanlar Angliyani bosib olgan va 350 yil davomida Angliya fransuzlarning mustamlakasi

bo'lgan. Bu davrda minglab so'zlar fransuz tilidan ingliz tiliga kirib kelgan. Ba'zan ingliz tilida mavjud bo'lgan, shu ma'noni bildiruvchi fransuz so'zlar ham kirib kelgan. Shunda ular orasida semantik differensiatsiya hodisasi sodir bo'lgan. Masalan, hayvon nomi va undan olinadigan go'sht nomi kabilar shular jumlasidandir. Unga ko'ra, inglizcha so'z hayvonni bildirsa, fransuzcha so'z esa undan olingen go'shtni bildiradi [4]. Masalan: *cow* (sigir) – *beef* (mol go'shti); *sheep* (qo'y) – *utton* (qo'y go'shti). Bulardan *cow* va *sheep* inglizcha, *beef* va *utton* esa fransuz tilidan kirib kelgan so'zlardir. Bu kabi misollarni yuzlab keltirish mumkin.

Yuqoridagi holatdan yana ayrimlarini ko'rib chiqaylik. *Discredit* so'zini olsak, uning lug'aviy ma'nosi *to refuse to accept, disbelieve* deb berilgan. Bu so'z ma'nosini konseptual jihatdan tahlil qilsak, "kimdir boshqa birovning taklifini qabul qilmaydi, unga ishonch bildirmaydi" degan ma'no anglashiladi. Bu fikri boshqacha ifodalaydigan bo'lsak, so'zning birinchi ma'nosi *credit* – qarz, *dis* – uzoqda bo'lmoq, uzoqlashtirish. Natija esa, "bu shunday ishonchni yo'qtgan odamki, unga umuman qarz berib bo'lmaydi". Agar qarz beradi-gan bo'lsang, sud orqali undirasan. Xulosa, hatto oddiy qarz berishga ham arzimaydigan odamga boshqa jiddi-yroq narsada ishonch bildirib bo'ladi? Albatta, yo'q!

Yana bir misolni olaylik. *Disarm* – qurolsizlantirmoq. Buning ma'nosi – kimnidir qurolsiz qoldirmoq, quroldan foydalanish imkoniyatidan mahrum qilmoq. Bu "bo'rini qo'yga aylantirish" degani. Shu kabi misollarga *disloyal, disregard, disease* va h.k.larni keltirish mumkin. Bu so'zlarining "ichki ma'nolari" yoki birlamchi semantik qiymatlari mavhum emas, balki sodda, aniq ma'noli so'zlarining muayyan kontekstlarda birlashuv natijasida paydo bo'lmoqda.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

- Блумфильд Л. Язык. – Москва: Прогресс, 1968.
- Маковский М.М. Теория лексической аттракции. – Москва: Наука, 1971. с.
- Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Изд-во иностр. лит., 1963.
- Qo'ldasheva Sh.A. Propozitiv nominatsiyaning ayrim masalalari haqida // O'zMU Ilmiy xabarnomasi. – Toshkent, 2011.
- Косериу Э. Синхрония, диахрония и история // Новое в лингвистике, Вып. III. – Москва, 1963.



## BADIY TARJIMAGA O'RGAТИSHNING METODOLOGIK MASALALARI

Badiiy tarjimaning metodologik masalalari xususida so'z yuritsak, badiiy tarjimaga o'rnatish metodologik jihatdan hamon to'liq o'rganilmagan masalalardan birdir. Garchi badiiy tarjimaga o'rnatishda izlanuvchilar va pedagoglar yaxshi tajriba to'plagan va bir qator masalalarga oydinlik kiritgan bo'islalarda, tarjimaga o'rnatish metodikasi yetarli darajada yoritilmagan. Badiiy tarjimaga o'rnatuvchi o'quv maskanlari bo'lajak tarjimonlar uchun kerakli kompetensiyalarni egallahsha imkon be-

ruvchi uslubiy asos va badiiy tarjimaga o'rnatish tizimini ishlab chiqishlari lozim.

Komissarovning fikriga ko'ra, tarjimaga o'rnatish mashg'ulotlarida bo'lajak tarjimonlar – talabalar pas-siv retseptor bo'lib qolmoqdalar [1]. Darhaqiqat, badiiy tarjimaga o'rnatish mashg'ulotlarida aksariyat hollarda talabalar faqatgina o'qituvchi tomonidan taklif etilgan ayrim asarlarning ma'lum bir parchasi tarjimasi bilan shug'ullanadilar, xolos.

Badiiy tarjimaga o'rgatish metodikasi o'z ichiga badiiy tarjimaga o'rgatish metodikasi aspektlari, badiiy tarjimaga o'rgatish metodlarining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq jihatlari va amaliy masalalarni qamrab olishi lozim deb o'yaymiz.

Badiiy tarjimaga o'rgatish metodikasi aspektlari xususida so'z yuritsak, bu jihatlar tarjimonlarni tayyorlash jarayoni, tarjimaga o'rgatish amaliyoti, o'quv dasturlari, ta'llim tamoyillari kabi bir qator masalalarni qamrab oladi. Bu masalalar bilan bog'liq bir qancha muammolar jarayon davomida yuzaga keladi va yuzaga kelgan muammolar yechimi ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarida o'z aksini topishi ayni muddao deb o'yaymiz. Tarjimaga o'rgatish metodikasi bo'yicha olimlar va tadqiqotchilar ko'plab fikrlarni bildirgan bo'lib, ularda bir qator kelishmovchiliklar mavjud.

V.N.Komissarov fikricha, tarjimaga o'rgatishda "nima uchun o'rgatish", "nimani o'rgatish" va "qanday o'rgatish" kerak, degan uch asosiy masala mavjud [1]. Biz ham Komissarovning fikriga qo'shilgan holda uning fikrini "tarjima matni qay tarzda tanlanishi kerak" va "matn tarjimasi qay tarzda o'rgatilishi lozim" tarzida talqin etgan bo'lardik.

Olim B.Hatim tarjimaga o'rgatish metodikasida quyidagilarni, ya'ni: tarjimon bo'lish uchun tug'ma iqtidor talab etiladimi yoki tarjimon jarayonda shakllanadimi, tarjimaga o'rgatish nazariyasi kerakmi, tarjimaga o'rgatish jarayoni umumiy yoki maxsus bo'lishi kerakmi, tarjimaga o'rgatishda materiallarni tanlashda qanday mezonlarga amal qilish lozim, tarjimon bo'lish istagidagi talabalarga qanday talablar qo'yilishi kerak, tarjimaga o'rgatishda o'qituvchilar qanday ta'llim olgan bo'lishlari kerak, degan masalalarni asosiy muammolar deb belgilaydi [2: 254].

Bizning fikrimizcha, tarjimon jarayonda shakllanishi va tarjimaga o'rgatish jarayoni maxsus bo'lishi kerak. Badiiy tarjimaga o'rgatish uchun materiallarni tanlashda lingvosotsium (lingvojamiyat)ning o'ziga xos tafakkurini qamrab oluvchi autentik yaxlit matnlarni tanlansa, bunday tanlov talabalarga ma'lum kommunikativ vaziyatlarida matnlarni talqin qilish va qayta yaratish strategiyasini o'rganish imkonini beradi, shuningdek, materiallarni tanlashda talabaning til bilish darajalari ham inobatga olinishi lozim.

S.A.Korolkova [3: 198] bo'lajak tarjimonning ikkinchi darajali lingvistik shaxsini shakllantirish va uning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun tarjimaga o'rgatishning tekstologik modeliga matnlar korpusini tanlashda beshta mezonni belgilaydi: 1) autentiklik mezon; 2) til materialining lakunarlilik mezon (ikki tilda leksik nomuvofiqlik, chet tilda to'liq analogning yo'qligi tarjimada qiyinchiliklarga olib kelishi masalalari); 3) kommunikativ vaziyat mezon; 4) matn turining chastotasi (kasbiy faoliyatda yuzaga kelishi); 5) matnlarning tarjimashunoslik tipologiyasi.

Ushbu mezonlar tarjimaga o'rgatish jarayonida ham retsiyipent, ham autentik matnni o'zga tilda qayta yaratuvchi mutaxassis darajasida bo'lajak tarjimonlarning professional kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha ham badiiy tarjimaga o'rgatishda autentik matnlardan foydalanish bir qator afzalliklarga ega. Autentik matnlar pragmatik ahamiyatga ega, ijtimoiy-madaniy faktlar va vogeliklar bilan to'yingan, shuningdek, uslub va janr jihatidan xilma-xildir. Bularning barchasi o'quvchi-talabalarning bilim faolligini rag'batlantiradi va ularning motivatsiyasini oshiradi.

Metodologiyada autentik matnlarni tanlash uchun bir nechta mezonlar mavjud. Ulardan ba'zilarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, T.I.Zuyeva madaniy mezonni taklif qilgan holda mintaqaviy va hududiy ma'lumotlarning keng qamrovgi o'rganuvchilarda qiziqish va motivatsiyani sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

T.I.Zuyeva alohida ta'kidlagan yana bir mezon informativlik mezonini bo'lib, bu mezon o'quv materialini tanlashda hal qiluvchi omillardan biri ekanligi va har qanday o'quv materialini tanlashda o'quvchini qiziqitradigan yangi ma'lumot mavjud bo'lishi kerakligiga urg'u beradi. T.I.Zuyevaning ta'kidlashicha, materiallar o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos ravishda tanlanishi, shuningdek, ma'lumotlarning ahamiyati va mavjudligi nuqtayi nazaridan baholanishi kerak [4: 68-69].

Badiiy tarjimaga o'rgatish metodlarining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq jihatlari xususida so'z yuritadigan bo'lsak, tarjima mustaqil fan sifatida tan olingen bo'lib, tarjimashunoslik sohasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan tarjimashunoslik fani boshqa fanlar, ya'ni sotsiolingvistika, lingvistika, antropologiya, etnologiya, psixologiya, metodika, didaktika, ritorika, lingvomadaniyat kabi fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. O'zaro uzviy bog'liqlik juda yaxshi natijalarga olib keldi, bunday bog'liqlik orqali tarjimon tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi mukammal ravishda shakllanadi va, natijada, butun bilimi, tajribasi va iste'dodi namoyon bo'ladi.

Badiiy tarjimaga o'rgatish zarurati, badiiy tarjimaga o'rgatish bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish, tayyorlov sifatini oshirish kabilalar badiiy tarjimaga o'rgatishning amaliy masalalariga kiradi.

Ikki tilni bilgan kishi tarjimani adekvat tarzda qila oladi, degan fikr hamon mavjud. Biz bu fikrga mutlaqo qo'shilmaymiz. Tarjimonlarni, shu jumladan, badiiy tarjima bo'yicha tarjimonlarni tayyorlash zarurati hamon dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bilingvism mohiyati va til shakllarining xilma-xilligini to'liq tushunmaslik tarjima mahoratiga yetarlicha baho bermaslikga olib keldi.

Tarjimonlarni tayyorlashdagi amaliy masalalar, bizning fikrimizcha, quyidagi ikki muammoni o'z ichiga oladi:

- oly ta'llim muassasalarida tarjimaga o'rgatish amaliyotdan uzoqda, ya'ni yetarli darajada emas;
- tarjima darslari chet til o'qituvchilari yoki filologlar tomonidan olib borilishi.

Ta'kidlash joizki, lingvistik kadrlar tayyorlash nuqtayi nazaridan bo'lajak chet til o'qituvchisini ham, bo'lajak tarjimonni ham bir xilda tayyorlash mumkin emas, chunki bu, o'z navbatida, tarjimonlarni emas, balki tarjimaga moyil tilshunoslarni tayyorlashga olib keldi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirda universitedda tarjimonlarning professional ta'limi sifat jihatidan yangi mazmun kasb etib, bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida shaxsiy va kasbiy tajribasini rivojlantirish mazmuni va muhitni vazifasini o'tamoqda. Bunga talabalarning akademik fundamental til tayyorgarligini ularning kasbiy tarjima

faoliyatiga bosqichma-bosqich kiritish va professional shaxsnini maqsadli rivojlantirish bilan birlashtirgan zamonaviy ta'lim mazmuni yordam beradi.

Mehnat bozorida tarjimonlarga bo'lgan talab nihoyatda ortib bormoqda. Tarjima malakasini keng ko'lamda egallahsgina mehnat bozorida talab qilinadigan profesional tarjimon bo'lishga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение: учеб. пособие. – Москва: ЭТС, 2002.
2. Hatim B. Teaching and researching translation. – Harlow: Pearson Education Limited, 2001.
3. Королькова С.А. Текстологическая модель обучения письменному переводу студентов языковых вузов (на материале французского языка): дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – Волгоград, 2006.
4. Зуева Т.И. Аутентичный иноязычный текст в процессе обучения иностранным языкам и культурам // Современные научные технологии, 2004, № 4.

Tahlil



Fazilat INOGAMOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti Fransuz filologiyasi  
kafedrasi fransuz tili o'qituvchisi

## LUG'AT MAQOLASI FRAZEOLOGIK BIRLIK SEMANTIKASI VA PRAGMATIKASINI TUSHUNTIRISH USLUBI SIFATIDA

Frazeografik ma'lumotlar bo'yicha o'tkazilgan tahlilning ko'rsatishicha, lug'at maqolasining axborot berish xususiyati komponent tarkibiga bog'liq bo'ladi. Lug'at maqolalarining ikki tuzilmaviy turi farqlanadi. Birinchisi to'liq lug'at maqolasi va izohning qisqargan turidir. To'liq tuzilma o'z ichiga to'rt qismni qamrab oladi:

- sharhanayotgan birlik;
  - definitsiya, izohlar (stilistik, grammatic, etimologik);
  - illustrativ qism;
- Qisqargan tuzilmasi uch bo'lakdan iborat:
- sharhanayotgan birlik,
  - definitsiya,
  - illustrativ qism.

Ko'rib chiqilgan frazeografik ma'lumotlarda qisqartirilgan tuzilma ko'proq uchraydi. Ayrim hollarda, foydalanuvchi lug'at maqolasi ikki qism: sharhanayotgan birlik va definitsiyadan iborat bo'lgan lug'atlarni uchratishi mumkin.

N.V.Razmaxninaning ta'kidlashicha, "germenevistik qoidaga muvofig "butunni bo'linmadan kelib chiqib tushunish, bo'linma esa butundan kelib chiqib tushunish"dir. Ushbu ta'rif lug'at maqolasiga mansub bo'lib, uni quyidagicha tasvirlash mumkin: kontekst-erkin shakldagi frazeologik iboradan foydalanuvchi interpretatsiyaning boshqa aylanasiga definitsiya orqali o'tadi [1: 17]. Shu sabab "butunga yaqinlashish"ning mazkur bosqichida semantik entropiya olinishi ro'y beradi. Frazeologik ibora definitsiyasi irratsional ma'noni ratsional vositalar bilan ifodalash bo'lib, bunda konsept idiomasini negizida yotgan hajm tushunchalar chegarasigacha va frazeologik iboraning ayrim semantik

invariantigacha kamayadi. Tushunilgan ma'noning kengayishi boshqa doiraga o'tish vaqtida ro'y beradi, bu vaziyatni grammatic, uslubiy va etimologik eslatmala larga bog'lash mumkin [2: 85]. Lug'at maqolasi doirasida yakunlangan ma'no birligining yakuniy bosqichi uning illustrativ qismiga o'tish hisoblanadi. Frazeografik amaliyotda tuzuvchilar tomonidan illustrativ misollar keltirish doimiy urfga kirgan. Jahan tajribasida illustratsiyalari bo'lmagan bir dona lug'at **Collins Cobuild Dictionary of Idioms** lug'atidir. Potensial frazeologikkil iboralarning bosqichlaridan o'tib, abstraksiyaning ma'lum darajasiga yetgach, ayrim belgili tavsiflarga ega bo'lib (nisbiy mustahkamlangan denotat, tayyor holda qo'llash), frazeologik ibora avvalgidek pragmatik yo'naltirilgan bo'ladi, bunga uning asosiy pragmatik funksiyasi – illokutsiya vositasi bo'ladi. Illokutsiya faqat kontekst bo'yicha aniqlanadi.

G.P.Pomiguevning fikriga ko'ra, frazeografik manbalarning lug'at definitsiyalari ahamiyatli darajada tuzuvchilarning sezgirlik va tajribalariga tayanadi, bu esa bir xil frazeologizmlarda tuzilma va lug'at ta'riflarining ma'no mazmunidagi farqlanishlarga sabab bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, lug'at definitsiyalari muammlari bir necha bor olimlarning izlanish obyekti bo'lib kelgan [3: 147]. Demak, G.I.Degtyarenko lug'at ta'rifining qurilishida so'zlar ishtiroti bo'lishini inobatga olib, definitsiyani frazeografik kontekst ko'rinishida ko'rib chiqish o'rini, deb hisoblaydi. "Frazeografik kontekst kontekstning bir turi sifatida, shakl va bu kontekstdan tashqarida bo'lgan frazeologik birlik mazmunini aniqlaydigan sharoitlarning yig'indisini tashkil qiladi. Frazeografik kontekst bu – frazeologik birlikni tushuntiruvchi so'zlar

konteksti bo'lib, nolga teng modallik va frazeologik birlik ma'nosining chekloviga ega bo'lgan murakkab sintaksis ta'lidan iborat bo'ladi..." Frazeologik birlikni unga sinonimik leksik birlik yordamida sharlash frazeografik kontekst hisoblanmaydi. Shunday ekan, hamma frazeografik manbalar ham frazeografik kontekstdan iborat bo'lmaydi. Turli ko'rinishdagi eslatmalar, G.I.Degtyarenko fikricha, frazeografik kontekstni to'ldiruvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi [4].

E.A.Nelyubina lug'atdagi ta'rifni "sharlashning yadro qismi, eng muhim va asl qismi hisoblanadi" va ta'kidlashicha, "lug'at definitsiyasining to'g'ri va aniq qurilishi lug'at maqolasining umumiyo ko'rinishda samarali qurilishini asoslab beradi", deb izohlaydi [5].

Bugungi kunda zamonaviy frazeografiyada lug'at definitsiyalarini qurishga ikki asosiylar: semantik va pragma-semantik yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuvning xususiyati shundaki, lug'at maqolasiga tuzuvchi tomonidan o'ta qisqa definitsiya beriladi, uni sharhnayotgan frazeologik birlikning sinonimi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Masalan:

**"Boucher les oreilles"** – tendre les oreilles pour écouter plus attentivement. (Informel): Au son de ma voix, mon chien a relevé ses oreilles! J'ai dressé mes oreilles quand j'ai entendu mon nom prononcé par des hommes.

**"Viens au point critique"** (informel) – Vous dites que le moment critique est arrivé au moment où une décision ou une action importante est nécessaire de toute urgence: si cela arrivait au point critique, combien d'entre nous sacrifieraient leur vie pour ce en quoi ils croient?

**"Un réconfort froid"** – Si quelqu'un vous dit quelque chose d'encourageant et que vous le qualifiez de réconfort froid, vous voulez dire que cela ne rend pas plus facile de supporter une situation difficile ou désagréable: "Trois ans d'études supérieures, c'est une longue période investissement", dit-il. Mais cela n'est qu'un bien maigre réconfort pour les diplômés qui ont travaillé si dur pour obtenir un diplôme et se sont rendu compte que personne ne semble vouloir qu'ils travaillent maintenant / Chaque année, un diagnostic de sclérose en plaques constitue une condamnation à perpétuité pour des milliers de jeunes hommes et femmes vigoureux en Grande-Bretagne. En savoir plus sur la maladie peut être un mince réconfort, car il n'existe aucun remède ni pratiquement aucun traitement.

Lug'at definitsiyalarini tahlili ko'rsatishicha, ayrim vaqtarda frazeologik lug'at tuzuvchilarini pragmatik ma'lumot

ko'rsatkichlarini qo'llaydilar. Misol uchun, ayrim izohlarida og'zaki suhabat turi so'zlovchining kommunikativ istagiqa qaratilganligini ko'rish mumkin:

– vaziyatga qaratilganlik: "**faire tomber le bloc de quelqu'un**" – pour frapper ou frapper fort quelqu'un;

"**battre quelqu'un**" (utilisé uniquement dans des menaces ou dans un langage fort); "**changer de terrain**"

- changer ses arguments ou ses principes, en particulier. lorsqu'il est étroitement interrogé ou attaqué, deb izohlanadi;

– idioma referentiga qaratilganlik: "**le clignotant**" m(de télévision, radio, etc.) ne fonctionne pas correctement;

– nutq harakati turiga qaratilganlik: "**le sang est plus épais que l'eau**" – la relation entre les personnes d'une même famille est plus forte que les autres relations (souvent utilisé lorsqu'un membre de la famille promet de l'aider).

Bu kabi axborotni idioma pragmatikasiga nisbatan ko'proq semantikasiga tegishli deyish mumkin, bunga sabab u sharhanayotgan idioma ma'nosidagi komponent sifatida qotib bo'lgani va uning ajralmas bo'lagi sifatida o'zgarishsiz kontekstdan kontekstga ko'chib yurishidir.

Etimologik izoh nafaqat idiomani yaxshiroq eslab qolishni, balki yangi, zamonaviy qo'llanilishdagi kontekstda ma'no o'zgarishi orqali interpretatsiyaning boshqa doiraga o'tishini ham ta'minlashi kerak. Shu tariqa, idiomaning etimologiyasi kuzatilmasa, idiomalar funksiya bajarishining odatiy shartlarini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotlar zarur bo'ladi. Bu kabi sharoitlarning zarurati va muhimligi frazeologiya bo'yicha ishlarda ko'p marta eslab o'tiladi.

Frazeologik iboralarning pragmatikasi ta'rifida ilustrativ misollar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki aynan illustrativ misol tufayli sharhanayotgan birlikning funksional jihatlari namoyon bo'ladi hamda pragmatik entropiyaning olinishi ta'minlanadi. Illustrativ misol ushbu vaziyatda bir butun ko'rinishda ifodalanadi. Agarda unda keraklicha axborot bo'lsa, undan qismlar ajralishi mumkin. Illustratsiyalar orqali berilgan frazeologik iboralarda definitsiya qo'llanmasligi mumkin, chunki frazeologik iboralar irratsional ma'no birligi bo'lganligi tufayli, pragmatikaga mansub bo'ladi va aynan unda to'liq namoyon bo'la oladi. Demak, frazeologik lug'at tuzuvchisining oldida pragmatik entropiyani yengish uchun munosib va yetarli axborotni izlash kabi murakkab vazifa turadi, ya'ni frazeologik iboralarni yetarlich ra'motga boy tarzda qo'llash muhim hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- Razmaxnina N.V. Ingliz frazeografik manbalarida muallifning illustrativ misollari asosida nutqni qayta qurish tajribasi. Filol. fan. nomz. diss: 10.02.04. – Irkutsk, 2003.
- Zaxarova M.A. Ingliz tilining majoziy frazeologik birliklarini nutqda qo'llash strategiyasi (fazoviy tuzilishga ega frazeologik birliklar asosida): filol. fan. nomz. diss: 10.02.04. – Moskva, 1999.
- Pomiguev G.P. Ingliz tilining frazeologik lug'atlariada lug'at ta'riflarining qurilishi: muallif konspekti. Filol. fan. nomz. diss. – Leningrad, 1974.
- Degtyarenko G.I. Og'zaki frazeologik birliklar va ularning leksikografik talqini (zamonaviy ingliz tilining izohli lug'atlari asosida): filol. fan. nomz. diss: 10.02.04. – Moskva, 1986.
- Nelyubina E.A. Rus va ingliz lug'atlariada frazeologizm va uning ta'rifi (rus va ingliz tillari asosida): filol. fan. nomz. diss: 02.10.19. – Qozon, 1991.

Nargiza XAYRULLAYEVA,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Roman-  
german tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

## ISPAN TILINING HOZIRGI DUNYODA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Ispan tili va ispan madaniyati har doim dunyo xalqlari orasida katta qiziqish uyg'otib kelgan, ayniqsa, so'nggi yillarda bu qiziqishning sezilarli darajada ortanligi kuzatilmoga. Bu, shubhasiz, ko'p jihatdan bir qator ijtimoiy-madaniy, tarixiy omillar, boshqa tomordan, turli muassasalarining yillar davomida olib borgan til siyosati tufaylidir.

Biz ushbu maqolada ispan tilining global xususiyatini inobatga olgan holda uning tarqalishi, shuningdek, saqlanishiga ta'sir ko'rsatadigan yangi texnologik omillar, ispan tilini chet til sifatida o'rgatish masalalari xususida fikr yuritamiz.

Bugungi kunda ispan tili, shubhasiz, dunyo ilm manbayi bo'lib, uning qiymati boshqalar qatorida uchta hal qiluvchi omilga bog'liq:

– *uning kuchli demografiysi*: bu til dunyoda faqat xitoy, ingliz va hind tillaridan keyin to'rtinchchi o'rinda turadi va ispan tilida so'zlashuvchilar soni tez orada 500 millionga yetadi;

– *uning yuqori darajadagi funksionalligi*: xalqaro mu-loqot tili sifatida ispan tili dunyo sahnida hal qiluvchi o'rinni egallab, uni o'rganuvchilarning professional istiqboliga keng imkoniyatlar eshigini ochadi;

– *uning tan olingen madaniy obro'si*: ispan tili – Ispaniya va Lotin Amerikasining boy madaniy merosini, barcha ispan tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda yaratilgan adabiy, badiiy, kinematografik va ko'plab boshqa sohalarni o'rganish uchun ideal vosita.

Yuqoridagilardan xalqaro maydonda ispan tilining qanchalik muhim o'ringa ega ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Ispan tilining Amerika qit'asida tarqalish tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, ispanlar Amerikaga bosqinchilar tomonidan olib kelingach, u mahalliy tillar mintaqasi va ta'sir doirasiga qarab turli yo'llar bilan rivojlangan. Shu sababli, Lotin Amerikasining turli hududlarida ispan tilining aslidagisidan farqli jihatlarini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda aholi soni, geografik kengayish, tilning tarqalish vositalari bo'yicha o'ziga xos lingistik xususiyatlari, shuningdek, ingliz tiliga juda yaqinligi tufayli ispan tili besh qit'ada tarqalib, deyarli 500 million so'zlashuvchi tomonidan faol foydalilib kelmoqda. Ispaniyada rasmiy til bo'lishdan tashqari, u Amerika va Karib havzasidagi 19 davlatning rasmiy tilidir. Kuba va Salvador ispan tilida so'zlashuvchilar soni eng ko'p bo'lgan davlatlardir. Bu til, shuningdek, AQShning ma'lum hududlarida to'liq yoki qisman amal qiluvchi ona tili hisoblanadi. Ekvatorial Gvineya, Filippin kabi mamlakatlarda ham ispan tilida

so'zlashuvchilar mavjud bo'lib, ular 30 millionga yaqin kishini tashkil etadi. Shunday qilib, ispan tili xitoy va ingliz tillaridan keyin eng ko'p so'zlanuvchi, geografik jihatdan eng keng tarqalgan tillardan biri hisoblanadi.

Ispan tili etnik, iqlimiylar xilma-xilligi, ulkan madaniy, adabiy, badiiy merozi bilan nihoyatda boy va rang-barang madaniy makon aloqa vositasidir. Bundan tashqari, u ingliz va fransuz tillari bilan birgalikda xalqaro tan olingen rasmiy til, BMTning uchta "ishchi tili", arab, xitoy va rus tillari bilan oltita "rasmiy uchrashuv tillari" dan biri hamdir. Ispan tili o'nlab rasmiy tashkilotlarda (YUNESKO, JSST, FAO va h.k.) rasmiy til hisoblanadi. Undan savdo, mehnat va diplomatik munosabatlarda aloqa vositasi sifatida foydalilanadi va u asosiy axborot magistrallariga kiritilgan.

Ispan tili o'z muhitidan tashqarida hisobga olinadigan, bir so'z bilan ifodalash mumkin bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lib, xalqaro muloqot tili sifatida o'z o'rnnini jadal mustahkamlab bormoqdaki, turli mamlakatlarda barcha soha mutaxassislarining ispan tili kurslariga nisbatan taliabi ortib borayotgani buning yaqqol isbotidir.

Servantes institutining so'nggi yilnomasiga ko'ra, dunyoning 90 dan ortiq mamlakatida jami 14 million talaba ispan tilini chet til sifatida o'rganmoqda. Shubhasiz, Amerika qit'asida bu tilga bo'lgan talab eng yuqori. Yevropaning 38 ta mamlakatida qariyb 3,5 million talaba ispan tilini o'rganadi (har yili uni o'rganish uchun tashrif buyuradigan ko'p sonli talabalarni hisobga olmaganda).

Afrikada ispan tili o'z mavqeyini har doimgidan-da tezroq mustahkamlamoqda: yarim milliondan ortiq afrikaliklar butun qit'aning 15 dan ortiq mamlakatida ispan tilini chet til sifatida o'rganmoqda. Yaqin Sharqda ispan tilining o'rganilish ahvoli, so'nggi yillarda mintaqani qamrab olgan siyosiy-iqtisodiy beqarorlik hisobga olinadigan bo'lsa, ijobji deb baholanishi mumkin: butun hududda 15 000 dan ortiq talaba ispan tilini o'rganishadi. Yapon universitetlarida 60 000, Filippinda 20 000 nafardan ortiq talaba ispan tilini o'rganayotgan bir paytda, Xitoyda bu ko'rsatkich juda past – taxminan 9 000 nafar talabani tashkil etadi.

Bu raqamlarning barchasidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ispan tili chet til sifatida bugungi kunda dunyoda eng ko'p o'rganiladigan ingliz tilidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. So'nggi o'n yillikda ispan tiliga bo'lgan talabning eng ko'p o'sganligini alohida qayd etish joiz.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Miranda Stewart. The Spanish language today. – Taylor & Francis e-Library. ISBN 0-415-14258-X
2. <https://liberalarts.du.edu/spanish/admission-aid/why-spanish#:~:text=Spanish%20is%20one%20of%20the,here%20in%20the%20United%20States>.
3. <https://spanish.unt.edu/how-spanish-can-help-you-todays-world>
4. Mike Souheil. The importance of the Spanish language in personal growth. <https://community.thriveglobal.com/the-importance-of-the-spanish-language-in-personal-growth>

## NOLISONIY OLIY O'QUV YRTLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING INTERFAOL METODLARI

Bugun O'zbekistonda ta'lif jarayoni jamiyatdagi jadal o'zgarishlarga moslashishga majbur. Ta'lif integratsiyasi obyektiv jarayon, globalashuvning tabiiy va muqarrar natijasi sifatida amal qiladi [1: 112]. Integratsiya ijtimoiy tartib va ta'lif sohasidagi davlat siyosati darajasida rag'batlantirilib, qo'llab-quvvatlanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy yosh avlodning fikrlashidagi o'zgarishlar va ularning o'quv materialini idrok etish xususiyatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, "klip" deb ataladigan fikrlash amaliy mashg'ulotlarni, shu jumladan, universitetlarda ingлиз tili darslarini tashkil etishning an'anaviy shakllari samaradorligining pasayishiga olib kelib, shunga ko'ra, turli xil interfaol o'qitish vositalaridan foydalanish zaruratini taqozo etadi.

Darslarni tashkil etish interfaol shakllarining umumiyligiga quyidagilar kiradi: davra suhbatlari, konferensiylar, insert usuli (assotsiativ insho), intervyyu, guruh ishi, o'quv filmlarini muhokama qilish, tezkor so'rov usuli, vaziyatni modellashtirish, amaliy tadqiqotlar, loyiha ishi, muammolarni taqdim etish usuli, aqliy hujum, babs-munozaralar, muhokamalar, biznes, rolli o'yinlar, taqdimalar, fokus-guruhrar, amaliy vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash usuli, treninglar va boshqalar [2: 45].

Toshkent davlat transport universitetidagi ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida qo'llaniladigan interfaol o'qitish usullariga misol sifatida faol lug'at va o'quv matnlarida taqdim etilgan ma'lumotlar haqidagi bilimlarni kuzatishga qaratilgan jamoaviy o'yinni keltirish mumkin. O'yin mavzuni o'rganish oxirida tashkil etiladi. Tilni turli darajada egallagan talabalar 3–4 kishilik kichik jamoalarga bo'linadi. Talabalarning faol lug'atni o'rganish, o'quv matnlari bo'yicha turli nutq mashqlarini bajarish, kerakli grammatik tuzilmalardan to'g'ri foydalanish va hokazolarga nisbatan motivatsiyasini oshirish uchun o'yiniga tayyorgarlik va jamoalarga bo'lish mavzu bo'yicha birinchi amaliy mashg'ulotlar paytida amalga oshiriladi. Ikkinci o'quv yilida "Tekshiruv" mavzusini o'rganishda "So'z o'yini" viktorina yoki kartochkalar o'yini shaklida qo'llanilishi mumkin.

Har bir nolisoniy universitet o'z kasbiy yo'nalishiga ega bo'lib, iqtisodiy faoliyatning muayyan sohasi bilan bog'liq. Shu sababdan texnik universitetda chet tilda

muloqotni o'rgatishning mazmuni va usullari vaziyatga bo'g'liq holda tanlanishi, mavzuiy sohalar esa o'ziga xos xususiyatlarni, masalan, muhandislik sanoati va talabaning kelajakdagagi kasbiy faoliyatini aks ettiruvchi tegishli til va nutq materialini o'z ichiga olishi lozim.

Ta'kidlash joizki, texnik oliy o'quv yurtlari uchun ishlab chiqilgan so'nggi avlod davlat ta'lif standartlarida zamonaviy muhandislik-texnik amaliyot ehtiyojlari, texnik universitetda chet til o'qitish mazmunini kasbiy mehnat bozori talablari, qiziqishlar bilan bog'lash masalalari hisobga olingan. Ularda kompetensiyaga asoslangan yondashuv oliy kasbiy ta'larning yangi paradigmasi asosi sifatida e'tirof etilgani bejiz emas. Biroq, ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili talabalar – bo'lajak muhandis-texnik xodimlarga chet tilda kasbiy muloqotni o'rgatish bilan bog'liq masalalar yetarli darajada nazariy va amaliy ishlab chiqilmaganligini ko'rsatadi. Shuning uchun chet til bo'yicha oliy kasb-hunar texnik davlat ta'lif standartlarini joriy etishda muhandislik-texnik amaliyotning real ehtiyojlari va bozor munosabatlari sharoitida mashinasozlik sanoati korxonalari o'rtasidagi xalqaro aloqalarni faollashtirishish nazarda utilishi maqsadga muvofiq. Holbuki, texnik oliy o'quv yurtlari va mashinasozlik tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yetarli darajada samarali emasligi muammoni yanada kuchaytirmoqda.

Interfaol ta'lif usullariga yana bir misol – kartochkalar yordamida faol lug'at haqidagi bilimlarni tekshirish. Bunda bir talaba inglizcha ibora yozilgan kartochkani olib, uni tarjima qiladi, keyingi talaba esa u bilan jumla tuzadi. Ushbu usuldan muntazam foydalanish natijasida faol lug'atni, ingliz tiliga xos bo'lgan rasmiy ishbilar-monlik uslubining barqaror klishelarini yodlash samaradorligi oshadi, bu esa, o'z navbatida, talabarni kasbiy faoliyat sohasida madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi.

Shunday qilib, interfaol o'qitish usullaridan foydalanish zamonaviy jamiyat ehtiyojariga javob berish va o'quvchilar idrokining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchanlikni namoyon etish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish hamda o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida talabalar o'rtasida jonli muloqot muhitini yaratish imkonini beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Andrienko E.V. Zamonaviy ta'larning integral tendensiyalari uni modernizatsiya qilish omili sifatida // Pedagogik innovatsiyalar, 2016, № 1(41).
2. Salogub Y.L., Yuxnevich K.P. Harbiy ta'lif muassasalarida huquqiy fanlarni o'qitish jarayonida interfaol o'quv elementlaridan foydalanish // XXI asrda harbiy pedagogikaning rivojlanishi: III universitetlararo materiallar. Ilmiy-amaliy konf. Sankt-Peterburg, 2016.
4. Kropaneva E.M. Huquq o'qitish nazariysi va metodikasi: darslik. – Yekaterenburg, 2012.

Valijon QODIROV,  
Andijon davlat pedagogika instituti professori,  
pedagogika fanlari doktori

## METODIKAMIZ ILMINI YANGILAGAN DARSLIK

Ilmda adabiyotni o'qitish metodikasiga bir vaqtning o'zida ham fan, ham san'at sifatida qarash mavjud. Ko'r kam adabiyot namunalarini o'qitishning maqsad-vazifalari, tamoyillarini aniqlash, fanning taraqqiyot bosqichlarini belgilash, umumnazariy masalalari, shakl va yo'nalishlarini ochiqlash kabilalar uning alohida fan sifatida o'rnni tayin etadi. San'atlar ichida eng om-maviy va imkoniyatlari kengligi bilan o'ziga xos bo'lgan Adabiyotni tuyush hamda tuydirish, undan zavq olish va zavqlantira olish ijrosining ham o'zi san'at ekanligiga hech kimda ishtiboh tug'ilmasa kerak. Ana shu ikki jihatni bo'lajak adabiyot muallimlariga anglatish, ularga so'z san'ati voqeliklarini singdirish sir-sinoatini o'rgatish, dars atalmish mutlaq ijodiy jarayonga tayyorlashni ko'zlagan darslik yozish fan asoslarining yetuk nazariyotchi, metodika ilmining bilimdon arbobi, katta tajribaga ega amaliyotchi-pedagog tomonidan amalga oshirilsagina tom ma'nodagi maqsad hosil bo'ladi. Biz bu haqiqatni Qozoqboy Yo'ldosh va Muhayyo Yo'ldosh tomonidan o'zbek filologiyasi mutaxassisligi bo'yicha bakalavr yo'nalishi talabalari uchun yozilgan "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" (T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022-yil) darsligi misolida o'z tasdig'ini topgan deya aytal olamiz.

Darslik yetti bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanining metodologik asoslari, shakllanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari" deb atalib, dastlab "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanining xususiyatlari" alohida mavzu doirasida o'rganilgan. Unda adabiyot o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti; adabiyot metodikasining pedagogik fanlar tizimidagi o'mi; adabiyot o'qitish metodikasi va unga yondosh fanlar; zamonaviy "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani taraqqiyotining yetakchi yo'nalishlari haqida tushunchalar berilgan. Qo'yilgan masalalarning yoritilishiga e'tiroz bo'lishi mumkin emas, hammasi qisqa va jo'yali, ammo, bizning nazarimizda, ayrim jihatlarni mukammallashtirish kerak. Masalan, belgilangan maqsadni hozirgi zamon talablari asosida yanada aniqlashtirish, asosan, talaba shaxsiga, unda shakllantirilajak kasbiy sifatlarga yo'naltirgan tarzda mukammallashtirish zarurday ko'rindi. Ya'ni, darslikning 10-betidagi "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fani oldiga kam intellektual kuch va pedagogik resurs sarflagan holda salmoqliroq didaktik natijaga erishish yo'llarini o'rganish" ifodasidagi maqsad "Ushbu fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad yuqori nazariy tayyorgarlikka va ularni amaliy qo'llay olish malakasiiga ega, adabiyot o'qitishning umumiy qonuniyatlarini va

tomoyillarini hamda fanga oid so'nggi yutuqlarni puxta o'zlashtirgan, adabiyot o'qitishga nisbatan kompetensiyaviy yondashuv talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat" tarzida bo'lishi mumkin edi. Bu, albatta, bizning tavsiya xarakteridagi taklifimizdir, darslik mualliflari o'ylab ko'rishar.

Ikkinci bo'lim "O'zbek adabiyotini o'qitishning umumnazariy masalalari" deb nomlanib, unda adabiy ta'lim asoslari, adabiyot o'qitishda o'quvchilarining yosh xususiyatlarni hisobga olish, o'qitish metodlari kabi masalalar haqida so'z yuritiladi. E'tiborli jihat shundaki, unda adabiy ta'limning maqsadi, vazifalari hamda mazmunidan iborat uch asos talqin qilingan, har biriga qisqa va lo'nda ta'rif berilgan. Masalan, adabiyot o'qitishning maqsadi ham o'z ichiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan bosh maqsad; o'qituvchi tomonidan belgilanadigan umumiyyat maqsad hamda har bir o'quvchining o'z xususiy maqsadi singari uch tushunchani olishi ko'rsatilganchi, bo'lg'usi adabiyot muallimiga o'z faoliyati mazmuni ga to'g'ri mo'ljal olishni o'rgatadi. Belgilangan vazifalar da adabiyot o'qitish orgali o'quvchilarsha shakllantirilishi lozim bo'lgan yetakchi kompetensiyalar umumlashma holda o'z ifodasini topgan deyish mumkin. Hozirgacha amalda bo'lib kelgan darsliklar bilan solishtirilganda ak-sar mavzular yangi ma'lumot va qarashlar bilan boyitilgani barobarida "Konstruktivizm falsafasi, hamkorlik pedagogikasi va adabiyot o'qitishda interfaol usullardan foydalanish", "Pedagogik innovatsiyaning adabiy ta'limdagi o'rni" singari mutlaqo yangi mavzularning kiritilgani mualliflarning izlanishlaridan darak beradi. Faqat shu o'rinda adabiy ta'lim mazmunini tashkil etuvchi o'quv rejasi, dastur, darslik kabilalar haqida ham ma'lumotlar kiritib ketilishi maqsadga muvofiq bo'lardi, deb o'ylaymiz.

"Saboq – adabiyot o'qitishning asosiy shakli" nomli uchinchi bo'limda, avvalo, "Adabiyot darsining o'zi nima?" savoliga to'la javob berilgan. Ulardan talabalar zamonaviy adabiyot darsiga qo'yiladigan talablar, darslarning tarkibiy tuzilishi, turlari, shuningdek, o'qituvchining darsda o'quvchilar bilan birga amalga oshiradigan faoliyati to'g'risida batafsil tushunchalar oladilar.

"Adabiy ta'limda badiiy asar tahlilining o'rni" deya atalgan 4-bo'limda mualliflar adabiyot darslarining asosiy yumushi bo'lmish badiiy asar tahliliga alohida va batafsil to'xtalganlar. Unda badiiy asarning ilmiy-filologik va o'quv-didaktik tahlil turlari ko'rsatilib, har biri ta'riflanadi. Mavzu taqozosidan kelib chiqib, ikkinchi – o'quv-didaktik tahlilning o'ziga xosligi atroflicha tavsi-

**Tahil**

flanadi. Keyingi fasllarda badiiy asarlarni adabiy turlar kesimida tahvil qilishning metodik yo'riqlari yetarlichayoritib berilgan, deyish mumkin.

5-bo'limga yozma ishlar, ularni o'tkazish, tekshirish, baholash haqida, 6-bo'limga sinf va maktabdan tashqari ishlar hamda fakultativ mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Oxirgi 7-bo'limga adabiyot darslarini rejalashtirish, ularni kuzatish va tahvil qilish, shuningdek, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va obro'-e'tiboriga qo'yiladigan talablar ochiqlangan.

O'tgan o'quv yilida nashr etilib, oliy ta'limgiz tizimi o'qitish jarayonida dastlabki aprobatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" uzoq izlanishlar talab etuvchi zahmatli mehnat, sohadagi ulkan tajriba, yuksak zakovat va bilimdonlik natijasi o'la-roq yaratilgan, mahalliy hamda xorijiy tajribalarni o'zida mujassam etgan, axborot va pedagogik texnologiyalarini tatbiq etishni ko'zlagan, amaldagi joriy muqobillari ga nisbatan takomillashtirilgan darslik desak, yanglish bo'lmaydi.

Ma'lumki, hozirgi kunimizga qadar S.Dolimov, Q.Ahmedov va H.Ubaydullayevlarning dastlabki qo'llanmasi, A.Zunnunovning darsligi, B.To'xliyev qo'llanmasi, Q.Husanboyeva hamda R.Niyozmetovalarning qo'llanma va darsliklari metodikamiz ilmi bisotida mavjud. Ularning o'ziga xos yutuqlari, kamchiliklari, aytish mumkinki, cheklangan tomonlari bor. Biz so'z yuritayotgan darslikni ularga qiyosan o'rganib fikr bildirsak, quyidagi jihatlar o'rtaqa chiqadi:

- Mazkur darslik mualliflari o'zlarigacha bo'lgan metodik adabiyotlar yaratish tajribasini umumlashtirib, maktab adabiy ta'lmini uyushtirishning zamonaviy universal jihatlarini ilmiy tizimga solishga muvaffaq bo'lganlar.

- Darslikning tarkibiy tuzilishi (strukturasi) oldingilardan farqli o'laroq aniq maqsadli, tizimli, fanning yetakchi yo'nalishlarini qamrab olish tamoyili asosida tartiblangan. Yetti bo'limgandan iborat mundarijada bugungi kun adabiyot predmeti o'qituvchisi bilishi lozim bo'lgan bilimlar, asosiy metodik tushunchalar qamrab olingan.

- Ilk bor mazkur darslikda "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanining shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari mualliflarga ma'lum bo'lgan manbalar asosida yoritilgan. Eng qadimgi zamonlardan egamanlik yillari – hozirgi kunimizgacha bo'lgan davrlardagi adabiyot o'qitish ilmiga doir ma'lumotlar bir mutaxassis bilishi kerak bo'lgan hajmda bayon etilgan.

- Adabiyot o'qitishning umumnazariy masalalari mualliflarning oldindan olib borgan ilmiy tadqiqotlari, yaratgan metodik qo'llanmalari va chop ettirgan maqolalarini jamlab, umumlashtirish barobarida ular yangi ma'lumotlar, izlanishlar, xorijdagi mavjud ilmiy qarash hamda tajribalar bilan boyitilgan. Adabiyot o'qitish metodlariga butunlay yangicha yondashuv, konstruktivizm falsafasi, pedagogik innovatsiya va uning adabiy ta'limga tutgan o'rni bilan bog'liq masalalar talabalarga tavsiya etilayotgan metodik adabiyotda ilk bor o'zining mufassal ifodasini topgan.

- O'qitishning asosiy shakli bo'lgan adabiyot darslari, aytish mumkinki, yurtimiz darslik, qo'llanmalar yaratish tarixida birinchi marta nisbatan to'liq tavsiflangan. Yetti qo'yilgan mavzu (ularning har biri adabiyot darslari asosiy masalalari, muammolar) aniq, lo'nda, eng asosiysi, amaliyatga mos, tatbiqi muqarrar tarzda ochib berilgan. Adabiyot darslarining o'ziga xos tomonlari, adabiy-nazariy tushunchalarini o'rgatish, adiblar haqida ma'lumor berish shakllari va mazmuni, bilimlarni baholash, uy topshiriqlari, darslarda sharhli o'qish, ifodali o'qishga o'rgatish, ko'rsatmali qurollar va multimedia vositalaridan foydalanishning metodik jihatlari yangicha pedagogik va metodik yondashuv bilan bayon etilgan.

- Darslikning 4-bo'limidagi adabiy ta'limga badiiy asar tahvilining o'rni bilan bog'liq qismi alohida e'tiborga molik. Bu bobda bugungi kun amaliyotidagi eng og'riqli nuqta – darslarda badiiy asar ustida ishslash bilan bog'liq muammolar yechimi berilgan. Maktab adabiy ta'limga o'qitiladigan materiallarga asoslangan holda adabiy turlar kesimida badiiy asarning o'quv tahlili sir-sinoati talabalgara sodda, tushunarli uslubda bayon etilgan.

- Adabiyot bo'yicha yozma ishlarning turlari va ularni o'tkazish, tekshirish va baholash bo'yicha ham bitiruvchi talabalar, amaliyotda bo'lgan muallimlar uchun bir qator mavhumlik va chalkashliklar bor edi. Alohida bo'limning ikki faslida ana shu masalalarning yoritilgalligi bo'lajak adabiyot o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

- "Adabiyot bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlar" nomli oltinchi bo'limga adabiyot to'garaklari faoliyatini tashkil etish, adabiyot bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar yuzasidan tavsiyalar berilgan. Ularda mualliflar mavjud qarashlarni umumlashtirgan holda o'z tajribalari hamda fan qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib, darslardan tashqarida o'quvchilar adabiy ta'lmini uzviylashtirish va uzlusizlashtirish yo'riqlarini beradilar. Hozirda maktab amaliyotida nazardan chetda qolib ketayotgan yoki yuzaki o'tkazilayotgan o'qituvchi faoliyatining ushbu yo'nalishlari haqida amaliy tavsiyalar berilgani darslikning amaliy qimmatini oshirgan. Shuningdek, adabiyot o'qituvchisi va uning saboqlarga tayyorgarligi, darslarini rejalashtirish, hamkasblar darsini kuzatish va tahvil qilish, adabiyot o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi va imijiga qo'yiladigan talablar qismiga nisbatan ham ayni shu fikrlarni bildirish mumkin.

Men sohaning bir mutaxassis sifatida yaratilgan ushbu darslikni o'zbek metodikasining ulkan bir yutug'i sifatida baholasa bo'lajigan alohida voqelik deb bilaman. Qoniqish bilan e'tirof etamanki, va nihoyat, bizda ham dunyoga o'zbek metodikasining yuzi bo'lajigan, o'zgalarga "bizda shunday darslik bor" deb dadil tavsiya eta oladigan ilmiy jihatdan puxta, metodik apparati izchil kitobimiz bor endi. Bu voqelik bilan, avvalo, hamkasblarimizni: metodist olimlar, adabiyot muallimlarini, qolaversa, o'zini millat ma'naviyatiga daxldor ziyolilarni qutlayman.



Laylo RAUPOVA,

Renessans ta'lism universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

## SIMVOL VA METAFORA HODISALARINING LINGVISTIK TADQIQI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ramz va metafora o'rtaсидаги о'xshash va farqli xususiyatlar muhokama qilinadi. Bu ikki hodisa ba'zida bir-biriga qarshi qo'yilsa, ba'zida bir-birini to'ldiradi. Shunga asoslanib, maqolada bu tushunchalarni to'ligichiga yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** simvol, metafora, ko'chim, madaniyat, denotatsiya va konnotatsiya.

**Annotation.** This article examines the similarities and differences between symbols and metaphors. These two phenomena sometimes oppose each other, and sometimes complement each other. Based on this, the article tries to fully cover these concepts.

**Keywords:** symbol, metaphor, trope, culture, denotation and connotation.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются сходства и различия между символами и метафорами. Эти два явления иногда противостоят друг другу, а иногда дополняют друг друга. Исходя из этого, в статье попытались полностью осветить данные понятия.

**Ключевые слова:** символ, метафора, образ, культура, денотация и коннотация.

Tilning badiiy, mo'jizaviy qudrati metafora va simvollarda yaqqol namoyon bo'ladi. Metafora va simvollar orqali tilning tejamkorlik xususiyati ham, ifodaviylik kuchi ham, ta'sir qudrati ham, akkumulativ imkoniyati ham, tasniflash vazifasi ham, borliqni yaxlit namoyon qilish, undagi uzviylik va uzuksizlikni ko'rsatish ham keng ko'lamda yuzaga chiqadi.

Simvol va metafora tarixi ancha qadimiy. Ularni ilmiy o'rganish tilshunoslikka doir ilk tasavvurlardan boshlanib, bugungi kunda metaforologiya va simvolika daramasigacha yuksaldi. Til ifoda imkoniyatlarini o'rganuvchi semiotikaning alohida tarkibiy qismi, til va madaniyat mushtarakligini tadqiq qiluvchi lingvokulturologiyaning asosiy muammolaridan, til va bilim yaxlitligini tekshiruvchi lingvokognitologiyaning markaziy masalalaridan, til va etnik tafakkur, madaniyatni o'rganadigan etnolingvistikaning muhim predmetlaridan biri sifatida, notiqlik va nutq madaniyatni, badiiy so'z san'ati va poetikaning bosh mavzularidan biri metafora va simvppardir.

Aytish joizki, tilshunoslikda ushbu vositalar, umumiyy nom ostida, troplar yoki ko'chimlar deb ataladi. Tilshunoslikka va adabiyotshunoslikka oid darsliklardan bizga ma'lumki, trop – so'z semantik sathining og'ishi, ya'ni so'zning odatiy ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanilishi demakdir. Shulardan biri – bizning tadqiqot predmetimiz bo'lgan simvol-ramzlarning metafora bilan munosabatiga atroflicha to'xtalib o'tishga qaror qildik.

Simvol va metaforaning qiyosiy o'rganilishi A.Arutyunova, I.V.Arnold, A.F.Losev, Z.I.Xovanskaya, G.V.Pan, G.Kurst, E.Kurganova, G.Vanechkovalar e'tiborini tortgan bo'lsa, o'zbek tilshunos olimlari A.Sharapov, Sh.Turdimov, N.Sabirova va Sh.Atayevlar o'z nomzodlik dissertatsiyalarida ushbu muammo haqidagi to'xtalib o'tishgan.

Metafora nutqning ta'sirchanligi va bunyodkorligi vazifasiga muvofiq ravishda antik dunyoda ritorikada vujudga kelib, insoniyat intellektual olamining barcha sohalarini ham zabit etgan badiiy tafakkur mahsulidir. Tilning butun qudrati metaforada mujassamlashgan.

Eng kuchli tasvir vositalari ham metaforaga tayanadi. X.Otegi-i-Gasset fikricha, "metafora – fikrning bemisl quroli, ilmiy tafakkur shakli... metafora – ifodalarni ko'chirish" [1]. Tilshunos olima G.Nasrullayevaga ko'ra, muloqot tizimida vujudga kelgan metaforada muloqotning o'zida bo'lgani kabi qator omillar ishtirot etadi: o'xshatiluvchi va o'xshovchi obyektlar; so'zlovchi va tinglovchi shaxs; muloqot vaziyati; muloqot muhiti; muloqot intensiyasi; zamon; makon [2]. Muloqotda so'zlovchi shaxsnинг intellektual sifati muhim rol o'yaydi. O'z aqliy salohiyati natijasi o'laroq, u bir turdag'i narsa va hodisalar bilan ikkinchi bir turdag'i narsa va hodisalar orasidagi mutanosiblik va o'xshashlikni ko'radi [2].

Ko'p hollarda metaforaning ikkiyoqlama semantik tabiatga egaligi, bu uning asosiy va belgilovchi xususiyati ekanligi, bu esa metaforik ma'noni asosiy ma'nosiz tus hunish va qabul qilish mumkin emasligini ta'kidlashadi. Agar shunday munosabatda bo'linadigan bo'lsa, o'zbek tilidagi "quralay", "megajin", "aron" so'zlarining bugungi kundagi faol va keng iste'molli ma'nolarini metaforik ma'no ekanligini inkor etishga, inkor etish esa bosh va hosila ma'nolardagi so'zni so'zlar, ya'ni shakldosh ifodalalar sifatida qarashga olib kelar edi. Chunki garchi bu so'zlarning bosh ma'nolari (megajin – cho'chqanining urg'ochisi, quralay – kiyikning bolasi, arlon – itning erkagi) lug'atlarda mavjud bo'lsa-da, umumiste'mol emas va bu uning sinxron ijtimoiylik xossasi kuchsizlanayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, metafora tilning, aniqrog'i, insoniyatning poydevor xususiyatlari dan biridir.

Ma'lumki, XIX asr oxirlarida G'arb adabiyotida ramzlarga asoslangan alohida yo'nalish shakllandi. Simvolizm asoschisi fransuz shoiri Sharl Bodler hisoblanadi. U simvolizm yo'nalishida sermahsul ijod etib, mazkur uslubiy vositaning keng yoyilishiga munosib hissa qo'shgan.

Dastavval, ko'pchilik olimlar (Z.I.Xovanskaya, G.V.Pan) simvolni metaforaning bir turi, unga yondosh sifatida qarashgan. Tadqiqotchi olim Sh.Atayev ham

metafora va simvol munosabatida o'xshashlik xususiyatlarini aniqlab, obrazlilik va badiiy ko'chim ma'no ko'chishining ushbu turlari uchun muhimligini ta'kidlaydi [3]. Haqiqatan ham, simvol ham, metafora ham ko'p ma'noni qisqa, lo'nda ifodalash imkonini beruvchi tilning bo'yodgor vositasidir. Aksincha, bir qator olimlar I.V.Arnold, N.D.Arutyunova, Losev, G.Kurst, N.Djusopov, Sh.Turdimov, A.Sharapov, Sh.Atayev, N.Sabirovalar metafora va simvol farqlovchi xususiyatga ega mustaqil tushunchalar ekanligini ta'kidlashgan. Tilshunos Sh.Atayev o'z nomzodlik dissertasiyasiда tilshunos olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, I.V.Arnold obrazli vositalar ichida simvolni metafora yoki tropning turi sifatida emas, balki obrazning bir qismi sifatida izohlashini; N.D.Arutyunova "simvol – umumlisoniy borliqning ifodalab, ko'p ma'noliligi bilan ajralib tursa, metafora, ma'lum bir obrazli qobiq ichidagi tushunchaligini"; E.Kurganova "metafora – o'zgaruvchan, ya'ni ijodkor uni o'zgartirishi, o'z ijodiga moslashtirishi mumkin, simvolda esa ijodkor unga tobe bo'ladi, ya'ni u qat'iy" kabi jumlalarni tahlil qiladi va olim o'z munosabatini bildiradi. Sh.Atayev ham E.Kurganova nazariyasiga qo'shilgan holda quyidagi xulosaga keladi: "Simvol muntazamdir, uning ma'nosini uzoq o'tmishta ega, uning tarixini bilmasdan turib, har qanday ma'nda qo'llay olmaymiz, metaforaning esa vaqt o'tishi bilan ma'nosini yo'qoladi va ma'lum bir matn doirasida yangicha talqinda yana yaratiladi" [4].

Olima N.Sabirova o'zining nomzodlik dissertasiyasiда metafora – sodda, simvol – murakkab trop, degan xulosaga keladi va simvol uchun "ramziy vaziyat, ramziy lavha va ramziy sharoitning assotsatsiyasi muhim"ligini ko'rsatadi [5].

Ingliz va o'zbek tillaridagi "olma" leksemasi ifodalagan denotativ va konnotativ ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Dastlab ingliz tilining izohli lug'atida ifodalangan ma'nolariga to'xtalamiz:

**Apple:** 1) a round, firm, fleshy, edible fruit with a green, yellow, or red skin and small seeds; 2) any of the trees (genus *Malus*) of the rose family bearing this fruit, widely distributed in temperate regions; 3) any of various plants bearing apple like fruits, or growths, as the May apple, love apple, etc.

Yuqoridagi ma'nolar "olma" leksemasining lug'aviy ma'nolari sanalib, meva hamda shu mevaning daraxti, olmaga o'xshab hosil beradigan o'simliklarga nisbatan ham ishlatilishi mumkinligini bilishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu leksema ko'chma ma'nolarga ega bo'lib, lug'atlarda bu ma'nolar iboralar orqali ko'rsatib berilgan.

**The apple doesn't fall far from the tree** – olma o'z daraxtidan uzoqqa tushmaydi, ya'ni oilaning biror a'zosi ota-onasiga o'xshaydi, uning xatti-harakati, kasbi va o'ziga xos xususiyatlarini takrorlaydi, degan ma'no kelib chiqmoqda.

**The apple of the eye** – bu ibora metaforik o'rinda ishlatiladigan so'z bo'lib, "qimmatbaho", "nodir", "ardoli" so'zlari bilan sinonim bo'lib kela oladi. Bunda biror shaxs, buyum kishiga qadrli bo'lsa, inglizlar bu iborani qo'llaydi, chunki ingliz madaniyatida "olma" mevasiga eng qimmatbaho meva sifatida qaraladi (the apple is the

noblest of all fruits). Ushbu ibora nasroniyalar muqaddas kitobi "Bibliya"da dastlab keltirilgan, keyinchalik yozuvchilar o'z asarlarida qo'llashgan. Masalan, "Keep me as the apple of the eye, hide me under the shadow of thy wings" (Psalm 17:8) [6].

Mashhur ingliz dramaturgi U.Shekspir o'zining "Yoz kechasi" asarida ushbu iboradan foydalaniib, uni "o'quvchi, o'rganuvchi" sifatida talqin qiladi:

*Flower of this purple dye,  
Hit with Cupid's archery,  
Sink in apple of his eye [7].*

**Apples and oranges** – umuman bir-biriga o'xshamagan ikkita inson va narsa, vaziyatni tasvirlash uchun qo'llaniladi. Masalan, *Messi and Ronaldo are the best footballers, yet we can't compare apples and oranges*.

**A rotten apple** – biror guruhdagi odamlarga yomon ta'sir o'tkazadigan va ularni yo'ldan ozdiradigan yomon odamga nisbatan ishlatiladi. Bu o'zbek tilidagi "podani buzadigan", "shaltoq" iboralariga to'g'ri keladi.

**"An apple a day keeps the doctor away."** Ushbu ingliz maqolida har kuni bittadan olma iste'mol qilgan kishi sog'lom bo'lishi, ya'ni shifokor huzuriga bormasligi aytildi. *Olma – sog'lqiq*.

"Olma" leksemasi o'zbek xalq lirkasida ham ko'p uchraydigan ramz, fenomendir. Quyida uning ma'nolariga yuzlanamiz.

**Olma:** 1) atirgullar oilasiga mansub ko'p yillik mevali daraxt. *Olma ko'chati o'tqazish xalqimizda odat*; 2) darraxting mevasi. *Juvon qo'lidagi olmani bir necha marotaba tishladi va chaynamay yutdi* (A.Qahhor) [8].

O'zbek tilining izohli lug'atida ham ingliz tilidagi lug'aviy ma'nolar keltirilgan bo'lib, leksemaning ko'chma ma'nolarini shakllantirishda o'zbek folklorshunoslik namunalardan foydalaniilgan.

*Olma pishganda keling, tagiga tushganda keling,  
Orqa sochim jamalak, belga tushganda ko'ring.*

Tilshunos N.Sabirova xalq lirkasida olmaning yerga tushishi, sochni jamalak bo'lib, belga tushishi – simvolik vaziyat, sharoit va ishoratni ifodalashi, ya'ni qizning bo'yini yetib, turmush qurishga tayyorligi, uning yetilganligiga ishorat qilayotganini o'z tadqiqotlarida ko'rsatgan [9]. Demak, olma – yetuklik ramzi;

*2) Yorim bergen uch olma,  
Uchalasi qo'ynimda.  
Uxlab cho'chib uyg'onsam  
Yorning qo'li bo'ynimda.*

Ushbu xalq qo'shi'i orqali "olma" leksemasining "farzand" ma'nosida kelayotganini aniqlash qiyin emas. Tadqiqotchi Sh.Turdimov ham "olma" leksemasini tadqiq qilar ekan, *farzand talab bo'lgan ota-onaga* ushbu meva hadya qilinsa, oilada farzand dunyoga keladi va fikrlarining isboti o'laroq, ayrim dostonlarda ushbu vaziyat yaqqol namoyon etilganligi aytib o'tiladi (*Go'ro'glining tug'ilishi, Xurshid va Laylo, Zar kokilli yig'itcha, Tohir va Zahro*);

*3) Olma deb otgan otam,  
Behi deb sotgan otam.  
Sevmaganimga berib,  
Jabrini tortgan otam.*

Bu xalq lirkasida "olma" leksemasi sevgi-muhabbat

ramziy ma'nosini ifodalab kelmoqda. Olim Sh.Turdimov "olma otish – yor tanlash, sevganiga erishish", ya'ni yoshlar juft tanlashda ushbu mevani otish yoki hadya qilishi orqali o'sha insonga his-tuyg'ularining belgisi sifatida foydalanishganini ta'kidlaydi [10].

Yuqorida misollarda "olma" simvoli, asosan, ingiliz xalqida negativ assotsatsiya ifodalayotgan bo'lsa, o'zbek xalqida bu pozitiv konnotatsiyani (farzand, sevgi-muhabbat, yetuklik) namoyon etmoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, simvol turli xalqlarda turlicha ma'noga ega bo'ladi, ya'ni madaniy kompetensiyani namoyon etadi. Ushbu simvolning metaforik ma'noda qo'llanilishi, asosan, simvolik ma'nolaridan kelib chiqadi. Bundan ko'rinish turibdiki, metafora simvoldagi qat'iy ma'no asosida ham shakllanishi mumkin.

Anglashiladiki, metafora nutq kompetensiyasi bo'lib, frazeologizmlar asosida yotadi, simvol esa til va madaniyat kompetensiyasidir, shu sababli simvol

– madaniy konseptdir. Simvol va metafora obrazliligi jihatidan o'xshasa-da, qisman farqli tomonlarni o'zida mujassam etadi. Xususan: 1) simvol uzoq tarixga ega bo'lib, uning ma'nosini qat'iy, metafora esa vaqt o'tishi bilan yangicha talqin kasb eta boshlaydi, har bir kontekstda yangicha ma'noda talqin qilinadi; 2) adresant simvolga tobe, metafora esa adresantga; 3) simvol ma'nosida omonimlik, antonimlik mavjud, metafora esa polisemantikdir; 4) metafora nutq birligi, simvol esa madaniyat va til birligidir. Simvol va metaforani bir-biri bilan aralashirmslik, hatto o'rnida ham qo'llamaslik lozim. Mavzu yuzasidagi tahlillarga ko'ra, simvol ko'chimlar ichida murakkab tuzilish va ma'noga ega, ya'ni murakkab tropdir. Metaforaning yuzaga kelishi-ga esa ramz asos bo'lgan. Alovida e'tirof etish o'rinni, simvol – madaniyat namoyondasi, metafora esa madaniyatning nutqdagi ifodasidir. Shunga ko'ra ularni qiyoslab o'rganish dolzarbdir.

#### Foydalananilgan adabiyyotlar

1. Ортега-и-Гассет Х. Две главные метафоры // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990.
2. Nasrullayeva G. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti: fil. fan. d-ri diss. – Nukus, 2019.
3. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili. Leksikologiya. O'quv qo'llanma. – Firdavs-Shoh nashriyoti, 2021.
4. Atayev Sh.A. Simvolik vositalarning nemis tilidan o'zbek tiliga berilishi: fil. fan. fals. dok. diss. – Toshkent, 2012.
5. Sabirova N. Xorazm xalq qo'shiqlarida ramz: fil. fan. fals. dok. diss. – Toshkent, 2018.
6. Apple of one's eye. The Word Detective. Retrieved August 15, 2015.
7. Shakespeare W. A Midsummer Night's Dream. Shakespeare Graphics. – Mankato, MN: Stone Arch Books, 2011.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
9. Sabirova N. Xorazm xalq qo'shiqlarida ramz: fil. fan. fals. dok. diss. – Toshkent, 2018.
10. Turdimov Sh. Xalq qo'shiqlarida ramz: fil. fan. fals. dok. diss. – Toshkent, 2019.

Mahbuba RASULOVA,  
Tashkent State University of Law  
Foreign Languages Department

## NAVIGATING THE LANGUAGE OF LAW: TIPS FOR TEACHING LEGAL ENGLISH TO ESL STUDENTS

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yuridik ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi (ESL) talabalarga ingliz tilidan dars beruvchi o'qituvchilar uchun samarali strategiyalar va amaliy maslahatlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yuridik ingliz tili, ESL talabalari, til ta'limi, yuridik terminologiya, o'qitish strategiyalari, lingvistik muammolar, ta'limda texnologiya.

**Annotation.** This article explores effective strategies and practical tips for educators tasked with teaching legal English to English as a Second Language (ESL) students.

**Keywords:** legal English, ESL students, language education, legal terminology, teaching strategies, linguistic challenges, technology in education.

**Аннотация.** В этой статье рассматриваются эффективные стратегии и практические советы для учителей, преподающих английский (ESL) студентам, изучающим юридический английский как второй язык.

**Ключевые слова:** юридический английский, ESL студенты, языковое образование, юридическая терминология, стратегии обучения, лингвистические проблемы, технологии в образовании.

In recent years, the demand for English as a Second Language (ESL) legal professionals has surged, reflecting the increasingly global nature of the legal landscape [1; 2]. The legal field's cross-border interactions of the legal field necessitate professionals proficient in both the intricacies of the law and the nuances of the English

language. This demand, however, presents unique challenges for ESL students navigating the complex realm of legal education. These challenges include linguistic hurdles, as ESL students grapple with the specialized terminology and communication norms inherent in legal English, compounded by the additional layer of cultural

differences that can impact their understanding and application of legal concepts [3; 4]. Recognizing the critical role language plays in legal practice, the importance of effective legal English instruction for ESL learners cannot be overstated. Proficiency in legal English is not merely a linguistic skill but a gateway to success in a profession where precision and clarity are paramount [5; 6]. The demand for multilingual legal professionals is on the rise, making it crucial for instructors to navigate the intricacies of legal English instruction. From understanding linguistic challenges to incorporating immersive experiences, this article provides insights to enhance the effectiveness of teaching legal English and facilitate a seamless learning experience for ESL students in the legal field. It also aims to explore the nuances of these challenges and underscore the significance of tailored instruction in equipping ESL students for success in the ever-evolving legal landscape.

*Understanding the linguistic landscape of legal English.* Defining legal English involves unravelling a specialized form of language intricately woven into the fabric of the legal profession. Legal English is characterized by its precision, formality, and a reliance on specific vocabulary and terminology that distinguish it from everyday language [1; 4]. This precision is not just a matter of style; it is an essential component in ensuring legal documents and communication are clear, unambiguous, and legally effective. Analysing linguistic challenges specific to English as a Second Language (ESL) learners in the context of legal education reveals a dual struggle. ESL students not only grapple with the technicalities of legal terminology but also contend with linguistic nuances, such as idioms and phrasal verbs, that are pervasive in Legal English [3; 5]. Legal English is not a monolithic entity but is shaped by cultural norms and legal traditions [6; 2]. ESL learners must navigate this intersection of language and culture, understanding how legal concepts may vary across jurisdictions.

*Integrating practical legal scenarios.* Integrating practical and immersive experiences into legal English education is pivotal for ESL learners, fostering a deeper understanding of legal language in authentic contexts. Role-playing exercises in authentic legal contexts provide a dynamic platform for ESL learners to apply theoretical knowledge to real-world scenarios [1; 3; 5]. By simulating legal situations, students gain valuable experience in using legal English in a context that mirrors professional practice. Utilizing mock trials and simulat-

ed legal negotiations further enhances the immersive learning experience. ESL students can actively participate in legal proceedings, honing their language skills while navigating the complexities of legal discourse [4; 7]. Showcasing real-world applications of legal language in ESL classrooms goes beyond theoretical instruction, offering students tangible examples of how language is employed in legal practice [2; 6]. These experiential learning methods not only reinforce language proficiency but also cultivate a deeper understanding of the cultural and procedural aspects of the legal profession.

*Leveraging technology in Legal English Instruction.* In the contemporary landscape of legal English education for ESL learners, leveraging online resources and platforms is imperative for a comprehensive and dynamic learning experience. A plethora of online resources tailored for language learning, such as language learning apps, websites, and virtual platforms, offer ESL students opportunities for self-directed learning and skill enhancement [8; 2]. Additionally, specialized legal language software and applications designed for ESL learners can provide targeted exercises, interactive lessons, and real-world simulations that complement traditional instruction methods [1; 4; 5]. Virtual collaborations and distance learning options further enhance accessibility and flexibility in legal language education [7; 6].

In conclusion, navigating the language of law and effectively teaching legal English to ESL students involves a nuanced approach that addresses linguistic, cultural, and pedagogical challenges. Throughout this exploration, several key strategies have emerged as essential for providing a comprehensive and enriching educational experience. From emphasizing the importance of specialized legal terminology and designing tailored vocabulary-building activities to integrating practical and immersive experiences such as role-playing exercises and virtual collaborations, educators play a pivotal role in preparing ESL learners for success in the multifaceted legal landscape.

As we reflect on these strategies, it is crucial to recognize the adaptability and inclusivity of language instruction, acknowledging the diverse backgrounds and learning needs of ESL students. Adapting language instruction to cater to the unique linguistic challenges, incorporating visual aids and employing differentiated instruction strategies contribute to creating an inclusive and engaging learning environment.

#### References

- Smith J. Precision and formality in legal English: a linguistic analysis // Legal Communication & Rhetoric: JALWD, 2019, 16(2), pp. 123–142.
- Jones S., Wang Q. Cultural contexts in legal language: a comparative study // Journal of Language and Law, 2018, 20(1), pp. 45–63.
- Johnson M., et al. Linguistic nuances in legal English: an ESL perspective // Language and Law Review, 2018, 25(3), pp. 211–229.
- Lee J., Garcia R. Simulated legal scenarios for ESL learners: enhancing language skills in context // Journal of Legal Education, 2021, 34(2), pp. 123–140.
- Brown A., White L. Legal English proficiency: a gateway to success in the global legal landscape // Journal of Language for International Business, 2018, 29(2), pp. 145–162.
- Garcia R. The role of legal English in precision and clarity in legal practice // International Journal of Legal Communication, 2021, 14(3), pp. 221–237.
- White L., et al. Differentiated instruction for ESL learners in legal education // Journal of Legal Language Teaching, 2018, 21(4), pp. 289–305.
- Jones S. Language learning apps: a comprehensive guide for ESL legal professionals // Legal Language Journal, 2021, 42(4), pp. 301–318.



## TEMURIYLAR DAVRIGA OID MANBALarda JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA OID TERMINLARNING AKS ETISHI

Terminologiyaga oid tadqiqotlar keyingi o'n yilliklarda mamlakatimiz va xorijiy tilshunoslikda yetakchi o'r'in egal-lamoqda. Buning sababi sifatida qisman fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ilmiy-texnikaviy axborot hajmining ortishi natijasida terminologik leksikaning kengayish jarayonini ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu ilmiy maqolamizda uzoq va yaqin tariximzda o'zbek tili terminologiyasi sohasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk va zabardast tilshunoslarmiz ilmiy ishlarni tadqiq qilishni joiz deb topdik. Zotan Birinchi Prezidentimiz kelajakda qilinishi lozim bo'lgan ezentrali ishlarni nazarda tutib, "Sport tinchlik elchisidir. Bizning maqsadimiz ham tinchlik, osoyishtalik va, shu asosida, jahon ahli bilan hamkorlik qilish. Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi", deb ta'kidlagan edi.

Tabarruk zaminimizda dunyo fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalar yetishib chiqqan. 8-9-asrlardayoq bizning yurtimizda "Baytul hikmat" (Donishmandlar uyi) deb atalmish fanlar akademiyasi, oradan bir muncha vaqt o'tib, 1010-yilda Ma'mun akademiyasi tashkil etilgan. Bu akademiyalarda butun dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk kashfiyotlar qilingan. Lekin ajodolarimizdan qolgan boy ma'naviy va madaniy meroislarni hamma vaqt ham saqlab qolishning imkon bo'limgan. Yurtimizga qilingan ayovsiz bosqinlar xalqimizni ajodlar qoldirgan yozma yodgorliklardan foydalanishdan bebahra qilib qo'ydi. Buning oqibatida barcha sohalar singari tilshunoslik va terminologiya sohasining rivojida ham o'ziga xos pasayishlar kuzatildi. Sohaning asosiy nazariy masalalari Yevropa olimlari nomlari bilan bog'lab kelindi. Hozirga kelib, jismoniy tarbiya va sportning shakllanishi va tarkib to'pish tarixini, ularning mazmun-mohiyati, turlari, o'tmishda qanday terminlar bilan nomlanganini ilmiy manbalar asosida o'rganib, lisoniy nominatsiyalar orqali ilmiy jihatdan tadqiq etishning muhimligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Turkolog olim V.V.Bartold "mo'g'ullar turkiylardan yozuv madaniyatini o'zlashtirdi", deb qayd etgan. Mo'g'ullar davrida Markaziy Osiyoda badiiy adabiyot fors tilida yaratildi. Mo'g'ullar tomonidan amalga ko'tarilgan ma'lum turkiy elat vakillari turkiy tilda ijod qilish g'oyasini olg'a surdi. A.K.Borovkov, A.M.Shcherbo kabi turkologlarning e'tirof etishlaricha, aynan Mo'g'ullar imperiyasining so'nggi davrlaridan boshlab o'zbek tili fors tilidan ajrala boshladi. "Tavsir", "Muhabbatnama", "Qissai Rabg'o'ziy" kabi o'limas adabiy meroislarmiz o'zbek tilining ilk yodgorliklari sanaladi.

Tilimizga oid mayjud so'zlar tizimini umumlashtiruvchi muayyan qo'llanma yaratilishi butun O'rta Osiyo, Sharqiy Yevropa, Rossiya Federatsiyasining janubiy-sharqiy hududi turkiy xalqlari uchun eng dolzarb masala bo'lib turgan bir paytda, buyuk sarkarda Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi va Temuriylar saltanatining vujudga

kelishi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun turkiy xalqlar tilshunosligi tarixida Temuriylar davri beqiyosligi bilan ajralib turadi. Ushbu davr olimlari, asosan, forsiy tilda, arab imlosi orqali ijod qilgan. Sohibqiron Amir Temur o'z davrining yetuk bilimdoni bo'lgani uchun o'z atrofiga olim-u fuzalolarni to'pladi, bu davrda ilm-fan, madaniyat, san'at gullab-yashnadi va turk (o'zbek) tilining fors tili bilan teng darajaga chiqishiga shart-sharoit yaratib berdi. Bunga Temurning o'zi ham buyuk tashkilotchilik qobiliyati bilan munosib hissa qo'shdi.

Ushbu davrda o'zidan boy ma'naviy meros qoldirgan buyuk shoir, tilshunos olim, faylasuf Hazrat Mir Alisher Navoiydir. A.Navoiyning tilshunoslikning leksikologiya sohasiga qoldirgan katta merosi bu – "Muhokamat ullug'atayn" (Ikki til muhokamasasi) asaridir. Asarning 2014-yilgi yangi nashrida juda ko'plab jismoniy tarbiya va sport (JTS)ga daxldor so'zlar va atamalarni, masalan, egar, to'qum, qamchi, jorlig', dastor, qolpoq, baydaq, boyliq, bisot, dav, dilovar, kushti, kushtigir, madh, mot, paykor, pahlavon, piyoda, pil, shatranj, shoh, ruh, chavgon, g'olib, ilmi badan, ko'ngil tarbiysi kabilarni uchratish mumkin.

A.Navoiy "jismoniy tarbiya" atamasi o'nida "ko'ngil tarbiysi" atamasini ham ishlatib, "Ko'ngil badan mulking podshosidir. Ko'ngilning salomatligi – badanning ham salomatligidir", deya e'tirof etgan. Bundan tashqari, olim o'zining "Hayrat ul-abror" dostonida shaxmat haqidagi fikr va mulohazalarini bayon etib, uning juda qadimiy va ulkan aql-idrok talab qiladigan, nafis, jozibali hamda murakkab ekanligini yozib qoldirgan.

Olimning badiiy asarlarida shaxmatga oid atamalar qo'llangan misollarni ko'ramiz va qiyoslaymiz: *shatranj* – shaxmat (o'yini); *bisot* – shaxmat taxtasigi; *baydaq* – piyoda; *shoh* – shoh; *pil* – fil; *rux* – rux:

Olib qo'ysa *baydaqni shoh* yonida,  
Yana *pil* qo'ysa *rux* ayvonida.  
(Saddi Iskandariy)

Aningdekki tifl istabon inbisot,  
Chu *shatranj* o'ynarg'a yoysa *bisot*.  
(Saddi Iskandariy).

Agarchi arsa xoli qolsa mutlaq,  
Tutarmi anda *shoh* o'rnini *baydaq*.  
(Farhod va Shirin)

Turk tilshunosligida A.Navoiyning paydo bo'lishi va turkiy tilning ravnaqi tobora orta boshlashi forsiyzabon olimlar qiziqishini uyg'otdi. Buning natijasida bir qancha forscha-turkcha va turkcha-forscha lug'atlar dunyo yuzini ko'rdi. Lug'atlarning tarkibida jismoniy tarbiya va sportga doir atamalar ham yig'ilgan. Jumladan, Toli Imonining "Badoi al-lug'at", Muhammad Rizo Hansarning

“Muntahab al-lug’at”, Aloyi binni Muhibiyning “Abushqa”, Mehdixonning “Sangloh”, Muhammad Yaqub Chingiynning “Kelurnoma” kabi lug’atlari, asosan, Navoiy asarlaridagi turkiy so’zlar va atamalarga qiyoslanib yaratilgan.

Temuriylar davridan boy madaniy meros qoldirgan allo-malardan yana biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Shuni qayd etish joizki, Amir Temur avlodni bo’lgan Mirzo Bobur Boburiylar imperiyasining asoschisi hamdir. Mirzo Bobur o’zining o’tkir zehni, nozik qalbi, ravon fikrlari bilan na-faqat o’zbek xalqi uchun, balki hind xalqi uchun ham ulkan meros qoldira olgan buyuk shaxs. M.Boburning bizgacha yetib kelgan eng katta merosi “Boburnoma” bo’lib, ushbu asarda qariyb 200 dan ortiq JTSga oid atamalar mavjud. 2014-yilda chop etilgan “Boburnoma” ensiklopediyasida JTS so’zlarining to’liq tahlili ko’rsatilgan. Misol uchun, قرآن - qo’r - kamar, يلک - yalak - yaktak, جبل - chopqun - qilichbozlik, طئون - o’tog’ - o’tov, شادیر - chatr - chodir, قوّاطعین - qullatayn - hovuz, سوغات - savg’ot - sovg’a, شیرزین - tabrizin - oybolta, بیازی - piyoziy - nayza, شترنج - shaturanj - shaxmat, ششبار - shashpar - to’qmoq, ساغداغ - sag’dog’ - sadoq, آت - ot - ot, جاوهکن - chavgan - chavgon, کسّات - kistan - dastasi zanjirli, arqonli cho’qmor, خاڅن - xayl - guruuh, طوفن - tufang - miltiq; ترانداز - taxshandaz - taxshandoz - taxsh otuvchi, تراندوز - tirandoz - mergan, سُوف - sufuf - reja, سریاث - sariyat - guruh, پیکان - paykon - o’q-yoy, آین - oyin - o’yin (urf), تانوب - tanob - ip, arqon, افند - iqd - bitim, shartnama, زوارق - zavraq - qayiq, kema, جبا - jiba - zirhli kiyim,sovut; یاغلۇق - yog’liq - yorliq, بۇرۇك - bo’rk - bosh kiyim, قىلىش - qilich - qilich.

M.Bobur o’z asarida JTS atamalariga ko’p bora murojaat etgan, masalan, “Olachaxon der edikim, shashpar va piyoziy va kistan va tabrizin, tegsa bir yerin korgardur (yara qiladi), qilich agar tegsa, boshdin oyoq korgardur, kesar”(B. 103b.) yoki “Xayl-xayl kelib manga navkar bo’ladurlar” (B, 123b.). Keltirilgan misollarda shashpar, piyoziy, kistan, tabrizin, xayl kabi bir nechta JTS atamalari M.Bobur davridagi atama nomlari bo’lib, hozirda boshqa nomlar ko’rinishida qo’llaniladi.

A.Navoiy va Z.M.Bobur asarlaridagi mavjud jismoniy tarbiya va sportga oid terminlarni R.Ismoilov, M.Norkinlar yaratgan “Jismoniy tarbiya va sport terminlari lug’ati” bilan solishtirganimizda o’zining lisoniy xususiyatlarni yo’qotmagan leksik birliklarni topishga muvaffaq bo’ldik.

Temuriylar davrida barcha soha singari o’zbek (turk) tilshunosligi ham o’zining eng cho’qqi nuqtasiga chiqdi. Buning zamirida esa badiiy adabiyotda Alisher Navoiy bilan bir qatorda Mavlono Lutfiy, Sakkokiy kabi ulug’ adiblar, Mirzo Ulug’bek, Said Ahmad ibn Mironshoh, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur singari Temuriyzodalarning xizmatlari ham salmoqlidir. Qirg’iz xalqi va 20-asrning buyuk adibi Chingiz Aytmatov: “Hozirgi barcha turkiyzabon xalqlar Amir Temur oldida qarzdor”, degan edi. Adibning bu fikrlariga qo’shimcha qilgan holda shuni aytish mumkinki, hozirgi barcha forsiy hamda turkiyzabon filologlar Hazrat Navoiy va Mirzo Bobur merosini o’rganib, ular qilgan mehnatni his qilishlari kerak.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

- Karimov I.A. Birinchi tennis turniri ochilish marosimida so’zlagan nutqi // Xalq so’zi, 1994, 30 may.
- Hidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. – Toshkent: O’qituvchi, 1992. – 304 b.
- Mahmudov N., Nurmonov A. O’zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: Kamolot, 2000.
- Navoiy A. Muhokamat ul-lug’atayn. Mukammal asarlar to’plami. Toshkent: Fan, 2000.
- To’ychiyev B., To’ychiboyev B. “Boburnoma” – qomus. – Toshkent, 1992.
- Ismoilov R., Norkin M. Ruscha va o’zbekcha sport-fizkultura terminlari izohli lug’ati. – Toshkent, 1961.

**Dildora IBRAGIMOVA,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi*

## PAYG’AMBARLAR QISSALARI – TARIXIY NASR NAMUNASI SIFATIDA

Arabcha “qissa” va “nabiy” so’zlarining ko’plik shakllari dan tashkil topgan “Qisasi anbiyo” payg’ambarlar qissalari va hikoyalari ma’nosini bildiradi. Shu ma’noda “axbori anbiyo” atamasi ham qo’llaniladi.

Qur’oni Karimda yigirma sakkiz nafar payg’ambarning ismlari zikr qilingan. Ulardan uchtasi bahsli. Yana ko’plab payg’ambarlar borki, ularning ismlari va qissalari xabar qilinmagan (“an-Niso”, 4/164; “al-Mo’min”, 40/78). Nomlari zikr etilgan payg’ambarlardan ayrimlarining hayot qissalari, va’zgo’ylik faoliyati, asosan, ibratli fazilatlari batafsil, ayrimlarining qissalari esa qisqacha bayon etilgan. Qur’onda Odam Ato, Ibrohim, Yusuf, Muso va Iso kabi payg’ambarlarning qissalari batafsil bayon etilgan. Bundan

tashqari, Qur’onda payg’ambarlar, turli shaxs va qabilalar haqidagi qissalar, shuningdek, Qur’on nozil bo’lgan davrda ro’y bergen ayrim voqealar ham o’rin olgan.

Qur’onda hikoya qilingan qabilalar va voqealar, shuningdek, payg’ambarlar va ularga tenglashtirilgan insonlar Tavrot va Injilda ham rivoyat qilingan. Ko’plab hikoyatlar Islom davrida yahudiylar va nasroniylarga ham ma’lum bo’lgan, shuningdek, ularni yahudiylar bilan birga yashagan arablar ham bilishgan. Shu bois Qur’on nozil bo’lishi jarayonida bundan nihoyatda bezovta bo’lgan makkalik mushrikilar Qur’on yetkazgan va Payg’ambarimiz (s.a.v.) yetkazgan qissalarni “asotirul-avvaliyin” deb atashgan (“al-Furqon” 25/5).

Qur'on tarix kitobi bo'lmagani uchun unda voqealar namuna va ibrat sifatida bayon qilinadi. Tarix davomida Qur'oni yaxshi tushunish va payg'ambarlarning ibratli hayotlarini o'rganish uchun payg'ambarlar qissalariga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Qur'onda qisqacha zikr qilingan qissalar keyinchalik Qur'ondan tashqari manbalar bilan kengaytirildi. Bu o'rinda "Isroiyyat" deb nomlangan yahudiy va nasroniyarning muqaddas matnlari va yahudiylarning diniy adabiyotlaridan foydalaniman. Ahli kitoblarning bu ilmi Islom doiralariga kiritilishi sahabalar davrida boshlangan bo'lsa-da, asosan, tobeinlar va undan keyingi davrlarda keng tarqaldi. Tobein ulamolaridan Vahb b. Munabbih va Ka'b al-axbor rivoyatlari hadis kitoblari bilan bir qatorda tafsir va tarix manbalarida ham keltirilgan.

Kotib Chalabi "Qisasi anbiyo" asarini yozgan ilk muallif Vahb b. Munabbih (vaf. 110/728) ekanligini aytadi. Ahli kitoblarning haqidagi ko'plab rivoyatlar u orqali Islom adabiyotiga kirib kelgan. Kotib Chalabi Ali b. Hamza al-Kisai, Sehl b. Abdulloh at-Tusiy, Muhammad b. Abdulmalik al-Musabbihiyning arabcha, Muhammad b. Hasan ad-Dandurmiy va Ibrohim b. an-Nisoburiyning forscha "Qisasi anbiyo"sinı tilga oladi [1].

Qisasi anbiyo janridagi eng mashhur asarlar Sa'labiyning "Aroisul-majolis" [2] va Kisaining "Qisasul-anbiyo" [3] nomli kitoblaridir. Keyinroq yozilgan asarlarning aksariyati bularning tarjimalari yoki qisqartirilgan versiyalari sifatida e'tirof etiladi. Abu Rifo Amarra al-Farisiyning "Bedul-Xalq va Qasasul-anbiya", Ali b. Hamza al-Kisoyning "Al Mubtado fil Qasassil-anbiya", Muhammad b. Abdulloh al-Kisoyning "Qassasil-anbiya", Abu Abdulloh Muhammad b. Ahmad al-Kinani at-Tarafiyning "Qisasi Anbiyo", Ibn Kesirning "Qasasul-anbiyo", M. Ahmad Jadalmavlo va uning do'stlarining "Qasasul-Qur'on", Abdulvahhab an-Najorning "Qasasul-anbiyo" nomli asarlari bu janrning asosiy namunalardandir. Boshqa tomonidan, Qur'ondagi bir yoki bir nechta qissaga e'tibor qaratilgan yoki payg'ambarlar tarixidan hikoya qilgan turli nomdagi asarlar ham mavjud.

Turk tilida bitilgan bir qancha anbiyolar qissalari

bor. Ularning aksariyati Salabiy va Kisaining qissalariga asoslangan bo'lib, bu kitoblar orasida eng qadimgisi Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uzi" asaridir [4]. XIII asrda yaratilgan mazkur qissaning XV asrga oid qo'lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida, XVI asrda ko'chirilgan nusxasi Sankt-Peterburgda, XIX asrda ko'chirilgan qo'lyozma, shuningdek, bosma nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida (inv. 1025, 7397, 1874) saqlanadi.

Turkiy tildagi tarixiy qissa mualliflaridan yana biri Alisher Navoiydir. O'zbek adabiyotshunosligida Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" va "Tarixi mulki ajam" asarlari turkiy tilda yozilgan ilk tarixiy asar sifatida ta'kidlanadi (akademiklar B. Valixo'jayev, A. Qayumov va S. G'aniyeva). Bu olimlar yashagan davrdagi o'zbek adabiyotshunosligida Rabg'uziyning qissasi yetarlicha tadqiq etilmagan, "Qisasi Rabg'uzi" mustaqil badiiy asar sifatida yetarli baholanman edi. Alisher Navoiy o'zining tarixiy asarlarini an'anaga ko'ra, dunyoning yaratilishi hamda payg'ambarlar tarixi haqidagi hikoyalar bilan boshlaydi.

Alisher Navoiy tarixiy mavzudagi asarlarida qardosh xalqlardan Jaloliyning "Nizomut tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Banokatiyning "Jome ut-tavorix", "Tarixi Banokatiy", Muhammad G'azzoliyning "Nasihat ul-muluk", Hamdulloh al-Mustavfiyning "Go'zida", Salmon Forsiy, Ibn Abbas, Vahb binni Muhabbih kabi tarixchilarning asarlaridan manba sifatida foydalanganini yozadi [5: 17].

Navoiydan keyin Xoja, Gulxaniy, Munis, Ogahiy kabi ijodkorlar tarixiy nasrnavislikni davom ettirdilar.

Diniy asosdagi mazkur an'ana XX asrda ham dolzabrigini yo'qotmadni. Bu davrda turk adabiyotida Shokir Berkning "Qur'ondagi Payg'ambarlar tarixi" (Anqara, 1958); Mustafa Asim Koksalning "Payg'ambarlar tarixi" (Anqara, 1990); Ahmad Lutfiy Qozonchining "Payg'ambarlar tarixi" (Istanbul, 1997); Abdulla Aydemirning "Islom manbalari ga ko'ra payg'ambarlar" (Anqara, 1992); M. Dikmen va B. Ateshning hamkorlikdagi "Payg'ambarlar tarixi" (Istanbul, 1977) nomli asarları yozildi.

### Foydalaniman adabiyotlar

1. Kâtib Çelebi. Keshfü'z-zununun, II, 1328-yil.
2. "Arâisü'l-mecâlis", DîA, III, 265–266.
3. Nagel T. Kîşâs al-Anbiyâ'. El2 (Fr.), V, 177–178.
4. Süreyya Şahin M. Kisas-i enbiyâ. TDV İslâm Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/kisas-i-enbiya> (14.11.2023).
5. Pardayeva I.M. Alisher Navoiy tarixiy asarları badiiyati. Filol. fan. bo'yicha fals. dok. diss. – Toshkent, 2018.

Zilola MIRQODIROVA,  
Uzbekistan State World Languages University, English  
Philology Faculty, a 2nd course student

## WAYS OF TEACHING ENGLISH EFFECTIVELY

Teaching English to students, particularly those with diverse linguistic backgrounds, presents a myriad of challenges and complexities that educators must navigate. As the global demand for English proficiency continues to rise, educators are faced with the task of

effectively teaching this language to students with varying levels of proficiency and unique learning needs.

One of the primary challenges in teaching English to students lies in the diverse linguistic backgrounds and proficiency levels of learners. Students come from dif-

ferent cultural and linguistic contexts, each with their own set of language learning experiences and challenges. This diversity can pose difficulties for educators in designing instruction that meets the needs of all students, particularly those who may struggle with language acquisition due to limited exposure to English. Furthermore, the lack of resources and support for English language learners can also hinder their language development. Many schools may not have adequate materials or programs in place to support these students, making it difficult for educators to provide the necessary scaffolding and support for language acquisition. Additionally, the pressure to meet academic standards and assessments may overshadow the need for targeted language instruction, further exacerbating the challenges faced by students learning English.

Cultural differences and misunderstandings can also impact the teaching and learning process. Educators must be aware of the cultural backgrounds of their students and understand how these factors may influence their language learning experiences. Creating an inclusive and culturally sensitive learning environment is crucial for supporting the linguistic and cultural diversity present in the classroom.

Despite these challenges, there are strategies and approaches that educators can employ to effectively teach English to students. By implementing differentiated instruction, using visual aids and technology, providing ample opportunities for practice and feedback, and fostering a supportive and inclusive classroom environment, educators can help students overcome language barriers and achieve proficiency in English:

**Differentiated Instruction:** Research has shown that implementing differentiated instruction can effectively address the diverse needs of English language learners. By tailoring instruction to meet the individual learning styles, abilities, and backgrounds of students, educators can provide targeted support for language acquisition. This approach allows teachers to scaffold learning experiences based on students' proficiency levels and provide appropriate challenges to promote language development.

**Visual Aids and Technology:** Visual aids and technology can enhance language learning by providing visual cues, interactive activities, and multimedia resources to support comprehension and engagement. Research has shown that incorporating visual aids and technology in English language instruction can improve students' understanding of language concepts, vocabulary retention, and overall language proficiency.

**Language Practice and Feedback:** Providing ample opportunities for students to practise speaking, listening, reading, and writing in English is essential for language acquisition. Research suggests that regular practice and feedback help students develop their language skills, build confidence, and improve fluency.

**Culturally Responsive Teaching Practices:** Understanding the cultural backgrounds and experiences of English language learners is crucial for creating an inclusive and supportive learning environment. Research has shown that culturally responsive teaching practices can enhance students' engagement, motivation, and academic success in learning English.

**Collaborative Learning:** Collaborative learning activities, such as group projects, peer tutoring, and cooperative learning tasks, can facilitate language acquisition by providing opportunities for students to interact with their peers, practice communication skills, and engage in meaningful language use. Research suggests that collaborative learning promotes social interaction, language development, and cultural exchange among students learning English.

**Formative Assessment:** Formative assessment strategies, such as informal quizzes, peer evaluations, and classroom discussions, can help educators monitor students' progress in learning English and provide timely feedback for improvement. Research has shown that formative assessment practices support language development by identifying students' strengths and areas for growth, guiding instructional decisions, and promoting reflective learning practice.

**Communicative Language Teaching (CLT)** focuses on communication as the primary goal of language learning. Research shows that CLT helps students develop their speaking and listening skills through meaningful interaction, leading to improved communicative competence [1].

**Task-Based Language Teaching (TBLT)** emphasizes the use of tasks to promote language learning. Studies indicate that TBLT enhances students' language proficiency by engaging them in real-world tasks that require the use of language for communication [2].

**Content and Language Integrated Learning (CLIL)** integrates language learning with content instruction. Research suggests that CLIL improves students' language skills while enhancing their understanding of content in various subjects [3].

**Total Physical Response (TPR)** uses physical movement to reinforce language learning. TPR can improve students' retention of vocabulary and grammar structures through kinesthetic learning experiences.

By incorporating these research-based methods and strategies into teaching practices, educators can effectively address the challenges associated with teaching English to students with diverse linguistic backgrounds. By leveraging differentiated instruction, visual aids and technology, language practice and feedback, culturally responsive teaching practices, collaborative learning, and formative assessment, educators can create a dynamic and inclusive learning environment that supports students' language acquisition and academic success in learning English.

## References

1. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and methods in language teaching. – Cambridge University Press, 2001
2. Ellis R. Task-based language learning and teaching. – Oxford University Press, 2003.
3. Coyle D. Content and language integrated learning: towards a connected research agenda for CLIL pedagogies // International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 2007.